

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIIXY
GRAMMATIKASI

o`quv fanidan ma`ruzalar matni

Тузувчи: ф.ф.н. Ахмедов

Buxoro 2014

Taqrizchilar: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Yoqubjon Saidov,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sa'di Naimov.

SHARTLI BELGILAR, QISQARTMALAR

C – undosh (konsonant) ramzi,

V – unli (vokal) ramzi

QTM – lingvistik qiyosiy-tarixiy metod

QTT – lingvistik qiyosiy-tarixiy tilshunoslik

o'zb. – o'zbekcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

qoz. – qozoqcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

qir. – qirg'izcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

turkm. – turkmanchacha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

tur. – turkcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

turk. – turkmancha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

tot. – totorcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

qor. – qoraqaloqcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

yoq. – yoqutcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

chuv. – chvascha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

tuv. – tuva tiliga xos lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

uy. – uyg'urcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

um. – umumturkiy (boboturkiy) lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi,

gap)

qtr. – qadimgi turkiy til

yev. – rus va Yevropa tillariga mansub lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

rus. – ruscha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

ar. – arabcha lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

toj. – eroniy lisoniy birlik (so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap)

Transkripsion belgilar

/a/ - keng (quyi), orqa qator (qattiq), lablanmagan unli,

/a' / - keng (quyi), old qator (yumshoq), lablanmagan unli,

/o/ - keng (quyi), orqa qator (qattiq), lablangan unli,

/o' / - keng (quyi), old qator (yumshoq), lablangan unli,

/u/ - tor (yuqori), orqa qator (qattiq), lablangan unli,

/u' / - tor (yuqori), old qator (yumshoq), lablangan unli,

/i/ - tor (yuqori), orqa qator (qattiq), lablanmagan unli,

/i' / - tor (yuqori), old qator (yumshoq), lablanmagan unli,

/a^o/ - keng (quyi), orqa qator (qattiq), yarim lablangan unli,

/e/ - o'rta keng, old qator (yumshoq), lablanmagan unli,

/u^d/a^d/ - unli ustidagi ^d lablangan diftongga ishora qiladi (chunonchi: a^ow, ow, uw)

/u^d/a^d/ - unli ostidagi ^d lablanmagan diftongga ishora qiladi (chunonchi: ay, iy, ey)

/=/r - undoshdan oldin istagan turdagi bog'lovchi unli

Ayrim undoshlar uchun belgilar

/w/ - lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli undosh

/v/ - lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli undosh

/dh/ - til-tishlararo (interdental), sirg'aluvchi, jarangli undosh

/th/ - til-tishlararo (interdental), sirg'aluvchi, jarangsiz undosh

/x^h/ - /x/ va /h/ oralig'idagi (indifferent) undosh

/ʔ/ = undosh belgisi ustida qo'yilib, uning old qator (yumshoq) ekanligiga ishora qiladi – chunonchi /bʔ/ = yumshoq /b/; bu belgining yo'qligi undoshning qattiqligi yoki indifferentligini ko'rsatadi.

/ʔi/ - unli/undoshlarda ma'lum bir fonetik farqqa (qattqlik ~ yumshoqlik, lablanganlik~lablanmaganlik...) nisbatan befarqlik, indiferentlikka ishora qiladi

Boshqa shartli belgilar

-/=r – undoshdan oldin istagan turli unli kelaolishiga va bu unli qo'shimchani undosh bilan tugagan o'zak/negiz bilan bog'lash vazifasini o'tashiga ishora. Unli bilan tugagan o'zak/negizlarda bu unli odatda bo'lmaydi. Chunonchi: -/=r. Demak bu qo'shimcha undoshlardan keyin –ar/-a`r/ ir/ i`r/ ur/ u`r/ or/ o`r/ +ar/ +ir/ +u/ +or kabi 12 shaklda, unililardan keyin esa –r shaklidagiona keladi

-ib⁴/i`b⁴/ub⁴... - unlilarning farqlanishiga ko'ra qo'shimchani imkoniyatli fonetik variantlari soni.. Chunonchi, yuqorida sharhlangan -/=r yana -/=r¹² shaklida ham berilishi mumkin.

a : i , b : w , -mar : -maz ... fonemalar/morfemalar orasiga qo'yilib qat'iy tovush/morfem mos kelishi bilan almashinishga ishora qiladi

a ~ i , b ~ w , -mar ~ -maz ... fonemalar/morfemalar orasiga qo'yilib noqat'iy, sporadik almashinishga ishora qiladi

1-MA'RUZA (2-soat)

Kirish. O'quv fanining talab va maqsadlari, umumiy mazmuni, o'quv va ilmiy adabiyotlari, reyting tizimi.

Reja:

1. O'quv fanining talab, maqsadi va vazifalari.
3. O'quv fanining zaruriy adabiyotlari va ularning ustida ish usullari.
2. O'quv fanining reyting tizimi - JB,OB,YB silsilasi, mustaqil ta'limga chiqarilgan mavzular.
4. Mustaqil o'rganishga chiqarilgan mavzular va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish uchun tavsiyalar.
5. Yakun.

Adabiyotlar¹: /1;4;6;15;17/.

“O'zbek filologiyasi” yo'nalishi o'quv rejasida VII-VIII-o'quv jarayonlarida jami 104 soatlik (30 soat ma'ruza, 22 soat amaliy, 22 soat seminar, 30 soat mustaqil ta'lim) “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” o'quv fanini o'rganish nazarda tutilgan. Universitetimizda tasdiqlangan namunaviy va ishchi dasturda bu o'quv fanini bakalavriat bosqichida o'rganish oldida muayyan nazariy va pragmatik maqsad va vazifalar qo'yilgan. Nazariy jihatdan bu o'quv fani talabalarni qiyosiy tarixiy metod tushunchasi, uning asosiy tamoyillari, ish usullari, maqsad va vazifalari, turkiy tillar tavsifida qo'llanilishi bilan, o'zbek tili shevalari va adabiy tili orasidagi farqlarning manbalari va sabablari, turkiy tillar qiyosiy-tarixiy fonetikasi va grammatikasining asosiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan tanishtirishni ko'zlasa, pragmatic nuqtayi nazaridan – ta'lim oluvchilarni O'rta Osiyoda keng tarqalgan turkiy tillarning (qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur tillarining) o'zbek tili qurilishidan jiddiy farqli fonetik-grammatik xususiyatlari bilan tanishtirish va bu tillarda nashr etilayotgan ijtimoiy-siyosiy va rasmiy matnlarni uqiy olish ko'nikmalarini hosil qilish vazifasi qoyilgan. O'zbekistonda mavjud bo'lgan o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-uyg'ur kabi zullisonaynlikni hisobga olsak, bu o'quv fanining amamliy ahamiyati yna ham oshadi va ma'lum metodik maqsadlarni ham ko'zlaydi – o'zbek adabiy tilini ona tili hodisalari sifatida

¹ Bu yerda ishning oxirida ilova qilingan “Ma'ruza matnida shartli – raqam bilan ko'rsatilgan mafkuraviy, metodologik va ilmiy-o'quv adabiyotlar ochqichi.”da shu ma'ruza mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan adabiyotlarning tartib raqami, zarur bo'lgan hollarda vergul bilan ajratilgan shaklda betlari ko'rsatilgan: Chunonchi: /8; 21,11-81; 28;/ - bu mavzuga mazkur ruyxatda 8- va 28-raqamlar ostida turgan ishlar to'raligicha, 21-raqam ostida turgan ishning 11-81-betlari bevosita aloqador ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari ma'ruza matnida uning ayrim bandlariga oid ilmiy adabiyot o'z o'zida berib boriladi.

o'rganish jarayonida ularni shu mintaqa uchun yondosh qozoq / qirg'iz / turkman / uyg'ur kabi turkiy tillar bilan qiyoslash sheva xatolarini bartaraf etishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Turkiy tillarning o'zaro qarindoshligi masalasi turkiyshunoslik olamida keng ommalashgan, bu o'quv fani bo'yicha barcha darslik va qo'llanmalarda sharhlangan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning bobotil nazariyasi tamoyillari asosida yoritilgan.

Talabalarini turkiy tillar fonetikasi, grammatikasi bo'yicha mustaqil qiyosiy-tarixiy ilmiy izlanishlar olib borishga tayyorlash, ularda qiyosiy-tarixiy lingvistik tadqiq metodidan amaliy foydalana olish malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish uchun qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda eng muhim masala – tillarning genealogik (qarindoshlik) munosbatlari talqinida turkiyshunoslikda ikki xil yondashish mavjudligi hisobga olindi. Bularidan biri bobotil nazariyasi va shajara daraxti bo'lsa, ikkinchisi "to'lqin nazariyasi"dir. Bobotil nazariyasi bilan talabalar, ilmiy adabiyotlar asosida osonlikcha tanisha oladilar, shuning uchun qo'llanmada qiyosiy-tarixiy tahlil va talqinni, asosan, "to'lqin nazariyasi" tamoyillari asosida berish lozim ko'rildi.

Bu o'quv fani uchun eng asosiy ilmiy adabiyot hozircha jahonda yagona va eng keyingi umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqot bo'lgan RF FA Tilshunoslik instituti tomonidan E.R.Tenishev (1921-2005) umumiy tahriri ostida 1984-1988-yillarda nashr etilgan (o'quv fani namunaviy va ishchi dasturlarida keltirilgan) 4 qismdan iborat "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" (uning 3-sintaksisga bag'ishlagan qismi N.Z.Gajiyeva va B.A.Serebrennikovlar muallifligida berilgan) tadqiqotidir. Bu umumlashma asardan to'laroq va mukammalroq tadqiqot hali butun dunyoda yo'q². Bu kitobdan universitet kutubxonasida yetarli miqdorda bo'lganligi sababli talabalar undan bema'lol foydalana oladilar.

Bundan tashqari, yuqorida zikr etilgan ilmiy umumlashma bilan oldinma-keyin nashr etilgan rus tadqiqotchisi – o'zbek tili tarixini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan Aleksandr Shcherbakning (tug'. 1928) turkiy tillarning qiyosiy fonetikasiga bag'ishlangan doktorlik monografiyasi (Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л.: 1970), shu olimning 1-qismi turkiy tillarda ismlar (ot, sifat, son, olmosh), 2-qismi fe'llar, 3-qismi ravish va yordamchi so'z turkumlarining morologik xususiyatlari qiyosiy-tarixiy tadqiqiga bag'ishlangan ishlari silsilasi ham fan olamida mashhurdir. Afsuski, bu nashrlar hozirgi kunda universitetimiz kutubxonasida mavjud emas, lekin markaziy kutubxonalarda, o'zimizda xususiy kutubxonalarda bor.

Har ikkala nashrda eng qadimgi va hozirgi turkiy tillarning X asrdan XX asrning 80-yillarigacha bo'lgan davridagi tadqiqda erishilgan katta yutuqlar va tadqiqotlarning natijalari umumlashtirilgan va juda katta bibliograik material keltirilgan.

Tabiiyki, turkiy filologiyaga kirish bo'yicha butun dunyoda (qator G'arb va Sharq tillariga tarjima qilingan) asosiy qo'llanma bo'lgan A.N.Baskakovning (1905-1998) "Turkiy tillarni o'rganishga kirish" asari (shu asar asosida yaratilgan va turli tillarda – jumladan, o'zbek tilida ham Iristoy Qo'chqortoyev va Baxtiyor Isobekovlar tomonidan – nashr etilgan o'quv qo'llanmalari) materiallari ham bu o'quv fanini o'zlashtirish uchun juda zarurdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mavzu bo'yicha yuqorida zikr etilgan olamshumul tadqiqotlarning natijalarini to'la hisobga olib Termiz universiteti dotsenti Yomg'ir Abdurasulov (1932-2010)ning 2005-yilda yakunlangan, lekin nashr etilmagan "ТУРКИЙ ТИЛЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ-ТАРИХИЙ ГРАММАТИКАСИ. Филология факультети учун (ўқув-усулий қўлланма)" asari ham mavjuddir. Bu nashrga tavsiya etilgan, lekin noma'lum sabablarga ko'ra haligacha yorug' olam yizini ko'ra olmayotgan qo'llanmaning elektron nusxasi kafedra kompyuteri xotirasida va unversitet elektron kutubxonasida mavjud bo'lib, talabalar undan bema'lol foydalanishlari va hatto nusxa chiqarib olishlari mumkin.

² Qar.; НигматовХ.Г., Абдуазизов А. Рец. "Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. Отв.ред. Э.Тенешев" – журнал Советская тюркология. 1984 .№5. С. 102-104; Нигматов Х.Г., Абдуазизов А. Рец. "Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология.. Отв.ред. Э.Тенешев" – журнал Советская тюркология. 1985. .№3. С. 105-109.

Har bir alohida mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar yuqorida sanalagan umumlashma ishlarda, eslatib o'tganimizdek, m u f a s s a l keltirilgan. Qo'shimcha adabiyotlar ma'ruza matni ichidagi ilmiy havolalarda beriladi.

O'quv fanning reyting tizimi – har bir JB,OB mazmuni, talab va baholash mezonlari – o'quv fani ishchi dasturiga ilova qilingan “TURKIY TILLARNING QIYOSIY GRAMMATIKASI o'quv fanidan reytingni baholash mezonlari”da ochib berilgan.

FAN BO'YICHA SOATLAR TAQSOMOTI

Ma'ruza		Tajriba		Amaliy va seminar		Jami	
Audotor	Mustaqil	Audotor	Mustaqil	Audotor	Mustaqil	Audotor	Mustaqil
30	10	-	-	22+22	20	74	30

FAN BO'YICHA BALLAR TAQSOMOTI

Audior			Mutaqil		
JB	OB	Jami	JB	OB	Jami
30	20+20		-		70

Yakuniy baholash (o'quv fani bo'yicha) – 30 bal. Jami: 70+30 =100

Bu o'quv fanidan talabalarning mustaqil ta'limi va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim

Bu o'quv fanidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirliklari yoki sohamiz bo'yicha yetakchi oliygoh sanalgan O'zMU tomonidan chiqarilgan o'quv qo'llanmasi mavjud emas. Shuning uchun bu o'quv fanidan hozircha talabalar bema'lol foydalanishlari mumkin bo'lgan usuliy qo'llanma kafedrada va universitet elektron kutubxonasida mavjud bo'lgan ma'ruzalar matni va oldingi badda sanab o'tilgan ilmiy adabiyotlardir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, elektron kutubxona fondida mavjud bo'lgan bu o'quv fani bo'yicha O'ZBEKISTONDAGI BOSHQA OLIYGOHLARNING (jumladan, QarshiDU, O'zMU) ma'ruza matnlari o'quv faniga DTS qo'yadigan talablarga faqat qisman javob beradi, chunki ularda, asosan, “Turkiy filologiya kirish” o'quv fanining materiallari yoritilgan bo'lib, N.A.Baskakov, F.R.Zeynalov hamda I.Qo'chqortoyev, B.Isabekovlarning “Turkiy filologiyaga kirish” qo'llanmalari materiallari asosida yozilgan. Shuning uchun ulardan faqat ayrim mavzularni qisman o'rganish uchungina foydalanish mumkin.

O'quv fanining mustaqil ta'limi bo'limiga chiqarilgan masalalarni o'rganishda talabalar quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

1. Avvalo ular bu kursni o'zlashtirish, birinchidan, tilshunoslik nazariyasi, o'zbek dialektologiyasi bo'yicha o'tilgan materiallarni chuqur bilishni talab qilishini esdam chiqarmasliklari lozim. Shuning uchun o'quv fani mavzularining birinchi bo'limida “QTM haqida, areal; lingvistika, dialektologiya asarlarni o'rganish”, shuningdek “O'zbek shevalarida so'zlarda tovush almashinuvlari va mos kelishlari ” mavzularini mustaqil o'rganish va takrorlash topshirildi.

2. Bu kurs bo'yicha hozircha tugal umumlashtiruvchi tadqiqot yuqorida zikr qilingan akademik E.R.Tenishev rahbarligida tuzilgan to'rt qismdan iborat tadqiqotlarning uch qismidir. Bular:

Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. - М.; Наука. 1984.;

Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. - М.; Наука. 1988.;

Гаджиева Н.З., Серебренников Б.А. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.Синтаксис. - М.; Наука. 1986

kabi 1984-88-yillarda nashr etilgan adabiyotlardir. Shu tadqiqotlardan birinchi va ikkinchilarini o'rganib chiqqan va axborotlarini o'zlashtirgan talaba o'zini bu o'quv fani materialini to'liq va mukammal o'zlashtirgan sanashi va qanoat hosil qilishi, mustaqil ravishda qiyosiy-tarixiy tadqiqotlarga qo'l urishi mumkin.

3. O'quv faninig birinchi – metodlar bo'limi bo'yicha zaruriy material S.Usmonov, hamda R.Rasulovlarning, universitetimiz kutubxona fondida yetarli nusxada mavjud bo'lgan, "Umumiy tilshunoslik" o'quv qo'llanmalaridan olinishi mumkin. Bu bo'lim o'quv materiali bo'yicha juda qimmatli va eng keyingi zamonaviy ma'lumotlar RF FA Tilshunoslik instituti olimlari tomonidan 1990-yildan beri uch marta qayta nashr etilgan "Лингвистический энциклопедический словарь.-М." ensiklopedik lug'atining lingvistik tadqiq metodlariga bag'ishlangan maqolalaridan olinishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tilshunoslik tarixi bo'yicha turli yillarda, jumladan, Internet tizimida mavjud har qanday ilmiy va o'quv adabiyoti kursning "Lingvistik tadqiq metodlari", "Qiyosiy metod", "Tarixiy metod", "Qiyosiy-tarixiy metod" bo'limi uchun zaruriy va foydali material va ma'lumot bera oladi. Shuning uchun bu turdagi asarlar kursning birinchi bo'limida mustaqil ta'lim sifatida berilib, mohiyatan "Umumiy tilshunoslik" o'quv fanidan lingvistik metodlar bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishni, qiyosiy metoddan amaliy foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishni ko'zlaydi.

4. E.R.Tenishev rahbarligida tuzilgan umumlashma tadqiqotlardan morfologiya masalalriga bag'ishlangan ikkinchisi hozircha jahonda fin olimlari Gustav Ramstedt va Marti Resenenning hozirgi davr uchun ancha eskirgan va ural-oltoy tillar oilasi nazariy nuqtayi nazaridan yozilgan tadqiqotlaridan keyin turuvchi va sof turkologik yo'nalishda yozilgan yagona umumlashtiruvchi tadqiqotdir. Shuning uchun bu asarni o'rganish o'quv fani uchunchi bo'limining mustaqil ta'lim qismiga ko'chiril. Talabalar bu asarni atroflicha o'rganishlari, amaliy mashg'ulotlarda shu asar materiallari asosida axborot berishlari, referatlar tuzishlari zarur. Kursning uchunchi bo'limi oquv materialini mana shu tadqiqot tashkil etadi. Shuning uchun uni mukammal ishlab chiqish bu o'quv fanini o'zlashtirish, undan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun behad zarur.

5. O'quv fanining amaliy mashg'ulotlar bo'limining mustaqil ta'limi qismiga chiqarilgan masala sof pragmatik tabiatli bo'lib, bu o'quv fanidan olingan bilim va hosil qilgan amaliy ko'nikmalarni ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonida amaliy qo'llashni ko'zlaydi. "O'zbek dialektologiyasi" o'quv fanidan o'zbek xalq shevalarida adabiy til me'yorlaridan farqli bo'lgan fonetik hodisalarni tushuntirish, ularning sabablarini ochib berish, shuning bilan o'zbek xalqining shakllanish va rivojlanish murakkab tarixini ko'rsatishga xizmat qiladi. Zeroki, turkiy tillar qiyosiy-tarixiy fonetikasida – tovushlar almashinishi va mos kelishida biror-bir qonuniyat, hodisa va alamashinini yo'qki, uning in'ikosini o'zbek xalq shevalarida yoki tilimizning u yoki bu hodisasida ko'ra olmasak. **Shuning uchun amaliy ishlar bo'yicha mustaqil ishlarda talabalal asosiy diqqatni turkiy tillal uchun xos bo'lgan tovush, qo'shimcha almashinuvlarinig o'zbek shevalarida topish va ko'rsatishga alohida e'tibot berishlari lozim**

Kurs bo'yicha mustaqil ta'lim materiallari yuzasidan talaba ma'lum bir mavzuda referent yozishi yoki amaliy mashg'ulotlarga ma'ruza-axborot tayyorlashi mumkin. Bu ish universitet talabalar ilmiy jamiyati va anjumanida ma'ruza yoki ilmiy maqola bilan almashtirilishi ham mumkin.

O'quv fani bo'yicha har bnir JB,OB va YB mazmuni, talab va masqdlari, har bir ishni bajarish uchun zarur tavsiyalar shu o'quv fani bo'yicha o'zlashtirishni baholash (reyting) mezonlarda mufassal ochib berilgan.

2-3-MA'RUZA(4 SOAT)

Lingvistik metod. Qiyosiy, tipologik, chog'ishtirma, tarixiy va qiyosiy-tarixiy metodlar

Reja:

1. Metod tushunchasining sharhi.

2. Lingvistik metodlar haqida umumiy ma'lumot.
3. Qiyosiy metod, tarixiy metod, qiyosiy-tarixiy metod (QTM) va tilshunoslik (QTT) tushunchalari.

4. Tovush mos kelishlari va almashunuvlari, analogiya qonunlari tushunchasi.

5. Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganilishi tarixi haqida.

Adabiyotlar: / 17, 257-313; 18 ; 31, 485-486; 32, 7-54/

Tayanch tushunchalar: metod, tadqiq metodlari, lingvistik tadqiq metodlari, manbaning serqirraligi, xulosa-hukmlarning konkretlik tamoyili, qiyosiy metod, tarixiy metod, qiyosiy-tarixiy metod, tadqiqotda zamon omili, tovushlar mos kelishi, tovushlar almashuvini, ularda mustasno (istisno), anlaut, inlaut, auslaut, lingvistik analogiya, Mahmud Koshg'ariy, Vasilii Radlov, Nikolay Baskakov, Fattoh Abdullayev

Ilmiy tadqiq jarayonida **metod** va **metodologiya** tushunchalarini keskin va izchil farqlash lozim. Metod deganda tadqiq manbayining b i r o r qirrasini o'rganishga xoslangan u s u l , y o' l tushuniladi, xolos. Tadqiqotchining maqsadi (fahmiy yoki idrokiy bilim hosil qilishi), tadqiq manbayiga dialektik yoki nominalistik yondashishi, materialistik yoki idealistik dunyoqarashi kabi, asosan, *subyektiv* (tadqiqotchining bevosita o'ziga aloqador) omillar bilan bog'liq bo'lgan m e t o d o l o g i y adan farqli ravishda metodlar obyektiv (haqqoniy, tadqiqotchining o'zi bilangina aloqador bo'lmagan) tabiatlidir va juda ko'p hollarda tadqiqotchining metodologik tamoyillariga nisbatan befarqdir. Fikrni bitta yorqin misol bilan oydinlatamiz:

Faraz qilamizki, ko'z oldimizda turgan (bevosita kuzatishda berilgan) bir xarsang tosh yoki qoyani o'rganmoqchimiz - bizni bu toshning butun tarkibidagi o'rni, tarixiy taraqqiyoti, abadiy yoki muvaqqatligi, atrofidagi narsa-hodisalar bilan aloqadorliklarini emas, balki toshning tabiiy xususiyatlarini bilish qiziqtiradi. Boshqacha qilib aytganda, bizni shu xarsang tosh haqida fahmiy bilimlar qiziqtiradi. Bu xarsang tosh serqirra bir narsadir - unga vazn, ko'lam, shakl, tarkib, holat kabi o'nlab belgi-xususiyat xos bo'lib, ulardan har biri o'ziga xos vosita yordamida aniqlanishi va tavsiflanishi mumkin. Masalan, vaznni o'lchash va belgilash vositalari (tarozu, tortish kuchi, bosim v. h.) yordamida ko'lamni aniqlash va tavsiflash mumkin emas - vazn va ko'lam bir-biriga o'xshash bo'lmagan alohida mezon va usullar bilan o'lchanadi. Mana shu mezon va usullar xarsang toshning turli qirralarini o'rganish **metodlaridir**. Masalan, vaznni belgilashning eng oddiy usuli - tarozu va toshlar, o'lchov birliklari hozirgi kunda jamiyatimizda obyektiv tabiatga ega va hamma, dunyoqarashidan qat'iy nazar, ulardan bemalol foydalanadi. Tadqiq metodlari ham shunday - ulardan bir-biriga zid duhyoqarashlarda turgan, turli maqsadlarni ko'zlagan tadqiqotchilar amaliyotda bir xil foydalanishi mumkin.

Til o'ta serqirra ijtimoiy-ruhiy-fiziologik hodisadir. Uning minglab qirralari, rang-barang ijtimoiy, tabiiy (biologik, fizik, genetik v. b.), ruhiy hodisalar bilan juda murakkab aloqamunosabatlari bor. Tilning o'zi ham behad murakkab butunlik bo'lib, uning lisoniy va nutqiy tomonlari, ularning har birining fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, so'z yasalihi, stilistik qo'llanilish kabi tarkibiy qismlari bor. Tilshunoslikda ikki tushuncha -

a) tilshunoslik bo'limlari (sohalari),

b) tilshunoslik yo'nalishlari (maktablari, oqimlari)ning farqlanishi bevosita shu bilan bogliqdir.

Tilshunoslik bo'limlari (sohalari, qismlari - ruscha - разделы, отрасли языкознания) deganda tilning qurilish (struktur) birliklari va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi, tilshunoslik tarkibiga kiruvchi

a) fonetika (fonologiya),

b) morfologiya (morfemika),

d) leksikologiya (semasiologiya, leksikografiya),

e) frazeologiya (paremiologiya),

f) sintaksis,

g) so'z yasalihi (derivatsiya),

h) stilistika (uslubiyat, uslubshunoslik, lingvopoetika) kabi nisbatan mustaqil fanlar tushuniladi va ular bitta murakkab fanga - tilshunoslik (lingvistika) faniga birlashadi. Tilshunoslik bo'limlari til sathlari - yaruslari bilan uzviy bog'liqdir.

Tilshunoslik yo'nalishlari (oqimlari, maktablari, turlari - ruscha: направления, школы, виды языкознания) deganda insoniy tilning ayrim qirralarini chuqurroq tadqiq qilishga (o'rganish va tavsiflashga) ixtisoslashgan, o'ziga xos tadqiq metodlariga ega bo'lgan tilshunoslik turlari tushuniladi³. Estdan chiqarmaslik lozimki, tilshunoslik yo'nalishlari hamisha ma'lum bir tadqiq m e t o d i bilan bog'liqdir. Tadqiq metodi tilshunoslikning ma'lum bir yo'nalishini birlashtiruvchi eng asosiy omildir. Shu asosda tilshunoslik yo'nalishlari shu yo'nalishda yetakchi bo'lgan metod nomi bilan *tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik v. h.* deb yuritiladi.

Odatda lingvistik tadqiq metodlari tilshunoslikning barcha bo'limlari uchun umumiydir, ya'ni ayni bir usul bilan tilning fonetik qurilishi ham, leksik, morfologik v. b. tomonlari ham tadqiq qilinadi. Chunonchi, tarixiy tilshunoslikda tarixiy fonetika, tarixiy fonologiya, tarixiy morfemika, tarixiy sintaksis, tarixiy stilistika v. b. bo'limlar mavjud. Shu bilan birga tilning ayrim sath birlik (bo'lim, soha) larini o'rganishga ixtisoslashgan tadqiq usullari ham bor. Chunonchi, eksperimental fonetika, semantik sintaksis, lingvistik semantika.

Tilshunoslikda lingvistik tadqiq metodi juda ko'pdir. Tom ma'noda tilshunoslik tarixi - bu tilni tadqiq etish usullarining bosqichma-bosqich almashinib, yangilanib borishi, bir-birini to'ldirib, til mohiyatiga chuqurlasha borish tarixidir; tilshunoslik tarixiga bag'ishlangan har qanday tadqiq va qo'llanma ayni zamonda tilning tadqiq metodlari masalalarini ham o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishda XX asrning 80-yillarigacha qilingan ishlar haqida ma'lumotlarni Siz quyidagi kitob va ma'lumotnomalaridan, bundan keyingi davrlarga oid axborotni Internet tarmog'ining Lingvistika vebsaytining "Tarix" va "Metodlar" bo'limlaridan topishingiz mumkin:

а) Общее языкознание. Библиографический указатель литературы. Отв. ред. Б. А. Серебренников.- М.: Наука. 1965. 276 стр. ;

б) Амирова Т.А., Ольховников Б. А. , Рождественский Ю. В. Очерки по истории лингвистики. - М.: Наука. 1972. 560 стр.;

в) Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Части 1-2. – М.: Просвещение. 1965-1966.

г) Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: СЭ. 1990 (Qayta nashrlari 1995, 1998, 2001).

д) Виноградов В.В. История русских лингвистических учений. – М.: Высшая школа. 1978.

е) Березин Ф.М. Очерки по истории языкознания в России конца XIX начала XX веков. – М.: Наука. 1968.

ж) Кондрашов Н.А. История лингвистических учений.– М.:Просвещение. 1970.

з) История лингвистических учений. Отв. ред. А. И. Десницкая, С.Д. Кацнельсон 1-ая книга. Древний мир. – Л.: Наука. 1980.;2-ая книга. Средневековый Восток. –Л.: Наука. 1981.; 3-тья книга. Средневековая Европа. – Л.: Наука. 1985.

и) Звегинцев В.А. История арабского языкознания. – М.1958.

к) Основные направления структурализма. Отв. ред. О.С. Ахманова. – М.: 1965.

л) Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М.. 1966.

Tadqiq metodlari tilshunoslik yo'nalishini belgilashi va ilmiy maktab ko'p hollarda metod nomi bilan atalishi sababli "Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik", "Naturalistik tilshunoslik" , "Komparativistika", "Geneologik tilshunoslik", "Formal tilshunoslik", "Funksional tilshunoslik", "Areal tilshunoslik", "Struktur tilshunoslik", "Deskriptiv tilshunoslik", "Matematik tilshunoslik", "Kompyuter tilshunosligi", "Psixologik tilshunoslik" (psixolingvistika) v. h. kabi yo'nalishlarga

³ Shuni alohida ta'kidlash kerakki, *tilshunoslik bo'limlari va tilshunoslik yo'nalishlari* tushunchalari rus tilshunosligida ko'p hollarda aralashtiriladi (Qar.: Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М. : СЭ. 1966. С. 217–218; Лингвистический энциклопедический словарь. М. : СЭ. 1990. С. 618–622. Bunday aralashtirish rus fanidan bizga ham o'tgan.

bag'ishlangan ish va fayl-u saytlarda shu yo'nalish uchun yetakchi bo'lgan tadqiq metodlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Bundan tashqari lingvistik tadqiq metodlariga maxsus bag'ishlangan ishlar ham oz emas. Chunonchi, "Общее языкознание. Методы лингвистических исследований.— М.:Наука. 1973. Bunday ishlar o'zbek tilida ham bor. Jumladan, С.Усмонов. Умумий тилшунослик.—Т.: Ўқитувчи.1972; Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. —Т.: Ўқитувчи, 1979; Р.Расулов. Умумий тилшунослик. Т. 2007 darslik va qo'llanmalarida bu masalaga maxsus boblar ajratilgan.

Tilshunoslik tarixi shuni ko'rsatib turibdiki, dialektik bilish tadqiq manbayi mohiyatiga bosqichma-bosqich uzluksiz chuqurlasha borish, soddaroq (oddiyroq) mohiyatdan murakkabrog'iga qarab to'xtovsiz siljish demakdir. Shu asosda tadqiq metodlari ham fan tarixida bir birini almashtirib turadi. Bir metod asosida ochilgan qonuniyatlar boshqa bir metod bilan aniqlangan hukmlarni rad va imkor qilgan hollarda ham bunday inkorni to'g'ri - dialektik tushunmoq lozim - bu qat'iy, mutlaq inkor emas, balki nisbiy, dialektik inkor - inkorning inkori, narsa mohiyatiga chuqurlasha borishning bir bosqichidir, xolos. Bir oddiy hayotiy misol bilan fikrni izohlaymiz: Tilning turli qirralari haqida turli usullar (metodlar) bilan hosil qilingan bilimlar va ochilgan qonuniyatlar bir katta binoning old, orqa, yon, ust tomonlaridan olingan suratlari bilan qiyoslanishi mumkin. Bu fotosuratlar bir biriga mutlaqo o'xshamasa-da, ularning barchasi bitta zotda - bir binoning shaklida birlashadi; bu fotosuratlar bir-birini to'ldirib, bino shakli haqida bilimlarimizni mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Binoning to'rt tomonidan suratini chizgan olimlarning birortasi ham xato yoki noto'g'ri ish qilmagan. Xato binoning bir tomonidan olingan tasvirini (resp. tilning bir qirrasini haqida ma'lum bir metod bilan o'rganiladigan qonuniyatni) binonig o'zi bilan tenglashtirishdadir - kim bunga yo'l qo'ygan bo'lsa, albatta, xato qilgan bo'ladi. Shuning uchun Mir Alisher "Lisonut tayr"da:

“O‘z borur yo‘lida har bir muftaxir,

Yo‘lni aylab o‘z yolg‘a munhasir.

(Har bir yo'lovch o'z yo'lini to'g'ri deb biladi va umuman yo'lni o'z yo'li bilan cheklaydi⁴)", - deb yozadilar. Mir ta'birlaricha, oriflik bilan johillik farqi ham shundadir - orif o'zaro o'xshash bo'lmagan tasvirlar bir binoga mansub ekanligini tushunadi, johil esa zohiriy farq asosida ularning birligini rad etadi. Ko'p fikrlilik, taleranlik (bag'ri kenglik), ustuvor demokratik tamoyillar har qanday qarashga - xususan, ilmiy talqinlarga - oriflik nuqtayi nazaridan yondashishni talab qiladi.⁵ Shu bois istagan fanda tadqiq metodlarining almashinib turishi fanning uzluksiz taraqqiyoti belgisi sanalishi lozim. Ma'lum bir tadqiq usulini mutlaqlashtirish shak-shubhasiz fetishizmga olib keladi.

Lingvistik tadqiq metodlari rang-barang bo'lgani holda fanimizda ularning mukammal **tasnifi** haligacha berilmagan. Lingvistik tadqiq metodlari odatda **sinxronik** va **diaxronik tadqiq usullari** sifatida ikki guruhga ajratiladi.

Sinxronik tadqiq va tahlilda tilning ma'lum bir davrdagi turg'un holati va uning hodisalari tadqiq manbayi sifatida olinadi. Bu davr hozirgi kun ham, bundan bir necha asr muqaddam ham bo'lishi mumkin. Sinxronik tahlilda bir davrda yonma-yon turgan lisoniy hodisalar tavsiflanadi.

Diaxronik tadqiq va tahlilda bir lisoniy hodisa turli taraqqiyot davrlarida olib ko'riladi va unda hodisalar orasida birin-ketinlik (oldin-keyinlik) munosabatlari o'rganiladi. Chunonchi, "Hozirgi (yoki XII asr) o'zbek tilida unli fonemalar" tadqiq mavzusi sinxronik tahlilga aloqador bo'lsa, "O'zbek tilida /a/ fonemasining (yoki unli fonemalarning) taraqqiyoti" mavzusi diaxronik tadqiq va tahlilga mansubdir.

⁴ Chunonchi, Ka'baga dunyoning to'rt nuqtasidan to'rt yo'lovchi to'rt yo'ldan - biri shimoldan, ikkinchisi janubdan, uchinchisi sharqdan, to'rtinchisi g'arbdan boradi. Xilma-xil yo'nalishdagi bu yo'llar bir nuqtaga, maqsadga olib keladi.

⁵ Shuning uchun Prezidentimiz Islom Karimov fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, lekin jaholatga qarshi m a ` r i f a t n i qarshi qo'yish shiorini o'rta tashladilar.

Ilmiy adabiyotlarda har bir davrda - xoh hozirgi kun bo'lsin, xoh bundan ikki yuz yil muqaddam - tahlil usullarini *an'ana* va *yangi* (oldingi, eski, avvalgi) va *yangi* (hozirgi, zamonaviy) sifatida ikkiga ajratib tasnif etishni juda ko'p uchratish mumkin. Bunday bo'linish mohiyatan noto'g'ri, lekin ilmiy adabiyotda keng tarqalgan. Hamma davrlarda *an'ana* va *yangi* deganda o'sha davrda keng ommalashgan, ta'lim muassasalarida ommaviy ravishda o'qitilayotgan tadqiq va tahlil usuli tushunilgan. *Yangi* (hozirgi, zamonaviy) atamasi bilan oldingi tadqiq va tahlil usullarining inkori sifatida shakllangan tadqiq usullari nomlangan XVIII asr uchun mantiqiy-grammatik (Por-Royal) tahlil usullari *an'anaviy*, komparativistik tadqiqotlar yangi bo'lgan bo'lsa, XIX asrda komparativistik tadqiqotlar *an'anaviy*, yosh grammatiklarning tadqiq usuli (neogrammatika) yangi mavqeyini oldi. XX asr boshlarida neogrammatika *an'anaviy* nomi bilan, *strukturalizm*ning turli oqimlari yangi deb ataldi⁶. Shu sababli *an'anaviy - zamonaviy* atamalariga juda ehtiyot bo'lish, ulardan foydalanmaslikka intilish lozim; har bir tadqiq usuli (metodi) o'z nomi (atamasi)ga ega va har bir narsani o'z nomi bilan atagan ma'qul.

Til - juda serqirra, ko'ptomonli hodisa. Uning har bir qirrasini, tomoni alohida bir metod bilan tadqiq etiladi, o'rganiladi. Shunga ko'ra tilshunoslikda tilning taraqqiyot va o'zgarishlarini o'rganadigan *tarixiy lingvistik metodlar (diaxronik lingvistik metodlar)*, uning nisbatan turg'un, barqaror (sinxronik) holatini tasvirlovchi *sinxronik tavsif metodlari*, turli tillar orasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganuvchi *qiyosiy (tipologik) tadqiq metodlari*, tillar orasida qarindoshlik (bir tildan bir necha tillarning keib chiqishi) masalalari va tomonlarini o'rganuvchi *genealogik lingvistik tadqiq metodi*, ikki va undan ortiq tillarning qorishuvi natijasida yangi bir tilning paydo bo'lishini o'rganuvchi *lingvistik chatishuv (interferensiya) metodlari*, til hodisalari va birliklarining xilma-xil tajriba-sinov uskunalari vositasida tadqiq qiluvga moslashtirilgan *eksperimental lingvistik tadqiq metodlar* kabi o'nlab tadqiq usullari va shularga muvofiq ravishda tilshunoslik yo'nalishlari – tarixiy tilshunoslik, tavsifiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, eksperimental tilshunoslik, tipologik tilshunoslik v.h. yonma-yon yashab, bir-birini to'ldirib kelmoqda.

Bizni qiziqtirgan qiyosiy-tarixiy metod, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bir qarashda qiyosiy va tarixiy metodlarning birikishidan hosil bo'lgandek ko'rinadi. Lekin bu o'ta aldamchi, zohiriy va juda ko'p – hatto katta-katta tilshunoslarni chalg'itgan tahsqi o'xshashlikdir. Dastlab *qiyosiy va tarixiy metodlar* mohiyati bilan chuqurroq tanishamiz.

Qiyosiy-chog'ishtirma tavsifiy usul

Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu fanning rivoji qadimgi hindlarda ham, yunon-rimliklarda ham, arablarda ham qonunlashtirilgan (muqaddaslashtirilgan, ilohiy) asarlarni (yunoniyalarda Homer asarlari, hindlarda vedalar, islomiy o'lkalarda Qur'oni karim) to'g'ri - diniy odat talab qiladigan - shaklda o'qish-uqish bilan bog'liqdir. Bu esa me'yoriy imlo va talaffuz bilan, bir tomondan, sheva (jonli so'zlashuv) nutqi farqlarini aniqlash va tavsiflashni, ikkinchi tomondan, o'zga xalqlar va o'z (diniy) tillarini qiyoslashni talab etardi. Chunki bu dinni o'zga xalqlar qabul qilgach, bu xalqlarga o'z ona tillarida din asoslarini ommalashtirish vazifasi turardi. Bu esa, o'z navbatida, bu xalqlar tilini o'z (diniy) tillari bilan qiyoslashni, lug'at va qo'llanmalar tuzishni talab qilardi. Qadimgi hindlarda eramizdan oldingi V–IV, yunonlarda e. o. IV–I, arablarda eramizning VIII–IX asrlarida qiyosiy-tavsifiy usulning rivojlanish sababi shunda. Bu usulning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- Til ilohiy (g'ayritabiiy) hodisa bo'lib, uning yashash va rivojlanishi jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir.

- Me'yoriy talaffuzni akustik-artikulatsion, kombinator, pozitsion o'zgarishlar jihatlaridan mufassal tavsiflash va sharhlash, har bir mustasno holatlarni va variantlilikni qayd etish va tushuntirishga, asoslashga intilish,

- so'zlarning turli-tuman qoshimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so'z va qo'shimchalarni farqlash,

⁶ Hozirgi o'zbek tilshunosligida ham shu holat hukm surmoqda.

- sheva va o‘zaro yaqin bo‘lgan tillar orasida tovush almashinuvi va mos kelishlarini tavsiflash,

- qat’iy belgilangan adabiy til me’yorlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish va o‘rgatish metodikasini shakllantirish,

- rasmiy diniy til, talaffuz, imlo bilan shevalar va boshqa tillar orasidagi farqlarni ilg‘ay olish va chog‘ishtirma - bir tilda ifodalangan ma’no yoki vazifani boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishi mumkinligi aniqlash ustida izlanishlar olib borish,

- bir tilli (izohli) va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari tuzish.

Bu tadqiq va tavsif usulidan foydalanishda arab (islom) tilshunosligi VIII–IX asrlarda juda katta yutuqlarni qo‘lga kiritib, Yevropa tilshunosligi lingvistik tahlilga XIX asrning o‘rtalarida olib kirgan p a r a d i g m a tushunchasini VIII asrdayoq ochdi va arab tilining morfologik tavsifida undan juda keng foydalandi Arab tilining murakkab morfologik tizimi 5–6 ta fe‘lning formalari siralari sifatida tavsiflandi. Arab tili morfologiyasini sodda va ixcham jadvallar sirasi sifatida berish an’anasi o‘sha davrlarda shakllandi va hozirgacha arab tilshunosligida amaldadir. XX asrda shunday paradigmalar asosida struktural tilshunoslikning eng asosiy tushunchalaridan biri - paradigma va paradigmatic munosabatlar rivojlantirildi. Arab tilshunosligida asosan shaklga ko‘p e’tibor berilgan bo‘lsa, structural tadqiqotlarda asosiy diqqat mazmun va vazifaga qaratildi.

Bu tadqiq usulining metodologik asosi fahmiy-nominalistik-materialistik bo‘lib, paradigmalarni ajratish va tavsiflashda idrokiy bilimlardan keng foydalaniladi. Tilning kelib chiqishi masalalarida bu usul diniy-ruhoniylar nuqtayi nazarda turadi.

Arab tilshunosligi yutuqlari va an‘analarida ta’lim olgan Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Abu Hayyon, Ibn Muhanna kabi turkiyshunoslar ham asarlarida shu tahlil usulidan foydalanishgan, shu asosda turkiy tillar tavsiflarini berishgan⁷.

X-XIV asrlarda arab (islom) tilshunosligi doirasida shakllangan va rivojlangan eronshunoslik va mo‘g‘ulshoslikda ham yetakchi tadqiq usuli qiyosiy-chog‘ishtirma metod edi.

XIX-XX asrlarda turkiy xalqlar va ularning tillari rus davlati va tili bilan yaqin munosabatlarga kirishgach, turkiy va rus tillarining qiyosiy-chog‘ishtirma o‘rganish jarayonida bu metod zamonaviy (o‘z davri) tahlil va tavsif talablari bilan mukammallashtirildi va sovet chog‘ishtirma tilshunosligida ma’lum bir taraqqiyot bosqichini belgiladi - 1930-70-yillarda rus tilshunosligida rus va muayyan turkiy tillarni, milliy turkiyzabon tilshunosliklarda (o‘zbek, totor, boshqird, qozoq, ozorbayjon, chuvash v.h. tilshunosliklarida) milliy turkiy tillar va rus tili qurilishini chog‘ishtirma o‘rganish yo‘nalishlari rivojlandi.

Qiyosiy-tarixiy metod.

Tillar oilalari va katta guruhlari orasidagi qarindoshlik, o‘xshashlik, farqlarning kelib chiqish sabablarini o‘rganishga ixtisoslashgan tadqiq usullari majmuasi bo‘lib, tillarning qiyosiy-chog‘ishtirma usul asosida qo‘lga kiritilgan tavsiflardan yangi maqsad va vazifalarda foydalanishni ko‘zlaydi. Tilshunoslikda F. Gegel obyektiv idealizmi, biologiya taraqqiyoti va Charlz Darvin ta’limoti, Yevropada bozor iqtisodiyoti rivoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan naturalizm va psixologizm ta’sirida XIX asrning boshlarida shakllangan. Buyuk namoyandalari Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimmdir. R. Raskning ilk tadqiqotidan (1814-yil) XX asrning boshlarigacha bu metoddan asosiy tahlil usuli sifatida foydalangan tilshunoslik kamida uch taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi va o‘ziga xos yo‘nalishlarni berdi. Bular:

1) ilk komparativistik (F. Bopp, Y. Grimm, Xristofor Vostokov v. b.),

2) naturalistik (August Shleyher, Morits Rapp, Maks Muller v. b.),

3) yosh grammatik -individual psixologik (Hermann Osthof, Karl Brugmann Hermann Payl, Aleksandr Potebnya, Vassiliy Radlov v. b.).

Bu bosqichlarning har biri o‘z oldiga alohida maqsadlarni qo‘yishi, xususiy tadqiq usullariga hamda tayanch falsafiy-metodologik asoslarga ega bo‘lishiga qaramay⁸, ko‘pgina

⁷ Ilmiy adabiyotlarda bu tilshunoslarning tadqiq usulini qiyosiy-tarixiy deb baholash keng tarqalganligini ko‘ramiz. Lekin bunday baholash noto‘g‘ri, zeroki keyingi usul oddiygina qiyoslashni emas, yana qator boshqa masalalarni o‘rtga qo‘yadi.

jihatlardan - m e t o d nuqtayi nazaridan o'xshashdir va fanimizda odatda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning ichki yo'nalishlari sifatida baholanadi.

Bu metodning asosiy tamoyillari:

- tilni tabiiy-ryhiy hodisa deb tushunish,
- tillar orasida oilaviy munosabatlarga o'xshash qarindoshlik aloqalari mavjud bo'lib, tillararo o'xshashlik shu qarindoshlik natijasidir;
- o'zaro qarindosh tillar, asosan, bir umumiy tilning (bobo tilning, Ona tilning /prayazikning/) bo'linishi asosida shakllangan. Shuning uchun tillar Ona til (bobo til) va farzand tillar (bola tillar)ga bo'linadi; bola tillar mustaqil taraqqiyot natijasida va boshqa tillar ta'siriga uchrab, bobo tildan va boshqa bola tillardan uzoqlashadi, mustaqillik kashf etadi;
- o'zaro qarindosh tillar orasida tovush mos kelish qat'iy qonunlari mavjud bolib, bu qonundan har bir mustasno, albatta, sharhlashi lozim;
- tillarning o'zaro qarindoshligi mana shu tovush mos kelish qonunlari va tillararo umumiy qadimiy o'zaklar asosida belgilanadi;
- qarindosh tillar morfologik tipologiya jihatdan o'xshash bo'ladi va tillarning flektiv, agglutinatив, amorf, polisintetik kabi morfologik tiplari ajratiladi;
- til biologik organizm sifatida tushuniladi va biologik organizm qonuniyatlari asosida yashaydi, rivojlanadi deb yondashiladi;
- o'lik va jonli tillar farqlanib, tilshunoslar diqqati, asosan, o'lik tillar tadqiqiga qaratiladi; fanning oliy maqsadi bobo til tazimini tiklash sanaladi. Shuning uchun bu tilshunoslik maxsus rekonstruksiya (hech bir yodgorlikda qayd etilmagan shakl, so'z va qurilmalarni tiklash) qonuniyatlarini ishlab chiqqan va shu asosda bobo til shakllari va so'zlarini tiklagan. Shu bilan bog'liq ravishda bu tilshunoslik so'z va qo'simchalarning kelib chiqishi (etimologiyasi) tadqiqiga juda ko'p e'tibor bergan;
- tadqiq jarayonida tillarning faktik materiallari hamisha qiyoslab o'rganiladi;
- bu usul bilan uzviy bog'liqlikda tilning har bir fonetik, morfologik, leksik birligi tarixi va o'zgarishlari alohida-alohida o'rganiladi.

Odatda **yosh grammatiklar** (Leypsig tilshunoslik maktabi namoyandalari – turkiyshunoslikda Vasiliy Radlov maktabi)ning ta'limoti ham qiyosiy-tarixiy metodga tayanganligi sababli shu tilshunoslik doirasida ko'riladi. Lekin yosh grammatiklarda bu metod tamoyillari ilk komparativist va naturalistlardan tamoman farq qiladi. Jumladan, yosh grammatiklar tilga individual-psixik (shaxsiy-ruhiy) hodisa deb qaraydilar va uning rivojlanishida analogiya (o'xshashlik, ergashish) va tejam, qulaylikni hal quluvchi omil deb sanaydilar. Ular jonli so'zlashuv tiliga ko'proq e'tibor berish, tahlil jarayonida xayoliy rekonstruksiyalarga emas, jonli til hodisalariga tayanish lozimligi, tillararo o'xshashlik faqat qarindoshlik asosidagina emas, o'zaro ta'sir zaminida ham yuzaga kela olishi, tillarning nafaqat bo'linish, balki qo'shilish natijasida ham vujudga kelishi kabi g'oyalarni ilgari surishgan.

Yevropa fanida Yevropada haqiqiy ilmiy tilshoslik shu metodning shakllanish va rivojlanishi bilan bog'liq deb sanaladi. Bu bejiz emas – tilshunoslikning barcha zamonaviy yo'nalishlari shu metodning u yoki bu ko'rinishda o'zgartirish asosida shakllangan va rivojlangan Jumladan, stukturalizm asoschilari deb sanaladigan Ferdinand de Sossur va Ivan Boduen de Kurtene shu yo'nalishning yosh grammatiklar tarmog'dan yetishib chiqqanlar. Filipp Fortunatov nomi bilan bog'liq bo'lgan formal tahlil yo'nalishi ham o'z mansaini shu tilshunoslik namoyandalaridan oladi.

Turkiyshunoslikda V.V.Radlov maktabi nomini olgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bu metodning yosh grammatiklar yo'nalishi tamoyillari bilan ish ko'rgan.

Qiyosiy (qiyosiy-chog'ishtirma), tarixiy va qiyosiy-tarixiy metodlar orasida haqiqatan ham o'zaro o'xshashlik mavjud – ularda ikki va undan ortiq til yoki lingvistik (lisoniy) hodisa bir-biri bilan qiyoslab tadqiq qilinadi. Bunda *qiyosiy* bilan *tarixiy* orasida farq shundan iboratki, tarixiy metodda tadqiq etiladigan, qiyoslanadigan tillar (hodisalar)ning har biri t u r l i tarixiy

⁸ Shu asosda ular juda ko'p hollarda tilshunoslikning alohida maktablari, yo'nalishlari sifatida berildi.Qar.: Лингвистический энциклопедический словарь. – Б. 233, 405, 414-485.

davrlarga mansub va bunday tadqiqotda, albatta, davr, zamon tushunchasi va parametri (o'ltov birligi) mavjud. Qiyosiy metodda o'rganiladigan hodisalar orasida turli davrlarga mansublik belgisi shart emas - bu usul bilan bir davrga mansub tillar (hodisalar) ham, turli davrlarga mansub tillar (hodisalar) ham qiyoslab tadqiq etilishi mumkin⁹. Bundan tashqari qiyosiy metod bilan ham, tarixiy metod bilan ham o'zaro deyarli hech qanday bog'lanishga ega bo'lmagan tillar ham qiyoslanib, qurilish va turli qonuniyatlarning voqelanishi nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin.

Qiyosiy va tarixiy so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan **qiyosiy-tarixiy** qo'shma (yoki juft) so'zi metod so'zi bilan birikkanda tamoman boshqa mohiyat kasb etadi - u G'arbda, odatda, xususan, ilk taraqqiyot bosqichlarida asosan komparativistika deb ataluvchi va **tillararo qarindoshlik - genealogik aloqalarni** tillar oilasi ichida tillarning o'zaro aloqalarini o'rganishni, qarindoshlik doirasida bir guruh tillarning alohida-alohida hodisalarining boshqa guruh tillarida qanday va nima sababdan shunday o'zgarishlarga uchrashini qat'iy qonuniyatlarini, til oilasi ichida konkret tillarning o'zaro yaqin-uzoqligini (qarindoshlik darajasini) aniqlashni, shu tillar oilasi uchun bir zamonlar yagona, yaxlit sifatida mavjud bo'lib bo'linib-parchalanib ketgan eng qadimgi mansha' til - bobotil (prayazik, Ursprache)ni, boboshakllarni (praformalarni) tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bundan ko'rinib turibdiki, QTM va QTT ayni bir yoki turli davr tillari hodisalarini o'zaro qiyoslab, chog'ishtirib o'rgansa-da, ularning maqsadi, ish usullari alohida-alohida olingan qiyosiy metod (tilshunoslik) va tarixiy tilshunoslikdan butkul farq qiladi - QTM genealogik aloqalar, tarixiy perspektiva, o'zgarish va mos kelishlarning qat'iy qonuniyatlari, bobounsurlarni tiklash, uning keyingi davr taraqqoyoti davomida "buzilish"larining sabablari va yo'lanisjlarini qat'iy qonuniyatlar sifatida belgilash bilan ish ko'radi. QTM va QTTning mana shunday mohiyatini chuqur bilmagan zohirbinlar istagan turdagi qiyoslashni QTM deb baholayveradilar. Katta-katta olimlar tomonidan QTM va QTTning asoschisi Frans Bopp (1791-1867), Rasmus Rask-u (1787-1837) Yakob Grimm(1785-1863)lar emas, balki Mahmud Koshg'ariy (XI asr) yoki arab tilshunosligi poydevorini V11-V111 asrlrda barpo qilgan Xalil ibn Ahmad va Sibovayh Basriy sanashlari mana shunday - QTM mohiyatini uqmaslik, uzoqni ko'ra biulmaslik bilan bog'liq

QTMning eng asosiy tushunchalaridan biri **tovushlarning mos kelish** qonunidir. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, ma'lum holat va mavqeda bir tilning (yoki oila ichidagi bir guruhlarining) biror tovushiga (tovushlar birikmasiga) ikkinchi tilda boshqa bir tovush to'g'ri keladi. Chunonchi, o'zbek tilidagi so'z boshidagi sirg'aluvchi /y/ undoshiga qozoq tilida portlovchi affrikat /j/ mos keladi: o'zb. *yo'q* ~ qoz.. *joq*. Bu qonunda **holat** deganda tovushning urg'uli~urg'usiz, so'zning nechanchi bo'g'inida qo'llanilishi anglashilsa, **mavqe** (pozotsiya) deganda tovushning so'zning boshida (anslautda), oxirida (auslautda), o'rtasida (inlautda), ikki unli orasida (intervokalda), qanday unli yoki undosh bilan yonma-yon kelishi tushuniladi va bularning barchasi, shuningdek so'zning (o'zak va qo'shimchalarning) tarixiy-etimologik mansubiyati ham ahamiyatlidir. Jumladan, yuqoridagi o'zbekcha~qozoqcha tovush mos kelish qonuni turkiy so'zlarga taalluqlidir.

Tovush mos kelish qonuni QTTda q o n u n kuchiga, ya'ni mutlaqlik, qat'iylik, doimiylik, hamisha amalda bo'lishlik kuchiga ega. Agar qonun tilning ma'lum bir taraqqiyot davri uchungina xos bo'lsa, qonun ichida u o'z aksini topishi kerak: chunonchi, IX-XIII asrlarda qoraxoniylar davlati adabiy tilida - turkiy xoqoniyda (eski turkiy adabiy tilda) inlaut va auslautdagi interdental /dh/ undoshiga o'g'uz shevalarida til-tish /z/ mos kelgan - *adhaq~azaq* - "oyoq". Tovush mos kelish qonunidan farqlanuvchi har bir mustasno (holat) albatta sharhlanishi va asoslanishi lozim. Chunonchi o'zbek tilida *janub, jabr...* kabi so'zlar arabiy, *juda, jo'ja...* kabi so'zlar eroniy tillardan olingan, shuning uchun ular har ikkala qozoq va o'zbek tillarida ham /j/ bilan qo'llaniladi. Lekin o'zbek tilidagi /jo'nalish/ so'zi bu tilga qozoq (qipchoq tillari) tilining ta'siri sifatida baholanishi lozim.

⁹ Mana shuning uchun 1-ma'ruzada sanab o'tilgan ikki umumlashtiruvchi tadqiqotlardan biri "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy..." (Edham Tenishev guruhi asari), ikkinchisi esa oddiygina qilib "Turkiy tillarning qiyosiy...", deb nomlangan.

Tovushlar mos kelishi bilan bog'liq ravishda QTTda **analogiya qonuni** ham amalda. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki. Tilda mavjud bo'lgan biror qonuniyat yoki hodisa shu qonuniyatga bo'ysunmaydigan hodisalarga ham ko'chiriladi. Chunonchi, o'zbek tilida /q/ va /k/ auslautli turkiy so'zlarga unli bilan boshlanagigan qo'shimchalar qo'shilganda bu undoshlar jarangilashadi *qishloq~ qishlog'im, tilak~tilagim*. Bu qonuniyat arabiy, eroniy, yevropaviy tillardan olingan so'zlar uchun amalda emas. Lekin nutqda *ar.mantiq~mantig'i, tadqiq~tadqiq'i, suluk~sulugi; toj.sak~sagi, rus.srok~srog...* hodisalarini keng uchratamiz. Bu analogiya qonuni ta'siridir.

Tovushlar mos kelishidan **tovushlar almashinishini** farqlash lozim. Tovush almashinuylari deganda ma'lum bir til ichida yoki qardosh tillarni o'zaro qiyoslaganda o'zak va qo'shimchalarda tovushlarning o'zaro almashunuvi tushuniladi. Bunday tovush almashinuylari, asosan, ikki turli bo'lib, ulardan biri fonetik pozitsion va kombinator ozgarishlardir. Bunday o'zgarishlar assimillatsiya (jumladan, singarmonizm), dissimillatsiya, metateza, epinteza, prokopa, eliziya, reduksiya, diyerezis v.b ma'lum qonuniyatlar bilan boshqariladi va izohlanadi. Shuning uchun ular **fonetik o'zgarishlar** deb nomlanadi. Yondosh tovushlarning o'zaro ta'siri bilan shartlanadi. Odatda ma'noga daxldor bo'lmaydi. Masalan, *ketdi* so'zini *ketti* sifatida talaffuz etish va ba'zi hollada yozish ham.

Endi boshqa turdagi almashinishni olib ko'raylik: Chunonchi, tilimizda *yog'och ~ yig'och, o'tqazmoq ~ o'tqizmoq, o'tkazmoq ~ o'tkizmoq, bo'lar ~ bo'lur, kelar ~ kelur* kabi hodisalarni olaylik. Bu juftliklarda keng va tor unllarning o'zaro almashunuvi ma'noga mutlaqo ta'sit etmaydi va hech qanday qonuniyat bilan ham boshqarilmaydi. Tovush almashinuylari deganda mana shunday izohlanmas hodisalar tushuniladi¹⁰. Tovush almashinuylari odatda o'zak va qo'shimchalarning variantlarini tashkil etadi va ma'noviy-vazifaviy ixtisoslashish uchun o'ziga xos bir imkoniyat, bo'shliqdir (vakuum, potensiyadir). Tilimiz bu imkoniyatdan juda samarali foydalanadi.

QTM va QTT asosiy tushunchalari va ish (tadqiq) usullari mana shulardir.

Endi qisqagina bo'lsa-da turkiy tillarning QT o'rganilishi masalasi bilan tanishib o'tamiz.

Turkiy tillar qurilishini qiyosiy-tarixiy o'rganishda bu tillarning qiyosiy, tarixiy va tipologik o'rganilishini farqlash lozim. Turkiy tillarning qiyosiy o'rganilishi uzoq tarixga ega va uning hozircha asoschisi turkiy xalqlar ichidan yetishib chqqan, arab tilshunosligi asoslarini puxta egallagan Manmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg'ariydir va uning bizgacha yetib kelgan "Devonu lug'otit turk" asari sizga maktabdan tanish. Mahmud Koshg'ariy an'anasi boshqa arabzabon turkiyshunoslar tomonida XV asrgacha davom ettirilib kelishdi.

Tom ma'noda o'zbek tilining tarixiy o'rganilishi asoschilari Mir Alisher asarlari sharhlovchilari Toile' Hiraviy (XV asr) va Mirza Mahdixondirlar. XIX-XX asrlarda bu an'ana qiyosiy-tarixiy metodning yosh grammatikachilar yo'nalishi tamoyillari asosida rus olimlari Vasiliy Radlov, Sergey Malov, Aleksandr Samoylovich, Yevgeniy Bertels, Andrey Kononov, Sergey Ivanov, Aleksandr Shcherbak, Galina Blagovalar, g'arb olimlari Karl Menges, Anna Gaben, Omelyan Pritsaklar davon etdilar.

XX asrning 20-yillaridan boshlab o'zbek tilini tarixiy o'rganishda yetakchilik o'zbek milliy olimlari qo'liga o'tdi va buni qator o'zbek zamonaviy fanlari asoschisi Abdurauf Firtat boshlab berdi. G'oziolim Yunusov, Ayyub G'ulomov, Ulug' Tursunov, Solih Mutallibov, G'anijon Abdurahmonov, Tesha Salimov, Fattoh Abdullayev, Ergash Fozilov, Nosir Abdurahmonov, Shamsuddin Shukurov, Naimjon Karimov, Ergash Umarov, Hamidulla Dadaboyev, Akbarjon Matg'oziyev, Bozorboy O'rinboyev kabi o'nlab olimlar davom ettirdilar. Ularning xizmatlari A.Nurmonovning "O'zbek tilshunosligi tarixi" o'quv qo'llanmasida batafsil yoritilgan. Birinchi ma'ruzada aytib o'tganimizdek, Yomg'ir Abdurasulov tomonidan bu yo'nalishda o'zbek tilshunosligida ilk o'quv qo'llanmasi ham yaratilgan.

O'zbek olimlarining qiyosiy-tarixiy tadqiqotlari ko'p emas. Bu silsilada Fattoh

¹⁰ Qator flektiv tillarda mavjud bo'lgan va ma'lum bir grammatik so'z yasash va forma yasashga xizmat qiladigan ichki fleksiyaning – cheredovaniyeni (*rus.vrag ~ vrajda, drug ~ druzya, inglizcha foot ~ feet.*) bular bilan aralashtirmaslik kerak. Zeroiki ichki fleksiya – cheredovaniye – grammatik ma'nolarni ifodalashning bir usulidir.

Abdullayevning turkiy tillarda /ng/ tovushining urchishi. Kelishik qo'shimchlarinig shakllanishi va taraqqiyoti haqidagi katta tadqiqotlarini, I.Ismoilovning turkiy tillarda qavm-qarindoshlik nomlari, Yusuf Eshonqulovning turkiy tillarda meva nomlari taraqqiyoti kabi ishlarini sanab o'tish mumkin.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bilan aloqador ravishda o'zbek tilshunosligida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar miqdori ham anchagina. Bu yo'nalaishdagi tadqiqotlarni ikki guruhga ajratish ma'qul:

- 1) QTTlikka bevosita aloqador bo'lgan O'rta Osiyo turkiy tillarining qiyosiy tadqiqi,
- 2) o'zbek tilining bu mintaqada tarqalgan noturkiy tillar bilan qiyosiy-chog'ishtirma tadqiqi.

O'zbek ~ qozoq, o'zbek ~ qirg'iz, o'zbek ~ turkman lisoniy aloqalariga bunday zullisonaynlik hukmron bo'lgan mintaqa shevalarining tadqiqida, asosan, XX asrning 50-80-yillarida anchagina e'tibor qaratilgan bo'lsa, tilimizning noturkiy arab, fors-tojik, rus, ingliz, nemis, fransuz tillari bilan tipologik umumiyliklari va farqlariga bag'ishlangan tadqiqotlar juda uzoq tarixga ega; fanimizda bunday tadqiqotlarni Mahmud Koshg'ariy boshlab bergan va Mir Alisher mahorat bilan davom ettirgan edi. Mahmud Koshg'ariy "Devon"ining juda ko'p o'rinlarida turkiy tilning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik xususiyatlarini arab tili qurilishi bilan qiyoslab, o'xshashlik va farqli tomonlarini sanab o'tgan bo'lsa, Mir Alisher Navoiy "Muhokamatul lig'atayn" asarini maxsus – turkiy va sort (fors-tojik) tillarining tipologik tadqiqi va turkiy tilning boyligi-yu imkoniyatlarini tarannum qilib, ularni ko'z-ko'z qilishga bag'ishlaydi. Tilshunoslik va poetikaga bag'ishlab XV-XIX asrlarda yaratilgan barcha asarlarda (jumladan, Ahmad Taroziy, To'le' Hiraviy, Mirza Mahdixon, Yoqub Chingi, Kojariy v.b. lug'at va tavsiflarida) bu uch tilni qiyoslash an'anasi davom ettirildi.

XX asr boshlarida O'zbekiston Sharq taraqqiyot tizimidan chiqib, G'arb taraqqiyot yo'nalishiga o'tishi bilan bog'liq ravishda yangi turdagi tipologik izlanishlar o'zbek tilining Yevropa tillari bilan tipologik tadqiqi avj oldi. Mustaqil tadqiq va tahlil manbai bo'la oladigan bu yo'nalsih hozirgi kunda yangi-yangi tarmoqlarni bermoqda va tez rivojlanmoqda.

Mustahkamlash, savol va topshiriqlar:

1. Lingvistik metod nima?
2. Tarixiy metodda nima o'rganiladi?
3. Qiyosiy metodda nima o'rganiladi?
4. Qiyosiy va tarixiy tilshunoslik orasida qanday munosabat mavjud?
5. Qiyosiy-tarixiy metod va tilshunoslik deganda nima tushuniladi?
6. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi qay holatda va qanday umumlashtiruvchi ishlar bor?
7. Toshush mos kelishlari qonuni nimani anglatadi?
8. Tovushlar almashinuvi nima?
9. Analogiya qonuni QTMda nimani ifodalaydi?
10. Tovushning mavqelari (pozotsiyalari) qanaqa bo'ladi?
11. Tovushning holati deganda nima tushuniladi?
12. Nega Mahmud Koshg'ariyni QTM va QTT asoschisi deb ayta olmaymiz?

4-MA`RUZA

Areal lingvistika tadqiq metodi va arealogiyaning tadqiq manbai

Reja:

1. Ареалогия тушунчаси хақида;
2. Лингвистик география;
3. Ареалогия ва диалектология орасидаги боғланишлар;
4. Лингвистик ареал.
5. Lingvistuk arealogiya usuli.
6. Lingvistuk arealogiya manbai.

Adabiyotlar: /18; 33; 35/.

Tayanch tushunchalar: Areal lingvistika, lingvistik geografiya, arealogiya va dialektologiya, arealogiyaning tadqiq usuli va manbai.

Arealogiya (lot. are – maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos – so‘z, tushuncha, ta’lim so‘zi bilan birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z) ma’lum bir hududda ma’lum bir hodisalarning (o‘simlik, hayvonot, yer qatlami, yer osti va yer usti boylillari, aholi hamda ularning tili va boshqalar) tarqalish xususiyatlarini o‘rganishga oid fan bo‘lib, bir necha fanlarda (jumladan, botanika, zoologiya, geologiya, etnografiya, filologiya va boshqalar) arealogik yo‘nalish shaklida mavjuddir. Shuning uchun muayyan fanlarda bu tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal botanika, areal geologiya va boshqalar) o‘z aksini topgan.

Areal lingvistika lisoniy hodisalarning ma’lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o‘rganuvchi yo‘nalishdir. Areal lingvistika tushunchasi va atamasi Matteo Julio Bartole (1873-1946. Italiyalik tilshunos) tomonidan XX asrning 40-yillarida tilshunoslikka kiritilgan bo‘lsa-da, ammo arealogik tadqiqotlar o‘zining uzoq tarixiga egadir. Faqat XX asr boshlarida tillar bilan bog‘liq hududiy masalalarni o‘rganuvchi yo‘nalish areal lingvistika emas, **lingvistik geografiya** yoki **geografik lingvistika** atamasi ostida mashhur edi. Bu masala prof. A.Shermatovning Toshkentda «Fan» nashryoti tomonidan 1981-yilda chop etilgan 40 betlik «Lingvistik geografiya nima» risolasida yoritilgan.

Lingvistik geografiya muammolarining XVIII-XX boshi tilshunoslari, asosan, ikki yo‘nalishda ko‘proq shug‘ullanganlar:

1. Tilshunoslikda keng tarqalgan **shevashunoslik** (dialektologiya);
2. Tillarning tasnifi jarayonidagi **geografik** tushunchalar (tillarning tarqalishi va qo‘llanilish hududlari).

Turkiy tillarning tasniflari ham juda ko‘p hollarda hududiy (arealogik), geografik tarqalish tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, turkiy tillarning ilk tasnifini bergan Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar va shevalar tasnifini berar ekan ularning tarqalish hududlarini «Rumdan Chingacha» (Kichik Osiyodan Xitoygacha) shaklda geografik (hududiy) chegaralarini ko‘rsatadi.

XIX-XX asrlarda turkiy tillarning mukammal tasniflarini bergan akademik V.Radlov, V.Bogrodinskiy, H.A.Baskakov tasniflarida ham hududiy-geografik nomlanishni uchratish mumkin. Chunonchi, V.V.Radlov turkiy tillarning **sharqiy, g‘arbiy, O‘rta Osiyo** va **janubiy** kabi guruhlarini, akademik F.E.Korsh **shimoliy, g‘arbiy, sharqiy, aralash tipli** guruhlarini, akademik M.Samoyilovich **janubiy-g‘arbiy, janubiy-sharqiy, shimoliy-g‘arbiy, shimoliy-sharqiy** kabi guruhlarini, H.A.Baskakov esa **g‘arbiy xun** va **sharqiy xun** tarmoqlarini ajratadi. Ko‘rinib turibdiki, lingvistik tadqiq va tasnif jarayonida geografik (hududiy) tushunchalaridan foydalanish ancha uzoq tarix hamda an‘anaga ega.

Lingvistik geografiyaning ikkinchi tamog‘i bo‘lgan **dialektologiya** (shevashunoslik) mahalliy (hududiy) shevalarni o‘rganishga va tasniflashga xizmat qiladi.

Bunda o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi «Lingvistik geografiya tilshunoslik tadqiqotlarida (uzoq an‘anaga ega bo‘lsa) nima uchun XX asrning o‘rtalarida **areal lingvistika** tarmog‘i rivojlanib, nisbatan tez va keng ommalashdi»? Buning sababi shundaki, areal lingvistika dialektologiyadan ham, lingvistik geografiyadan ham farq qiluvchi lingvistik **arealogik tadqiq metodidan** (ATM) foydalanadi va dialektologiyadan ham, lingvistik geografiyadan ham farqli bo‘lgan maqsadni ko‘zlaydi. ATM haqida navbatdagi ma’ruzamizda to‘xtalamiz. Lingvistik geografiya (yoki geografik lingvistika) va dialektologiya hamda areal lingvistika (yoki lingvistik arealogiya) tilshunoslik fanining ayni bir tarmog‘ining turlicha nomlanishi emas, balki serqirra ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lgan inson tilining turli tomonlarini turli xil usullar (metodlar) bilan o‘rganuvchi tarmoqdir.

Areal lingvistika tadqiq materiali, usullari bilan O‘zbek dialektologiyasi, Hozirgi o‘zbek tili, Turkiy filologiyaga kirish, O‘zbek tili tarixi kabi o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun bu o‘quv fanlaridan «qoniqarli» bilimga ega bo‘lmay turib, **areal lingvistika** fanini

maqsadini anglash, mazmunini uqish va o'zlashtirish hamda undan ilmiy-amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

O'quv fanining reyting tizimi ushbu ma'ruza matniga ilova qilingan «Areal lingvistika bo'yicha reyting topshiriqlari va baholash mezon»larida mufassal bayon etilgan.

O'quv fanining o'zbek tilidagi o'quv va ilmiy adabiyotlari hozircha maxsus darslik yoki o'quv qo'llanmasi sifatida mavjud emas. Lekin areal lingvistika va lingvistik atlas tuzish muammolari bo'yicha G'arbiy Evropa, Rus tilshunosligida ko'p ishlar qilingan. Bu adabiyotlarning bir qismi namunaviy dasturda keltirilgan. Adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan AQSH lingvistik, antropologik va etnografik veb saydlaridan bu yo'nlish uchun katta material olish mumkin.

Turkiyshunoslik bo'yicha diqqatga sazavor va kutubxonalarimizda mavjud bo'lgan tadqiqotlar sirasida N.Gadjievaning «Turkiy areal lingvistika muammolari. O'rta Osiyo mintaqasida (Moskva: «Nauka» 1975-304 b) kitobini keltirish mumkin. Bu kitob ushbu o'quv fani bo'yicha darslik yoki o'quv qo'llanmasi o'rnini bosaoladi. Xususan, ishning «Areal lingvistik tadqiq metodlari» masalalariga bag'ishlangan uchinchi bobi arealogik tadqiqotlari mohiyati va metodlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Areal lingvistikaning asosiy tushunchalari A.B.Jo'raevning «O'zbekzabon mintaqani areal o'rganishning nazariy asoslari (Toshkent, «Fan» 1991- 220-b.) monografiyasidan olish mumkin. Bu monografiyaning «Turkiy tillar areal lingvistikasining ayrim metodologik masalalari; Refleksiya o'zbek tilshunosligida lingvoareal tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanishining asosiy omili sifatida» deb nomlangan I va II boblari lingvoareal tadqiq maqsadi va usullarini sharhlagani bois tanishish hamda o'rganish materiali sifatida ahamiyatlidir. Bu monografiyada **refleksiya** (tajalli) deganda o'zbek shevalarining va yozma yodgorliklarini emperik (fahmiy, tavsifiy) o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda ma'lumotlarni yangi maqsadlarga erishish uchun qayta guruhlash hamda tahlil etib baholash tushuniladi. Shuning uchun A.Jo'raevning tadqiqoti, XX asrning 30-80-yillarida o'zbek shevalarining mahalliy-hududiy tavsifi natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni, ATM nuqtai nazaridan qayta baholash va tahlil etishga qaratilgan. Monografiyaning 186-201-betlarida lingvistik arealogiyaning eng asosiy tushunchalaridan iborat bo'lgan atamalarning turli tadqiqotlarda xilma xil talqini (jumladan, lisoniy areal tushunchasining o'ndan ortiq manbalarda) ilova sifatida berilgan. Ma'ruza matnining 6-ilvasida shu lug'at asosida asosiy arealogik atamalar lug'atini berdik.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek lingvoarealogiyasi bo'yicha G.F.Blagovaning «Turkiy tillarda turlanishning areal-tarixiy tadqiqi» (janubiy-sharqiy mintaqada) (Moskva, «Nauka» 1982, 304 b) tadqiqoti diqqatga sazavordir.

O'zbek tilshunosligida Qosim Mamajonov, Yo'ldosh Ibrohimov, Nigora Murodovlarning doktorlik dissertatsiyalari himoya etganliklarini va monografiya, maqolalar e'lon qilganliklarini e'tiborga olish zarur.

Arelogiyada o'ziga xos tadqiq metodi, ya'ni ish usuli va o'ziga xos tadqiq obyekti borligini ko'pgina olimlar inkor etadilar. Ularning fikrini to'la to'kis asosli deb aytish mumkin emas. Chunki arealogiya tadqiq manbai sifatida adabiy til va shevalarda u yoki bu lisoniy birlikning tadqiqi bilan ish ko'radi. Bu jihatdan uning tadqiq manbai adabiy til va sheva unsurlarining tadqiqi va tavsifi bilan tanishadi. Ikkinchi tomondan arealogik tadqiqotda adabiy til va sheva hodisalari qiyoslanadi. Bu jihatdan arealogiyaning tadqiq manbai qiyosiy tilshunoslik tadqiq manbai va usuli bilan to'qnashadi. Qiyosiy va tavsifiy – sinxronik tilshunoslik tadqiq manbai va usuli bilan areal lingvistikaning tadqiq manbai hamda usulida bunday umumiylikning mavjudligi, arealogiyaning o'z tadqiq manbai va usuli (metodi) borligini ko'rsatadi. (Buni yorqin dalilini to'rtburchak misolida ko'rishimiz mumkin: to'rtburchak, rom, kvadrat, parallelepiped, tropedsiya kabi geometrik shakllar to'rt to'g'ri chiziq va to'rt burchakdan iboratdir. Ammo ular xilma-xil munosabatlar chizmasiga egadir. Shuning uchun ularning har biri alohida bir geometrik shakl (butunlik)lar sistemasidir). Qiyosiy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika lisoniy hodisalarning tadqiq va tavsifiga atomistik usul (lisoniy hodisani sistemadan uzilgan

holda) bilan yondashadi. (Jumladan, «a» ma'lum bir pozitsiyada «o»ga o'tishi; qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchasining shaklan farqlanmasligi yoki o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'llanilishi bir-biriga bog'liq ravishda emas, balki alohida-alohida hodisalar sifatida tadqiq va tavsif etiladi). Shuningdek, qiyosiy tilshunoslikda ko'rganimizdek, alohida-alohida olingan lingvistik hodisalar arealogiyada ham qiyoslanadi. Lekin arealogik tadqiqotda makon tushunchasi ham mavjud. Arealogik makon dialektologik makon tushunchasidan batamom farq qiladi. Dialektologiyada makon tushunchasi tom ma'noda ma'lum bir hudud, mintaqa, geografik hudud bilan mos keladi (masalan: Buxoro shevasi, Toshkent shevasi). Dialektologik tadqiqotda bir makondagi turli xil til birliklarining bir davrda bir butunlikning tarkibiy qismlari sifatida yashashi tadqiq etiladi. Areal lingvistikada bir hodisaning turli hudud va mintaqalarda tarqalishi diqqat markazida turadi. Shuning uchun arealogik makon dialektologik (geografik) makondan tubdan farq qiladi (chunonchi: tushum va qaratqich kelishiklarining shaklan mos kelishi O'zbekistonning qarluq-uyg'ur shevalari uchun xos deb talqin etilsa, bu hodisaning areali sifatida O'rxun-Enasoy, qumuq va yoqut tillari tarqalgan mintaqalar nazarda tutiladi. Chunki bu hodisa mazkur tillarda ancha keng tarqalgan). Shuning uchun areal lingvistikada makon deganda geografik hudud emas, ma'lum bir hodisaning tarqalish hududi (hududlari) tushuniladi. Dialektologiyada hodisa makon orqali (ya'ni, shu mintaqada qanday hodisalar bor) tavsiflansa, areal lingvistikada makon hodisa orqali beriladi (ya'ni, bir hodisaning turli tarqalish makonlari). Boshqacha qilib aytganda, dialektologiyada bir makondagi turli hodisalar (makon – umumiy, hodisalar – xususiy) tadqiq etilsa, arealogiyada bir hodisaning turli makonlari (hodisa – umumiy, hududlar – xususiy) o'rganiladi.

Areal tadqiq usulining qiyosiy, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqi shundaki, qiyosiy tilshunoslikda tipologik o'xshash va noo'xshash hodisalar qiyoslanaveradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda esa faqat o'zaro o'xshash hodisalar turli davrlar asosida qiyoslanadi. Areal lingvistikada esa bir hodisaning ma'lum bir davrdagi o'xshashligi tadqiq etiladi (Shu hodisaning turli davrlardagi o'xshashligi tarixiy arealogiyada o'rganiladi). Areal lingvistikaning tadqiq usuli va manbayida bo'lgan bunday farqlar uning tavsifiy, qiyosiy, tarixiy tilshunosliklar bilan bir qatorda til haqidagi fanning o'ziga xos alohida tarmog'i mavqeyida ekanligini asoslaydi. Shunday qilib, areal lingvistikaning tadqiq manbayi va tadqiq metodini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Areal tadqiqotlarning manbayi sifatida ma'lum bir davrda olingan lisoniy hodisa (qonuniyat)ning qarindosh va yondosh tillar amalda bo'lgan turli hududlarni aniqlash hamda bu hududlarni bir arealga, lisoniy hodisaning tarqalish maydoniga birlashtirishdir. Uning tadqiq usuli sifatida turli mintaqalardagi til shevalarida o'xshash hodisa (qonuniyat)larni aniqlash va ularning qo'llanilish maydonini aniq belgilashdan iboratdir.

Bundan tashqari areal lingvistikaning oldida ma'lum bir hodisa (qonuniyat)ning tug'ilishini, vujudga kelish markazini, uning turli yo'nlashlarga tarqalishini (irradiatsiyasini) va bu hodisaning turli mintaqalardagi o'ziga xosligini (innovatsiyalarini) belgilash vazifasi ham turadi.

Areal lingvistika asosiy tushunchalari va ish usullaridan bir **izoglossa** (gr. Isos - o'xshash, bir xil va gr. glossa - til hodisasi) ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir.

Izoglossalar bilan uzviy bog'liq xaritalash va lisoniy (lingvistik) atlaslar tuzish areal lingvistikani lingvistik geografiya bilan yaqin aloqada ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ba'zan **areal lingvistika** va **lingvistik geografiya** atamaları o'zaro tenglashtirish hamda birining o'rnida ikkinchisini qo'llash holatlari uchraydi.

Geografik xaritada yer sathining o'ziga xos xususiyatlari (quruqlik, suvlik, tekislik va boshqalar), ularning chegaralari va o'zaro o'xshashliklari asosida (jumladan, tog'lar och qizildan to'q qizilgacha, suv och ko'kdan to'q ko'kgacha, tekislik och yashildan to'q yashilgacha va boshqalar) maxsus usullar bilan ajratilib ko'rsatiladi. Ayni shunday holatni lingvistik (areal) xaritada ham uchratish mumkin. Ya'ni bir xil hodisalar bitta yoki bir xil izoglossalar bilan beriladi. Geografik xaritaga qarab, uni o'qiy oladigan kishi, relef (tog', ko'l, daryo, tekislik va

boshqalar)ning Afrika, Osiyo, Yevropa yoki Amerikaning qaysi hududlarida joylashganini tushuna olganidek, areal xaritaning o'qiy oladigan shaxs o'zini qiziqitirgan lisoniy hodisa (qonuniyat) qaysi hududlarda qay darajada tarqalganligini bemalol uqiy oladi.

Areal lingvistikani tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida vujudga keltirgan ijtimoiy zaruriyat ham, areal lingvistikaning nihoya maqsadi ham mana shunday xaritalar tuzish va ularning uqa bilish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Ma'ruzamiz yakunida xulosa qila olamizki, areal lingvistika o'zining tadqiq maqsadi, usuli (metodi) va manbaiga ega bo'lgan tilshunoslikning alohida bir tarmog'idir.

Arealogik tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo'nalish bo'lganligi va shu kungacha o'zbek lingvistik atlasini tuzilmaganligi bu fanning ta'lim tizimida o'rganilishini dolzarb masalalardan biriga aylantirdi.

MUSTAHAKKAM SAVOL VA TOPSHIRIQLARI:

1. Areal lingvistika nimani o'rganadi?
2. Lingvistik geografiya nima?
3. Arealogiya va dialektologiyaning o'zaro munosabatlari nimadan iborat?
4. Arealogiyaning tadqiq metodi va usuli nimadan iborat?

5- MA'RUZA

Turkiy tillarni genealogik tadqiq va tasnifi

Reja:

1. Genealogik munosabatlarni o'rganish QTM va QTTning asosiy tadqiq manbayi sifatida.

2. Turkiy tillar oilasi, uning tipologik xususiyatlari, boshqa til oilalariga munosabati haqida.

3 Turkiy tillar tasniflari masalalari.

4. Qarluq, qipchoq, o'g'uz, qirg'iz, uyg'ur, bulg'or guruhlariga mansub tillar

5. Yakun.

Adabiyotlar: /6;15;17;/

Tayanch tushunchalar:, tillar tasnifi, genealogik tasnif, to'liq nazariyasi, bobotil nazariyasi, tipologik (morfologik) tasnif, tipologik xususiyat, tillar oilasi, tillar oilasi guruh-u guruhchalari

Turkiy tillar oilasi, uning tipologik xususiyatlari, uning boshqa til oilalariga munosabati, turkiy tillar tasnifi masalalari, bu oilaga mansub qarluq, qipchoq, o'g'uz, qirg'iz, uyg'ur, bulg'or guruhlariga qaysi tillar mansubligi masalalari sizga bakalavriat yo'nalishida o'tilgan "Turkiy filologiyaga kirish", "O'zbek tili tarixi", "O'zbek dialektologiyasi", o'quv fanlaridan olingan ma'lumotlardan tanish. Bu yerda bu masalalarga – endi siz qiyosiy metod, tarixiy metod va qiyosiy-tarixiy metod va tilshunosliklar tushunchalari bilan chuqurroq tanishganingidan keyin – ayrim aniqliklar kiritiladi, xolos.

Turkiy tillar morfologik qurilishiga ko'ra suffiksial agglutinatив tillar tipiga mansub bo'lib, ularning orasida genealogik aloqa masalasiga kelganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, turkiy tillarning leksik-fonetik va grammatik qurilishi bir-biriga shu darajada yaqinki, bu tillarning o'zaro qarindoshligi hech qachon va hech kimda shubha tug'dirmagan qadimgi turkiy yodgorliklar ham, X-XIV asr arab tilshunosligi turkiyshunoslari ham (jumladan, Mahmud Koshg'ariy, Zamahshariy, Abu Hayyon, ibn Mahanna v.b.) Yevropdan Xitoy dengizigacha, Rusiyadan Afrikagacha tarqalgan turkiy tillar orasidagi qarindoshlikni shubha ostiga olmaydilar. Turkiy tillar ichida lisoniy xususiyatlari bilan keskin ajralib turuvchi chuvash va yoqut tillarining bu oilaga mansubligi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Otto Bo'tling(1815-1904.rusiya), Vasiliy Radlov(1837-1918), Nikolay Ashmarin (1870-1933)lar tomonidan, Oltoy mintaqasida joylashgan xakas (uranxay), oltoy, sho'r, to'falar tillarining bu oilaga qarindoshligi masalasi Nikolay Katanov(1862-1922) tomonidan uzil-kesil isbotlab berilgan edi. Shuning uchun turkiy tillar orasida genealogik aloqa bugun muhokama va munozara bo'la olmaydi.

Tamoman boshqa masala turkiy tillarning mo'gul hamda tunguz-manjur tillari bilan genealogik aloqalari muammosidir. Bunda olimlar fikri keskin ajraladi. Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganilishi otaxonlari Vasiliy Radlov, Platon Melioranskiy(1868-1906), Sergey Malov(1880-1957), Nikolay Katanov, Nikolay Ashmarin, Edxem Tenishevlar bu masalani ochiq qoldiradilar va bu haqda aniq bir qat'iy fikrni asoslashga harakat qilmaydilar. Lekin G'arb turkiyshunoslaridan Gustav Ramstedt(1873-1950, Finlandiya), Marti Resenen(1893-1976, Finlandiya), Nikolay Poppe(1897-?), rus tilshunoslaridan Yevgeniy Polivanov(1891-1938), Nikolay Baskakov, Dmitriy Nasilov (tug'.1933), Igor Kormushin (tug.1937) kabilar bu tillar orasida genealogik aloqa borligini asoslashga intilib, turkiy va mo'g'liy tillar orasida 300 dan ortiq umumiy o'zak va qo'shimchalarni sanab o'tadilar¹¹. Bu tillarni **oltoy tillari oilasiga** birlashtiradilar. Turkiyshunoslardan Aleksand Shcherbak(tug'.1928), "to'lqin nzarayasi" g'oyalarini ilgari surib, turkiy va mo'g'uliy tillar orasida tipologik o'xshashlikni tan olgan holda bu tillar orasidagi genealogik aloqalarni rad etib, tillararo umumiyliklar o'zaro yaqin aloqalar asosida yuzaga kelgan deb izohlaydi. Haqiqatan ham, zohiran olib qiyoslasak, masalan, genealogik aloqaga ega bo'lmagan o'zbek va tojik tillari orasida shunchalik leksik, fonetik va grammatik umumiyliklar borki, ular turkiy va mo'g'uliy tillar orasida aniqlangan umumiyliklardan ancha ko'p. Lekin bu o'xshashliklar bu ikki til orasida genealogik aloqa mavjud degan hukmga asos bo'la olmaydi. Shunig uchun bu masala hali ham uzil-kesil hal qilingan emas va oltoy tillar oilasi gipoteza sifatida qolaveradi.

Turkiyshunoslardan bir guruhi (jumladan, Ramstedt, Resenen, boshqird olimi Jalil Kiyekbayev(1911-1968) v.b.) oltoy tillar doirasini yana ham kengaytirib, ularni fin-ugor (ugro-fin) – komi, ziryan, eston, karel, fin, vengr (mojor, madyar) tillari bilan birgalikda ural-oltoy tillar oilasiga birlashtiradi. Bu taxmin ham hozircha faraz – gipoteza sifatida qolmoqda.

Yapon, koreys va turkiy tillar bilag'oni, zamonaviy o'zbek shevashunosligi asoschisi Yevgeniy Polivanov koreys va yapon tillarining turkiy tillar bilan qarindoshligi masalasini ham o'rtaga qo'ygan edi. Lekin bu ham hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Yuqoridagi bayondan ko'rinib turibdiki, hozircha turkiy tillarning o'zaro qarindoshligi aniq va qolgan tillar bilan genealogik aloqalari taxmin-u faraz doirasida qolib kelmoqda.

Endi biz yana eslab o'tishimiz zarur bo'lgan masalardan biri **turkiy tillarning tasnifi va unda tilimizning o'rni** masalasidir. Zeroki, istagan turdagi tasnif ma'lum bir belgi-xususiyat asosida tasniflanayotgan narsaning shu belgi-xususiyat asosida o'ziga yaqinlari bilan munosabatlarini, ularning qay biriga yaqin, qay biridan ancha uzoq ekanligini ko'rsatib turadi. Biz bu yerda turkiy tillarning *genealogik*, ya'ni kelib chiqish, o'zaro qarindoshlik, biridan ikkinchisining kelib chiqishi masalasi bilan tanishib chiqamiz.

Eng avvalo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tillararo genealogik aloqalar hozirgi tilhunoslikda ikki xil tushuniladi. Ulardan biri Avgust Shleyxer (1821-1868) tomonida qariyb 250 yil oldin umumlashtirilgan ilk komparativistlar – Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimmlarning bir til oilasidagi hozirgi tillarning farzand tillarning yagona bobotildan tarqalish nazariyasi (shajara daraxti nazariyasi), ikkinchisi yosh grammatiklar maktabi tomonidan (jumladan, Iogan Shmidt /1843-1901/ tomonidan) ilgari surilgan to'lqin nazariyasidir. Har ikkiala nazariya ham oriy (hund-yevropa) tillari oilasi materiallarida ishlab chiqilgan va keyinchalik boshqa tillarning (jumladan, turkiy tillar oilasi) tasniflariga ko'chirilgan.

Bobotil nazariyasi Yevrop fanida Kant-Gegel falsafasi va fanlarda tabiatshunoslikning (naturalizmning) yetakchiligi davrida ishlab chiqilgan. Bu nazariyasiga ko'ra, dastlab tirik yoki biologik organizm kabi yaxzlit, tugal va mukammal bo'lgan bitta – bobotil (prayazik) mavjud bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida bu til daraxt bitta butun va yaxlit tanadan shoxlanib, shoxlar yana bo'linib... ketavergani kabi bo'linib, parchalanib, tarmoq-u, guruh-u, guruhcha-yu guruhchachalarga ajralib ketavergan. Shu taqiqda yogona bobotil bugungi kunda har bir oilada birlashadigan yuzlab va hatto minglab tillarni (qiztillarni, farzand tillarni) bergan.

¹¹ Qar. Проблема общности алтайских языков. Отвтред. О.П.Сунник. Л.: Наука. 1971

Bopp-Shleyxer ta'limotida takomillashgan bu nazariyaning falsafiy metodologik asosini Georg Fridrix Gegelning falsafiy qarashlari tashkil etib, til Ruhi mutlaqning ijodi mahsuli sanalgan va har bir oilada Ruhi mutlaqning xalq ruhi ko'rinishi tomonidan ijod etilgan bitta bobotil va uning ikki bosqichi – dastlab tovush olamida ijod qilib, til taraqqiyotining ma'lum cho'qqisiga yetishishi, undan keyin xalq ruhining tovush olamidan xalq, inson olamiga ko'chishi, yagona tilning taraqqiyotdan qolishi va buzila – parchalana borishi kabi bosqichlarga ajratilishi metodologik tamoyiliga tayanadi. Shleyxer bugun ham tillarning tipologik (morfologik) tasnifida keng qo'llaniladigan amorflik, inkorporatsiya (sinkretizm), agglutinatsiya, feklivlik kabi to'rt taraqqiyot cho'qqisini ajratadi va dunyo tillarining shu asosdagi ilk tipologik tasnifini beradi. Shuning uchun tillarning Bopp-Shleyxer metodologik tamoyillariga asoslanib tuzilgan genealogik tasniflari odatda daraxt shaklida beriladi va, masalan, "Turkiy/Hind-yevropa... tillar shajara daraxti" deb nomlanadi.

Bobotil ham butin oilaga yoki uning alohida bir guruhiga taalluqligiga ko'ra hind-yevropa bobotili (butun olianing bobotili), slavyan bobotil (praslavyanskiy yozik, slavyanskiy prayazik) pragerman bobotil v.h. deb yuritiladi.

Kezi kelganda shuni eslatib o'tih lozimki, yagona bobotil nazariyasinnng falsafiy-metodoloik asosini muqaddas kitoblarda bayon qilingan bosh g'oya – insoniyatning bir otanadan – Hazrat Odam Ato va Momo Havvoda tarqaganlari tashkil etadi.

To'lqin nazariyasi XIX asrning o'rtalarida Yevriopada din mutlaq hukmdorligining zaiflashishi, Gegel falsafasi mavqeining pasayishi, fanlar taraqqiyotida biologik (naturalistik) yo'nalishning emas, balki mexanika va fizikaning yetakchiligi boshlanishi, tilshunoslikda psixologizm oqimining kuchayishi davrida, yosh grammatiklar tomonidan ilgari surildi. Bu nazariya metodologik tamoyillariga ko'ra, tillararo o'xshashlik faqat ular orasidagi qarindoshlikdan va bir bobotildan kelib chiqqnligidan dalolar bermaydi. – bir-biriga juda o'xshsahs bo'lgan tillar, albatta, bir bobotildan kelib chiqqan bo'lishi shart emas. Kelib chiqishi tamoman har xil bo'lgan xalqlar va tillar uzoq davrlar mobaynida o'zaro yaqin aloqa va hamkorlikda bo'lsa, o'zaro qorishuv, ta'sir va analogiya qonuninyatlari asosida bu tillar o'zaro o'xshashlik kashf etishi mumkin. Tillar oilasiga birlashtirilgan barcha tillarni bitta bobotildan keltirib chiqarish shart emas – umumiylik o'zaro ta'sir najijasi ham bo'lishi mumkin. To'lqin nazariyasi namoyandalari (jumladan, Andrey Kononov, Aleksandr Sherbak) turkiy tillarning mo'g'ul va tunguz-manjur tillari bilan qarindoshligini rad etib, ularning oralaridagi o'xshashlikni o'zaro ta'sir bilan sharhlaydilar.

Endi turkiy tillar tasnifi masalasi ustida to'xtalib o'tamiz. Bo'lajak tadqiqotchi juda yaxshi tushunib yetishi va o'zida singdirishi zarur bo'lgan m e t o d o l o g i k tamoyillardan biri tasnif muammosidir. Tasnif – o'rganilayotgan narsa/hodisani ma'lum o'xshashliklar asosida aniq bir guruhlarga birlashtirish va bu guruh ichida har bir hodisaning xususiy farqini ochish berish – ilmiy tadqiq jarayoninig mohiyati va eng asosiy amaliyotidir¹². Istagan narsa/hodisa serqirra, qarama-qarsi tomon va xossa-yu xususiyatlar majmuasi bo'lgani sababli¹³ tillar ham xilma-xil jihatlardan – joylashish o'rni (geografik tasnif), qurilishi va grammatik ma'nolarni ifodalash usullari (tipologik tasnif), boshqa tillar bilan aloqalari (kontaklik tasnifi), jumladan, qarindoshlik – tarixan bir manba, manshadan kelib chiqish (genealogik tasnif) belgilari asosida tasnif etilishi mumkin. Tabiiyki, har bir tasnifda muayyan bir tilning o'rni o'ziga xos bo'ladi va shu tasnif asosida tilning ochilgan xususiyati – tilning definititsiyasi (ta'rifi, til haqida chiqarilgan hukm/xulosa) va aloqadorlari uning boshqa asosda berilgan tasnifidan chiqadigan hukm/xulosadan farqli (hatto zid va qarama-qarshi) bo'lishi mumkin. Ayni bir narsaga beriladigan bunday bir-biriga zid ta'riflar bir-birini rad etmaydi, aksincha, narsaning turli tomonlarini ochib, uning mohitaini to'laroq ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun F.Gegel tasnif haqida gapirib, narsaning ta'riflari qancha ko'p va bir-birini inkor etadigan bo'lsa, biz

¹² Qar. Madrahimov I. So'zning serqirraligi va so'z turkumlarining tasnifi. Filologiya fanlari nomzodi desser. avtoref. Toshkent. TAI. 1994.

¹³ Qar. Ne'matov H., Hamroyeva Sh. Lingvistik tadqiq metodologiyasi, metodikasi va metodlari. O'quv qollanma. Buxoro. BuxDU. 2005

uning mohiyatiga shuncha chuqurlashganmiz deb xulosa qiladi. Chunonchi, turkiy tillarning kontaktdoshlik belgisi (masalan, eroniy tillar bilan aloqalari va rus tili bilan aloqalari asosida) tasnif etadigan bo'lsak, hozirgi turk (Turkiya turkchasi) tili bir tasnifda o'zbek tili bilan bir guruhga mansub bo'lsa, ikkinchi tasnifda o'zbek tili unga kirmaydigan boshqa guruhga mansub bo'lladi. Shuning uchun har bir narsa/hodisaga nisbatan beriladigan ta'rif, chiqarilgan hukm/xulosa (definitsiya) muayyan, aniq bo'lishi, bu ta'rifning uning qaysi qirrasiga tegishli ekanligini, ya'ni qanday tasnif asosida berilayotganligini o'zida aks ettirishi zarur. Aks holda, ta'rif mavhum – haqiqatdan, aloqadorlikdan uzilgan bo'ladi va tadqiqotchini chalg'itadi.

Turkiy tillar ham, "Turkiyshunoslikka kirish" o'quv fanidan sizga ma'lum bo'lganidek, turli jihatlaridan tasnif etilishi mumkin va fanimizda qilingan. Biz genealogik munosabatlar – umumiy bobotilga mansublik masalasi bilan shug'ullanayotganligimiz sababli bu yerda shu asosdagi tasnif haqida gapiramiz, xolos. Turkiy tillar oilasining genealogik aloqalarini yagona bobotil nazariyasiga asoslangan mukammal, hozircha yagona, butun dunyo turkiyshunosligida, bugungi barcha turkiyzabon respublikalarda keng qo'llanilayotgan va o'qitilayotgan genealogik tasnifi o'tgan asrning 60-70-yillarida rus turkiyshunosi Nikolay Baskakov tomonidan ishlab chiqildi va juda keng ommalashgandir.

N.Baskakov turkiy, mo'g'uliy va tungus-manjur tillarini bitta – oltoy tillari oilasiga birlashtirib, ularni turk-mo'g'ul va tunguz-manjur tarkibiga, turk-mo'g'ul tarkibini turkiy tillar va mo'g'uliy tillarga, turkiy tillarni o'z navbatida Sharqiy hun va G'arbiy hun tarmoqlariga ajratadi. Baskakov tasnifiga ko'ra, G'arbiy hun tarmogini quyidagi to'rt asosiy guruhga ajraladi:

- 1) bulg'or guruhi – hozirgi turkiy tillardan bu guruhga chuvash tili mansub;
- 2) o'guz guruhi – hozirgi turkiy tillardan bu guruhga turkman, turk, ozarbayjon(ozariy), gagauz, qirim-totor tillari mansub;
- 3) qarluq guruhi – hozirgi turkiy tillardan bu guruhga o'zbek, hozirgi uyg'ur tillari mansub;
- 4) qipchoq guruhi – hozirgi turkiy tillardan bu guruhga qozoq, qoraqalopoq, totor, boshqird, qarayim, no'g'oy, qorachay, bolqor tillari mansub.

Olim Sharqiy hun tarmog'ini ikki guruhga ajratadi:

- 1) uyg'ur guruhi – hozirgi turkiy tillardan bu guruhga yoqut, xakas, qamasin, sho'r, cho'lim-totor tillari mansub;
- 2) qirg'iz guruhi – hozirgi turkiy tillardan bu guruhga qirg'iz, oltoy tillarir mansub.

Turkiyshunoslikda turkiy bobotil (praturkskiy) odatda umumturkiy til deb aytiladi. Shuning uchun umumturkiy deganda ko'pincha turkiy bobotilga aloqdor hodisalar ataladi. Chunonchi, "umumturkiy /a/ o'zbek tilida qachon /a^o/ga o'tishi qat'iy qonuniyatlar bilan belgilanmaydi" degan qonuniyatni "ko'pgina turkiy tillarga xos bo'lgan..." deb ham, "turkiy bobotilga xos bo'lgan..." deb ham tushunish mumkin.

Shleyxer nazariyasiga uyg'un ravishda turkiyshunoslikda o'g'uz bobotil, qipchoq bobotil ... kabi atamalarni ham uchratish mumkin. Bunday atama bilan turkiy tillar ichki guruhining umumiy xususiyati belgilanadi.

Shunday qilib, biz turkiy tillarning tasnifi va qarindoshligi masalasiga yakun yasab ayta olamizki, turkiy tillarning o'zaro qarindoshligi tugal tan olingan, lekin ularning boshqa tillar va ularning oilalari (guruhlari) bilan aloqalari hali munozarali bo'lib kelmoqda.

Mustahkamlash savol va topshiriqlar:

1. Genealogik munosabat nima?
2. Tillar oilasi nima?
3. Bobotil deganda nima tushuniladi?
4. Farzand (qiz) til deganda nima tushuniladi?
5. Bobotil nazariyasi deganda nima tushuniladi?
6. Bobotil nazariyasining metodologik asosalari qayerda?
7. To'lqin nazriyasining mohiyati nimadan iborat?
8. Turkiy tillarning N.Baskakov tomonidan berilgan tasnifidagi asosiy tarmoq va guruhlarini sanab bering.

9. Hozirgi o'zbek / uyg'ur / turkman / turk / ozarbayjon / qozoq / qoraqalpoq / totor / boshqird / qarayim / qorachay / bolqor / chuvash / qirg'iz / xakas / oltoy / yoqut tili N.Baskakov tasnifiga ko'ra qaysi tarmoq va guruhga mansub?

6-MA'RUZA: Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy fonetikasi va grammatikasiga kirish

Reja:

1. Qiyosiy-tarixiy fonetika (QTF) nimani o'rganadi? Uning qanday nazariy, hamda amaliy ahamiyati bor?
2. Turkiy tillarda lisoniy sathlarning o'zgaruvchanlik darajasi.
3. Turkiy tillarning umumiy fonetik-grammatik xususiyatlari va qonuniyatlari
4. Yakun

Adabaiyotlar:/23; 29;35/

Tayanch tushunchalar: QTF, divergensiya, konvergensiya, singarmonizm, fonologik yuk (ahamiyat), lisoniy sathlarning o'zgaruvchanlikka moyilligi, leksikaning o'zgaruvchanlik sabablari, tilning topganlari va yo'qotganlari, arxifonema (arxip, umumturkiy tovush), kuchli urg'u, kuchsiz urg'u, reduksiya, eliziya, jaranglilashish

Qardosh tillar qiyosiy-tarixiy fonetikasi(QTF)ning asosiy tadqiq manbai bu tillar, ularning ichki guruhlari orasida tovushlarning mos kelishi, almashinishi, har xil fonetik qonuniyatlarning voqelanish xususiyatlarini o'rganish asosida tillar oilasi uchun umumiy bo'lgan bobotil fonetik qurilishini tiklash, uning bo'linishi asosida ajralib chiqqan har bir til guruhi uchun umumiy bo'lgan tovushlar tizimini aniqlash, hozirgi tillardagi unli va undoshlarning qadimgi manbalarini ochish, har bir tilning adabiy shaklida va shevalari orasidagi farqlarni sharhlash orqali bu tilda so'zlovchi xalqning shakllanish tarixini, etnik tarkibini muayyanlashtirishdan iboratdir. Qardosh tillar QTFsini bilmay turib, hech bir filolog o'z ona tili (yoki o'rganayotgan tili) hozirgi fonetik tizimida mavjud bo'lgan va sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushuntira olmaydi. Bundan tashqari o'zbek xalqidek uzoq yozuv madaniyatiga va juda murakkab shevaviy tarkibga ega bo'lgan tillarning tadqiqi yoki ta'lim o'choqlarida ta'limi bilan shug'ullanadigan mutaxassislar QTF materiallari bilan tanish bo'lmasalar, adabiy tilimizda, tarixiy obidalarimizda va shevalarimizda mavjud bo'lgan farqlar, me'yoriy va g'ayrime'yoriy hodisalar sabablarini ta'lim oluvchilarga sharhlab bera olish, yozma yodgorliklarimizni to'g'ri tushunish va tushuntirish, tarixiy shakl va ko'rinishlardan o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lmaydilar. Masalan, nega tilimizda *kelarman* so'z shaklining bo'lishsiz ko'rinishi *kelmasman*, nega *ko'rgizmoq* va *ko'rgazmoq* shakllari bir xil ma'noga ega? QTF bilan tanish bo'lmagan mutaxassis bunday hodisalarni noto'g'ri sharhlaydi. Chunonchi, hozirgi o'zbek tili bo'yicha qator darslik va qo'llanmalarning ot va sifat turkumiga oid so'z yasalishi bobida tarixan bitta – fe'llardan sifatdosh shaklini yasovchi va bugun iste'moldan chiqib, qator otlar va sifatlar tarkibida qotib qolgan ikkitadan o'n olti (hatto 32)tagacha fonetik variantga ega bo'lgan qo'shimcha –g'/g'/q/k'/w/ig'/i'g'/iq/i'k/ug'/uq/u'g/u'k'; g'in/qin/k'in/g'in/g'un/qun/g'un/k'un; g'i/qi/g'i/k'i/g'u/qu/g'u/k'u alohida so'z yasovchi qoshimchalar – bir xil ko'rinishlari ot yasovchi, boshqa biri sifat yasovchi deb talqin etiladi. Vaholanki, bu silsilada atigi uchta qo'shimcha bor, xolos. Bundan tashqari tilimiz tarixini, uning o'ziga xosligini, shevalararo farqlarning sabablarini bilish va ta'lim oluvchilarga tushuntirish uchun ham QTFni bilish zarur.

Til ijtimoiy hodisa, jamiyat a'zolarining fikrni shakllantirish va ifodalash, o'zaro aloqa-aralashuvini – muloqotni ta'minlashning eng asosiy vositasi sifatida jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishi bilan bog'liq ravishda uzluksiz o'zgarish va rivojlanish xususiyatiga ega. Agar til o'zgaruvchan, jamiyat ehtiyojlariga moslanuvchan bo'lmasa, u aloqa-aralashuv vositasi vazifasini bajara olmas edi. Lekin tilning leksika, fonetika, morfologiya, sintaksis kabi to'rt asosiy sathlari (yarusi) o'zgaruvchanlik va taraqqiyotga nisbatan bir xil munosabatda emas va o'ziga xos o'zgaruvchanlik darajalanish qatorini tashkil etadi. Bu qator barqarorlikka, turg'unlikka moyillik belgisi – tez o'zgaruvchanlikdan kam o'zgaruvchanlikka asosida quyidagi tartib-siraga ega:

Leksika → fonetika → morfologiya → sintaksis.

Til sathlaridan eng tez, oson va yengil o'zgaruvchan sath leksika – so'zlar sostavidir. Tilning leksikasida o'zgaruvchanlik shunchalik ko'p va tez sodir bo'ladi deyarli har 10-15 yilda yozilgan asarlar leksik jihatdan bir biridan keskin farq qiladi va asarning leksik xususiyatlari asosida uning qaysi davrda yaratilganligini aniqlash unchalik ham qiyin emas. Oddiygina ko'z o'ngimizda keyingi 20 yil davomida 1988-2010-yillarda tilimiz faol leksik tarkibida o'zgarishlarni eslab o'tishning o'zi til leksikasi naqadar tez o'zgaruvchan ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib beradi. Eng avvalo, shu yigirma yilning o'zinini ikki nisbatan katta davrga ajratish lozim:

1. Milliy istiqloldan oldingi davr;
2. Milliy istiqloldan keyingi davr.

Birinchi davr faol leksikasida *sovet, partiya, kommunist, partkom, raykom, gorkom, obkom, rayon, oblast, sekretar, ministr, ostanovka, kolxoz, sovxoz, revolyutsiya...* kabi so'zlarni har qadamda uchratamiz. Ikkinchi davr uchun mana shu so'zlarning o'zi arxaizmlarga aylanadi, lekin oldingi davr leksikasi uchun arxaizm bo'lgan *hokim, vazir, kotib, inqilob, tuman, viloyat, savdogar, tijorat, shirkat, mulkdor* kabi yuzlab so'zlar yangi jon va yangi ma'no kashf etib, faol so'zlar sirasidan o'rin oladi, *biznes, aksis, tadbirkor, marketing...* kabi o'nlab yangi so'zlar paydo bo'ladi. Tilimizning milliy istiqloldan keyingi davri taraqqiyotini ham leksik xususiyatlarga ko'ra bir necha ichki davrchalarga bo'lish mumkin. Hayotda sodir bo'lgan va bo'layotgan har bir o'zgarish o'sha zahotiyoq tilimiz leksikasida o'z aksini topadi. Chunonchi, jamiyatimizda milliy mafkura masalasi o'rta qo'yilgandan keyin 1990-yilgacha jamiyatimiz uchun yot sanalgan *milliy g'oya, milliy mafkura* kabi birikmalar faollashdi, *milliy isiqol g'oyasi, milliy o'zlik...* kabi yangi birikmalar paydo bo'ldi.

O'zbek xalqi hayotiga elektron hisoblash mashinalari – zamonaviy kompyuterlar va kompyuter texnologiyasi kirib kelishi bilan bu hodisa o'sha zahotiyoq tilimizda o'z aksini topdi va bu bilan bog'liq yuzlab yangi atamalar faol leksika tizimidan o'rin oldi, kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bundan 10 yil oldin *internet, yoki mail, semees, fayl* kabi so'zlarining ma'nosi tor mutaxassislariga oydin bo'lsa, bugun ular birinchi sinf bolalariga ham ma'lum.

Tilning o'zgarishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda hamisha ilgari, yuqorilab, yuksalib – nozarurlarni chetlashtirish, bugun uchun muhim va ahamiyatlilarni olish va faollashtirish yo'nalishida boradi. Hozirgi kunda ba'zan o'tmishparast "millatparvarlar"ning afsus-nadomat bilan bigungi o'zbek bolasi bobosi tilida va o'sha davr adabiyotida faol bo'lgan ulovning (chunonchi, ot va uning anjomlariga, araba qismlariga) yoki turli kasb-korlarga oid yuzlab so'zlarni bilmasligidan, bu boylikni yo'qotayotganligidan achinib, kuyinib, bolalar bobolardan orqada qolayotgani haqida va'zlar o'qiydi. Xalqimizni o'tmishga qarab sudramoqchi bo'lgan "millatparvar" hisobga olmayaptiki, bugungi bola bobosining tasavvurida ham bo'lmagan zamonaviy ulov – avtomobillarning qirg'andan ortiq turning alohida nomlar bilan farqlaydi, bobosining xayoliga ham kelmagan yangi kasb-korlar bo'yicha yuzlab soha amaliyotlarini atovchi zamonaviy ehtiyojli so'zlardan faol foydalanadi – bolaning topganlari bobosidan olmaganlaridan (yo'qotganlaridan) o'n chandon ko'p! Shuning uchun tilning taraqqiyoti ma'lum narsalarni surib chiqarish evazida sodir bo'lsa-da, hamisha yuksalish tomon boradi. Til o'z-o'zidan surilib chiqayot hodisalar nomlarini lug'atlarda, maxsus tadqiqotlarda izchil qayd etib borish, ularning mufassal ko'rgazmali sharhlarini berish, avaylab saqlab avlodlarga yetkazish mutaxassislarning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasi va burchidir; keng ommaning, o'quvchilarning emas.

Leksik sathning o'zgaruvchanligi qiyosiy-tarixiy leksikologida (QTL) ham o'z aksini topadi. Bugungi kunda deyarli har bir turkiy tilning leksik tizimi va boyligi o'ziga xosdir va lug'atlar bilan belgilanadi. Juda ko'p hollarda hatto qadimgi qatlamga oid qavm-qarindoshlik, tana a'zolari nomlari ham har bir turkiy tilda o'ziga xos ma'no mohiyatga ega. Chunonchi, *o'zb. ota* so'zi anglatgan tushuncha turk tilida *tur. baba* so'zi bilan, *o'zb. bobo* ma'nosi *tur. dede* so'zi bilan ifodalanadi. Shunga qaramay turkiy tillar orasida leksik umumiylik ko'p va o'zaro yaqin joylashgan turkiy xalqlar bir-birini kamgina tayyorgarlikdan keyin bimalol tushuna oladi –

o'zbek va turkman, hatto o'zbek-u turk, yoki ozarbayjon o'zaro muloqotda tarjimonsiz fikr almashtira oladi.

Fonetika – tilning tovushlar tizimi – o'zgaruvchanlikka leksikadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu tizim ancha barqaror, turg'un, uning o'zgarishini ko'p hollarda bir avlod-ikki avlod sezolmaydi. Buning yorqin dalili sifatida o'tgan asrning 20-30-yillarida O'zbekistondan hijrat qilgan kimsalarning bugungi farzandlari nutqidir; ularning o'zbek ona shevasidagi nutqida o'sha shevaning bugungi holatiga nisbatan leksik tafovutlar juda ko'p bo'lishiga qaramay, tovushlarning talaffuzida, urg'u, ohang v.b. fonitik hodisalarda umumiylik juda kuchli. Shuning uchun tilning fonetik sathidagi o'zgarishlarni turli – bir-biridan yuz-ikki yuz yil uzoq turgan yodgorliklar fonetik xususiyatlarini qiyoslaganda sezish mumkin. Masalan, Mir Alisher Navoiy davridagi o'zbek tilining fonetik xususiyatlari hozirgi o'zbek tilidan ancha farqlidir.

Morfologik sathda barqarorlik fonetikadan ko'ra kuchliroqdir. Shuning uchun Muqimiy-u Furqatlar davri tili morfologiyasi bilan hozirgi o'zbek tili morfologiyasi orasida jiddiy farq:

a) qoshimchalarning fonetik variantlarida (*-di* → *-dir/dur*; *-im* → *um...*);

b) XIX asr me'yorlariga ko'ra, Mir Alisher asarlarida qo'llanilgan barcha shakl va so'zlarni bemalol qo'llash mumkinligida;

d) hozirgi o'zbek adabiy tiliga ayrim shevalardan hozir ham kam qo'llaniluvchi shakllarning kiritilganligida (*o'zb. kelmajakman*).

Qardosh turkiy tillarni o'zaro qiyoslaganda ham shunday hodisani – morfologik tizim barqarorligini ko'rish mumkin. Chunonchi, *o'zb. turklarning* so'z shakli qirgiz tilida *qir. turkto'rdun* skaliga ega bo'lganligiga qaramay, bu yerda tillararo m o r f o l o g i k farq yo'q – barcha farqlar faqat fonetikdir.

Tilning sintakik qurilish sathi morfologiyadan ham ustuvorroqdir. Shuning uchun qardosh tillarning sintaktik xususiyatlarida ulkan barqarorlik xos bo'ladi. Turkiy tillarning yozma yodgorliklari bilan qayd etildan 16 asrlik tarixida – yondosh va munosabatdosh tillardan olingan va ma'lun bir tilda qisman o'zlashgan qurilmalarni chet ta'siri deb nazardan soqit qilsak – qadimgi davr uchun butunlay yot, bugungi til uchun xos (yoki, aksincha) sintaktik hodisa va qonuniyatni hozirgacha aniqlab bo'lmayapti – “sintaksis taraqqiyoti” mavzusida olib borilgan barcha ishlar:

a) sintaktik funksiyalarning shakliy o'zgarishlari (ya'ni tom ma'noda morfologik o'zgarishlar; (hatto *o'zb. men o'qigan kitob* ~ *tur. ba'ni'm oqudug'um ki'ta'p* ham mohiyatan morfologik farq);

b) umumturkiy imkoniyatli sintaktik qurilmaning o'zga bir til sintaktik hodisalari ta'sirida mavqeining kengayishi (chunonchi, o'zbek tilida tobe tarkibli, ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarning juda ko'p turlari)

kabi sintaksis bilan faqat yondosh, uning bilan aloqador hodisalar tavsifiga bag'ishlangan.

Til sathlari o'zgaruvchanlikka turlicha munosbatda bo'lganligi sababli QTM va QTT, asosan, QTF va faqat qisman qiyosiy-tarixiy morfologiya (QTM) tadqiqi bilan shug'ullanadi; QTMning yuqorida sanab o'tgan barcha qonunlari ham, asosan, fonetik tizimga oiddir.

Endi turkiy tillarning umumtipologik xususiyatlari haqida so'z yuritamiz. Turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borganda odatda quyidagi xususiyatlar sanab o'tiladi:

- turkiy tillar tipologik tasnifga ko'ra suffiksial agglutitativ tillardir;
- turkiy so'zlarda urg'u ikki xil bo'lib, kuchli urg'u, odatda, oxirgi bo'lg'inda, kuchsiz urg'u so'zning birinchi bo'g'inida bo'ladi; buning natijasida, odatda, uch bo'ginli so'zlarda ikkinchi bo'g'indagi unli o'ta qisqarib (reduksiyaga uchraydi), eliziya – tovushning butunlay tushib qolishi sodir bo'ladi;
- turkiy tillarda unlilar qattiq va yumshoqlik jihatidan izchil farqlanadi va juftliklar hosil qiladi;

- turkiy tillarda singarmonizm – qo‘shimchalardagi tovuhlarning o‘zakdagi tovushlarga moslashishi, ularga uyg‘un, mos bo‘lish hodisasi xosdir; shuning uchun tovushlarning ma‘no farqlash vazifasi, asosan, so‘zning o‘zak qismi bilan belgilanadi;

- umumturkiy ilk o‘zak CVC fonetik ko‘rinishiga ega;

- turkiy tillarda tobe bo‘lak hokim bo‘lakdan oldin joylashadi;

- turkiy tillar uchun yarimpredikativ (o‘z xususiy bajaruvchili /foili, subyekti bo‘lgan) kengaygan ravishdosh, sifatdosh va possessiv qurilmali (qaratqich-qaralmishli) harakat nomi birikmalari keng qo‘llaniladi;

- bu tillarda kesim odatda gap oxirida keladi.

“Turkiy filologiyaga kirish”, “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek dialektologiyasi”, “Hozirgi o‘zbek tili” o‘quy fanlaridan tanish bo‘lgan bu umumturkiy tipologik xususiyatlar ichida ikki tamoyilning turkiy bobotilga tabiatan xosligi bugungi kunda munozaralidir. Bular :

- turkiy tillarda unlilar qattiq va yumshoqlik jihatidan izchil farqlanadi va juftliklar hosil qiladi;

- turkiy tillarda unlilar garmoniyasi – qo‘shimchalardagi unlilarning o‘zakdagi tovushlarga moslashishi, ularga uyg‘un, mos bo‘lish hodisasi xosdir; shuning uchun unlilarning ma‘no farqlash vazifasi, asosan so‘zning o‘zak qismi bilan belgilanadi.

Har ikkala xususiyat ham hozirgi turkiy tillarga xosdir (hatto o‘zbek adabiy tilida ham bular qonuniy sifatida mavjud bo‘lmasa-da tarixiga va shevalariga xosdir). Lekin bu xususiyatlar turkiy bobotil uchun ham xosmi, ya‘ni turkiy tillar uchun azaliymi? degan savolga genealogik aloqalarda bobotil nazariyasi tarafdorlari ikkilanmay: “Xuddi shunday!” – deb o‘ta qat‘iy javob bersalar, ayrim tilshunoslar, xususan qadimgi turkiy tillar bilan chuqur shug‘ullangan olimlar bunda ehtiyotkorlik lozim degan fikrni ilgari suradilar. Bu masala ilmiy adabiyotlar juda oz va parokanda muhokama etilgan, o‘quv adabiyotlarida esa mutlaqo yoritilmagan¹⁴.

Dastlab, unlilarda qattqlik~yumshoqlik bilan izchil farqlanish masalasi. Turkiy tillarda hozirgi kunda o‘zbek tilidan boshqa barchalari uchun bu deyarli qat‘iy qonuniyat. Lekin turkiy tillarning tarixiga chuqurlasha borsak, xususan V-VII va undan oldingi davrlarda turkiy o‘zaklarda unli va undoshlarning ma‘no farqlash vazifasini (fonologik ahamiyati/qiymatini, fonologik yukini) qiyosan o‘rganganda, bunlay boshqa holni ko‘rishimiz mumkin: turkiy o‘zaklardagi unlilar o‘zgaruvchan va, asosan, undoshlarga moslashib keladigan, nisbatan barqaror undoshlardan iborat o‘zak va qo‘shimchalarni bir biriga biriktirishga xizmat qiladigan fonetik vosita mavqeda bo‘lganligidan darak beradi. Buning dalillari sifatida, jumladan, quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, qadimgi turkiy runiy yozuvda undoshlar uchun 70 ga yaqin belgilar-harflar mavjud bo‘lgan holda, unlilar uchun yozuv belgilari juda oz – shunda ham odatda qattiq va yumshoq va hatto ba‘zan keng va tor tovushlarning harfiy shakli farqlanmaydi; unlining qattiq yoki yumshoqligi alohida-alohida grafik shakllarga ega bo‘lgan va yozuvda aniq aks ettiriladigan undoshning qattiq/yumshoqligi bilan belgilangan. Yumshoq undoshlar hamrohligida unlilar yumshoq talaffuz etilgan, qattiq undoshlar qurshovida – qattiq – unlining tabiati, talaffuzi undoshga moslashgan¹⁵;

Ikkinchidan, runiy yozuvda anlaut va inlautda unlilar grafik ifodalanmaydi;

Uchinchidan, turkiy tillarni – xoh qadimiylari, xoh hozirgilarini o‘zaro qiyoslasak, o‘zak tarkibidagi unlilarning behad o‘zgaruvchanligining, juda ko‘p holatlarda bunday almashinishlarning qandaydir qat‘iy qonuniyat bilan boshqarilmasligining guvohi bo‘lamiz;

To‘rtinchidan, turkiy tillarda faqat bitta unlidan iborat o‘zak-so‘z yoq¹⁶, lekin bitta umumiy undosh va to‘rt xil unli bilan farqlanadigan so‘zlar miqdori anchaginadir; chunonchi,

¹⁴ H. Ne‘matovning “O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi” o‘quv qollanmasida ham bu masala faqat qisman ko‘tarilgan.

¹⁵ Bu xususiyat hozirgi turkiy tillardan faqat o‘zbek tilida qat‘iy qonuniyat sifatida saqlangan.

¹⁶ Hozircha ma‘lum bo‘lgan o‘ – ‘bilmoq’, u – “qila olmoq”, u, a ko‘rsatishsh olmoshlarining ikkilamchi ekanligi beshubhadir

i't/u't/o't/a't – "i't – kuchuk", "o'n/u'n/a'n – 'o'n /sanoq son/". Shunday bir xil ma'noli va bir xil undoshli, lekin to'rt xil unlili so'zlarni juda ko'p undoshlar istirokida ko'rish mumkin.

Bundan faraz qilish mumkinki, bir qator boshqa Sharq tillarida bo'lganidek (chunonchi, semit tillarida) turkiy tillarda ma'no farqlash vazifasi undoshlarda mujassamlashgan. Asosiy ma'no tashish vazifasini o'zida mujassamlashtirgan va undoshlardan iborat bo'lgan morfemalarni so'z tarkibida birlashtirish, ularni bir-biriga payvand qilishga xizmat qiladigan unlilar barqaror va doimiy bo'lmagan – qadimiy tillarda turli etno-mintaqaviy guruhlarda bunday payvandlash vositalari har xil – birida keng va lablangan, boshqasida keng va lablanmagan, uchinchisida tor va lablangan, to'rtinchisida tor va lablanmagan bo'lgan bo'lishi mumkin. Qadimgi runiy yozuvda unlilarning grafik ifodalanmasligining sababi ham shunda yashirinishi mumkin *oq* – "*o'q (strela)*" ma'nosini o'zida mujassamlashtirgan va turli etno-mintaqaviy guruhlarda *oq/uq/aq/iq* fonetik shakllarda talaffuz etilishi mumkin bo'lgan so'zni barcha turkiy etno-mintaqaviy guruhlar uchun tushunarli shakla yozishning yagona to'g'ri usuli unlini ifodalamay, faqat undoshning o'zini yozishdir va qadimgi ajdodlarimiz bundan samarali foydalanishgan.

Qadimgi filologlardan faqat Mahmud Koshg'ariygina "Devoni"ning bir joyida "bordim" ma'nosidagi "bardim/bardum/bardam" shakllaridan har biri turkiylarning har xil toifalari nutqiga xos ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Turli etno-mintaqaviy guruhlarining o'zaro qorishuvi natijasida turkiy tillarda hozir kuzatildigan holat – ayni bir o'zakning/qoshimchaning turli xil unlilar bilan kelishi, shuningdek fonetik variantlarning yangi ma'no kashf etish holatlari sodir bo'lgan – turkiy bobotil – agar u nisbatan yaxlit bir til sifatida mavjud bo'lgan bo'lsa – morfemalari undoshlardan va payvandchi unlilardan iborat bo'lgan til bo'lgan bo'lishi ehtimoldan mutlaqo xoli emas. Shuning uchun unlilarda qattiq va yumshoqlik bilan izchil farqlanish turkiy bobotil xususiyati emas, balki turkiy tillarning bobotildan ajralib chiqqanlaridan keyingi taraqqiyoti natijasi, ya'ni ikkilamchi hodisa bo'lishi, ehtimoldan xoli emas.

Ikkinchi hodisa – unlilar uyg'unligi ham oldingi masala bilan uzviy bog'langan – turkiy bobotilda singarmonizm – tovushlarning ug'unlashishi mavjud bo'lgan, lekin bu faqat undoshlar – aniqrog'i qattiq va yumshoq undoshlar orasida bo'lgan. Shuning uchun affiksalar morfemalar ikki variantli – qattiq va yumshoq variantli bo'lishgan va qaysi variantning o'zakka qo'shilishi o'zakdagi undoshning qattiq/yumshoqligiga bog'liq bo'lgan, O'zak va qoshimchalarda payvandchi unlilarning muayyan shakl va ko'rinishi esa etno-mintaqaviy guruhda qaysi turdagi unlining yetakchiligi bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin.

Bu farazlar turkiyshunoslikda o'ta munozarali bo'lgan "umumturkiy ilk o'zak CVC fonetik ko'rinishiga ega" degan tamoyilni ham shubha ostiga oladi. Zeroki turkiyshunoslikda allaqachonlar isbotlanganki, hozir CVC qurilishli juda ko'p o'zaklarda oxirgi undosh tarixan qo'shimcha bo'lib, o'zakka soddalashgan. Ilmiy adabiyotlarda CVC qurilishli uch yuzdan ko'proq hozirgi o'zaklarning tarixan hosilaviyligi V.Radlov, S.Malov, G.Ramstedt, M.Resenen, Willi Bang (1869-1934), Anne Mari Gaben (1901-1990/?/), Ervand Sevortyan (1901-1978), Andrey Kononov, Bolot Yunusaliyev(1913-1970), Sh.Rahmatullayev (tug'.1926 -) v. b.¹⁷ tomonidan ko'rsatilgan.

Yuqorida mohiyati qisqacha bayon qilingan ilmiy farazlar turkiy tillarning QTF va QTMni o'rganish va talqin qilishda hal qiluvchi ahamiyatga molikdir, chunki ular bosh manbaning mohiyati nimada va qandayligini belgilaydi; taraqqiyot, o'zgarish uchun ilk manbaning qandayligi esa butun tadqiqotning nimaga tayanishi va nimaga olib kelishini belgilaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, E.Tenishev tahriri ostida tuzilgan qiyosiy-tarixiy grammatika bo'yicha oxirgi umumlashma ham, Y.Abdurasulov tomonidan tuzilgan qo'llanma ham, Nikolay Dmitriyev, Nikolay Baskakov, Iristoy Qo'chqortoyev ishlari ham bobotil

¹⁷ Jumladan, qarang: Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. T.;Universitet.2000; Нигматов Х.Г. О глагольных корнях типа СГС и СГ по материалам Словаря Махмуда Кашгарского СТ.1970.№3. С.38-44

nazariyasi asosida – turkiy bobotilni 8-16 unlili va singarminizmli deb faraz qilish asosida yozilgan. To‘lqin nazariyasi elementlarini Andrey Kononov, Aleksandr Shcherbak ishlarida ko‘rish mumkin. Shuning uchun biz navbatdagi ma’ruzalarda fonetik hodisalarning qiyosiy-tarixiy tahlilini berar ekanmiz, har doim ikki yo‘lni ham – bobotilning 8-16 unlili va singarminizmli farazi asosida tahlilni ham, undoshli va payvandchi unlili farzi asosida tahlilini ham ilova etamiz va fandagi ko‘p fikrlilikni amalda ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. QTF nimani o‘rganadi va o‘rgatadi?
2. QTFni bilishning qanday nazariy ahamiyati bor?
3. QTFni bilishning qanday amaliy ahamiyati bor?
4. Til sathlarining o‘zgaruvchanlikka munosabati bir xilmi?
5. Leksik sathning o‘zgaruvchligini ko‘rsatadigan misollar keltiring.
8. Fonetik sathda o‘zgaruvchanlik qanday?
9. Nega QTTda, asosan, QTFga ko‘p e’tabor qaratiladi?
10. Zohiran morfologik, mohiyatan fonetik bo‘lgan o‘zgarish va farqqa misol keltiring.
11. Turkiy tillarning asosiy fonetik va morfologik tipologik xususiyatlarini sanang.
12. Bu xususiyatlarning barchasi mutlaq haqiqatmi?

7-8-MA’RUZA: Turkiy tillarda undoshlar va ularning taraqqiyoti.

Reja:

1. Turkiy undoshlar tavsifi.
2. Undoshlarda qattqlik/yumshoqlik zidlanishining sustlasib borishi va uning bosqichlar.
3. Undoshlarning mavqe xususiyatlari
4. Turkiy tillarga xos bo‘lmagan undoshlarning o‘zlashishi.
5. Yakun.

Adabiyotlar: /19;23;29/

Tayanch tushunchalar: undoshlar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra arab (Xalil ibn Ahmad) chizig‘i, palatal va velar (yumshoq va qattiq) undosh, undoshlarning palatal-velar juftlari, turkiy undoshlar taraqqiyoti yo‘nalishi, undoshlar divergensiyasi, undoshlar konvergentsiyasi, undoshning o‘ng‘ay mavqeyi, o‘zlashgan undoshlar.

Fonetik tahlil va tavsifga bag‘ishlangan har qanday ish odatda unlilar tavsifidan boshlanadi. Bu Yevropa tilshunosligi an‘anasi va, ehtimol, oriy tillarda ma’no tashish yukining ko‘pincha unlilar zimmasiga tushishi bilan bog‘liqdir. Lekin Sharq, jumladan, arab tilshunosligida (somiy tillarda ma’no tashish yuki ko‘pincha undoshlar zimmasiga tushishi, kam miqdordagi unlilar bu asosiy, o‘zak ma’noni har xil ko‘rinishlarda berishga xizmat qilishi bois) fonetik tizim tavsifi, odatda, undoshlardan boshlanadi. Zotan, artikulatsiya (hosil bo‘lish va talaffuz etish) jihatidan ham undoshlar unlilardan ko‘ra ancha murakkab. Shuning uchun Sharq tilshunosligi fonetik tizim tavsifini undoshlardan boshlaydi. Bundan tashqari, biz oldingi ma’ruzada turkiy tillarda ham qadimgi davrlarda so‘zdagi unlining tabiatini o‘zak tarkibidagi undoshlar belgilashi haqida qisqacha gapirib o‘tdik va navbatdagi ma’ruzalarda bu hodisa tavsifi yana chuqurlashtiriladi. Shuning uchun turkiy tillar QTF tahlilini ham undoshlar tavsifidan boshlaymiz.

Undoshlar tavsifini berishda Sharq (arab) tilshunosligida ularni hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra bo‘g‘izdan lab tomon yo‘naltirilgan chiziqqa joylashtirish odat tusiga kirgan. Arab tilshunosligi asoschisi Ahmad ibn Xalilning (VIII asrda yashab o‘tgan) “Kitobul’ayn” asarida so‘zlarni lug‘atda joylashtirishda (resp. alifboda) tovushlar va ularni ifodalovchi harflar shunday tartib bilan berilganligi sababli tilshunoslikda bunday sira Ibn Xalil tartibi (chizig‘i) deb ham ataladi¹⁸. Turkiyshunoslikda turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy fonetikasi tadqiqining asoschisi, turkiy

¹⁸ O‘zbek tili undoshlarining bunday chiziqqa joylashtirish haqida qar.: Неъматов Х. Кайта қуриш стратегияси ва ўзбек тилшунослигининг навбатдаги вазибалари. Тил ва нутқ дихотомияси Ўзбек тилини синхрон ўрганиш масалалари.Т.:ТДПИ. 1987.Б.3-10.

tillarning birinchi qiyosiy-tarixiy grammatikasi bunyodkori V.V.Radlov¹⁹ 70 dan ortiq belgi (harf)larni o'z ichiga olgan va turkiy tillar fonetik tavsifini berishda va o'zining mashhur qiyosiy lug'atida so'zlarni joylashtirishda²⁰ ham shu tartibdan foydalangan edi²¹.

Turkiyshunoslikda, jumladan E.Tenishev tahriri ostida nashr etilgan umumlashtiruvchi tadqiqotda, turkiy bobotilning keyingi taraqqiyot davri holatida bo'lganligi taxmin etilayotgan 17 asl undoshni bunday chiziqqa joylashtirsak, quyidagi holatni ko'ramiz:

Tilorqa undoshlar	/gh/,/q/
Tilorqa-burun undoshi	/ng/
Tilo'rta undosh	/y/
Ikki artikulatsiyali	/sh/
Tiloldi-burun undoshi	/n/
Tiloldi affrikata	/ch/, /j/
Tiloldi-yon	/l/
Tiloldi titroq	/r/
Tiloldi	/t/, /d/, /s/, /z/
Lab-burun undoshi	m/
Lab undoshlari	/b/, /p/

Bu 17 undoshdan /m/ tovushi ham, turkiyshunoslarning fikriga ko'ra, asl bo'lmay, anlautdagi /b/ning auslautdagi burun undoshi /n/ ning regressiv distant assimillatsiyasi natijasida rivojlangan²². Shuningdek, anlautdagi /t/, /p/, /s/, /ch/ ning jaranglilashuvi natijasida /d/, /b/, /z/, /j/ fonemalari shakllangan. Turkiyshunoslar turkiy bobotilning qadimgi davr holatida unda sonorlardan boshqa jarangli undoshlar bo'lmagan deb yakdilona fikr bildirishadi.

Turkiy tillarda undoshlarning tarixiy taraqqiyotida ikki asosiy yo'nalishni belgilash mumkin. Ularning biri divergensiya – jarangsiz (aniqrog'i jarangli/jaranglikka infifferent) undoshlarning jaranglilashuvi va jarangli ~ jarangsizlik bilan fonologik farqlanuvchi mustaqil fonemalarning shakllanishidir. Bu jarayon juda qadimgi davrlarda boshlangan va biz qadimgi turkiy tilda uning ancha rivojlangan holatini ko'ramiz – qadimgi turkiy tilda mutaxassislar *b, d, g, gh, z, zh* kabi jarangli undoshlar mavjudligini qayd etishadi. Eng qadim davrlarda jarangli/jarangsizlik umuman fonologik ahamiyatga ega emasligi, qadimgi turkiy tilda jarangli~jarangsizlik bilan farqlanuvchi bir necha juftliklar shakllanganligi va hozirgi turkiy tillarda jarangli~jarangsizlik zidlanishi muhim fonologik ahamilaytli (relevant) oppozitiv belgilardan biri ekanligini hisobga olsak, biz jarangli/jarangsizlikka nisbatan indifferent undoshlarning fonologik ahamiyatli jarangli~jarangsiz fonemalarga divergensiya uzoq vaqtlardan beri davom etib kelayotgan hodisa ekanligiga amin bo'lamiz, zerokey keyingi taraqqiyot natijasida bunday belgi bilan farqlanuvchi yana qator jutliklar rivojlandi (chunonchi, /sh/ va /jh/, /ch/ va /j/, /f/ va /v/, qator turkiy tillarda /th/ va /dh/...)

Jarangli~jarangsizlik zidlanishining fonologik ahamilayat kashf eta borishi turkiy tillarda hali to'la yakunlanmagan va davom etayotgan taraqqiyot jarayonidir, chunki hali qator turkiy tillarda jarangli juftlariga ega bo'lmagan fonemalar, yoki jarangli~jarangsizlik zidlanishi fonologik ahamilayat kashf etmagan (chunonchi, turkman tilida /th/ va /dh/) holarlar oz emas.

Hozirgi tillarda amalda bo'lib, QTM uning qadimgi, ko'z ilgamas tarixiy davrlarda ham amalda bo'la olishini taxmin etadigan va turkiy tillarda undoshlar tizimining taraqqiyotini belgilashda yetakchi bo'lgan taqayqiyot yo'nalishlaridan yana biri undoshlar tiizmida ko'rib o'lgan divergensiyaning aksi bo'lgan *k o n v e r g e n s i y a* – ikki va undan ortiq fonemaning bitta fonemaga birlashishi – hodisasidir. Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotida konvergensiya qattiqlik ~ yumshoqlik bilan fonologik jihatdan farqlanuvchi undoshlar uchradi. Bu masala ustida to'xtalib o'tamiz.

¹⁹ Radloff W.W. Vergleichende Grammatik der no'rdlichen Tu'tksprachen. Phonetic. Leipzig.1882.

²⁰ Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Тт.1-IV. Санкт-Петербург 1893-1911.

²¹ Shuning uchun Radlov alfaviti (lig'ati ham) unlilar bilan boshlanadi, chunki unlilar arab tilidagi chuqur bo'g'iz porlovchisi 'ayn dan ko'ra chururoq joyda bo'g'iz ostida – halqumda hosil bo'ladi.

²² Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв. Б. 64.

Turkiyshunoslar turkiy bobotilda mavjud bo'lishini taxmin etgan va yuqorida sanab o'tilgan 17 undoshdan 10 tasi – *b, d, g, k, l, n, r, s, t, y, k* qadimgi turkiy yozuvda har biri qattiq va yumshoq shakllari uchun alohida-alohida belgilarga – harflarga ega, ya'ni /b/ va /b'/, /d/ va /d'/, /gh/ va /g/, /l/ va /l'/, /n/ va /n'/, /r/ va /r'/, /s/ va /s'/, /t/ va /t'/, /y/ va /y'/, /q/ va /k/ tovushlari yozuvda i z ch i l farqlanadi. Qolgan 7 undoshda (*p, ng, s', j, ch, z, m*) qattqlik~yumshoqlik yozuvda alohida-alohida harflar bilan farqlanmaydi. Lekin turkiyshunoslarning fikriga ko'ra, /m/, /z/, /sh/, /j/ va hatto /ng/ fonemalarining keyingi davr taraqqiyoti uchun xosligini²³ va o'zaro yaqin bo'lgan /s/ va /z/, /b/ va /p/, /n/ va /m/ juftliklaridan birida qattqlik-yumshoqlik bilan farqlanuvchi juftlikning mavjudligi-yu ikkinchisida yo'qligini qiyoslasak, xulosa chiqarishimiz mumkinki, asosan, keyinchalik rivojlangan undoshlarda bu belgi bilan farqlanishni grafik ifodalash susaygan, yani keyingi davrda shakllangan undoshlarda qattqlik-yumshoqlik bilan farqlanish yo'qola borgan. Hozirgi turkiy tillarda esa – o'zbek tilidagina fonologik jihatdan farqlanuvchi /gh/ va /g/, /q/ va /k/ undoshlarini hisobga olmasak – bu fonologik farq batamom yo'qolgan. Shuning uchun faraz etish mumkinki, biz turkiy tillar tarixiga qancha chuqurlasha borsak, qattqlik-yumshoqlik bilan farqlanish tamoylining kuchayishini (va, aksincha, bobotil holatidan keyingi davrlarga yaqinlasha borgan sayin bu tamoyil ta'sirining zaiflasha borishini) ko'rishimiz mumkin. Bu esa turkiy bobotilda qattqlik-yumshoqlik bilan farqlanish qat'iy fonologik hodisa bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan u o'z o'rnini turkiy tillarda undoshlar tizimida jarangsizlik-jaranglilik tamoyilining fonologik mavqe kashf eta boshlashiga bo'shatib bergan degan xulosaga olib keladi²⁴.

Hozirgi turkiy tillarning undoshlar tizimida bu jarayon to'la yakunlangan – qattqi-yumshoqlik bilan farqlanish faqat o'zbek tilida, shunda ham atigi ikki juft undoshda /q/ va /k/, /g'/ va /g/ undoshlaridagina saqlangan.²⁵ Qolgan barcha turkiy tillarda undoshlarda qattqlik-yumshoqlik bilan farqlanish BATAMOM YO'QOLGAN. Ayrim turkiy xalqlar yozuvida (chunonchi, qozoqlarda) yozuvda /q/ va /k/ ba'zan /g'/ va /g/ farqlansa-da, ularda fonologik farqlanish xususiyati yo'q. Masalan, o'zbek tiliga o'zb. *qir~kir* juftliklarida ma'no farqlash vazifasini /q/ va /k/ fonemalarining zidlanishi bajarsa, qirg'iz tilida qir. *kir~ki'r* juftligida bu vazifani /i/~i'/ fonemalari juftligi bajaradi.

Turkiy tillarning QTFda ahamiyatli masallardan yana biri undoshlarning qo'llanilish – o'ng'ay mavqelaridir. Chunki fonemalar uchun shunday mavqelar (pozotsiya, so'z/morfema tarkibidagi o'rin) ham borki, ular bu mavqeda qo'llanila olmaydi. Masalan, tilimizda /e/ fonemasi hozir ham ikkinchi va undan keyingi bo'g'inlarda kelolmaydi. Ma'lum mavqe bilan cheklanish juda ko'p hollarda fonemaning nisbatan "yosh"ligi, tilning fonetik tizimiga singib ketmaganligi belgisidir.

Turkiyshunoslarning ko'pchiligi, jumladan, turkiy tillar QTF otaxoni V.Radlov fikricha, turkiy bobotilda anlautda jarangli undoshlar umuman qo'llanilmagan.

Turkiy tillarda istagan mavqeda kela olmaydigan undoshlar quyidagilar:

r, l, ng, ng', n undoshlari turkiy so'zlar anlautida kelolmaydi. Shuning uchun chetdan olingan va bu undoshlar bilan boshlanadigan so'zlarda protetik unli paydo bo'lishi mumkin *urus* → *rus. rus, oroza* → *toj. ruza, qarq. irahmat* → *ar. rahmat, qoz. iris* → *ar. rizq*.

Turkiy so'zlar anlautida jarangli undoshlarning kelishi ham hamma turkiy tillar uchun xos emas va, asosan, o'g'uz tillar guruhining o'ziga xos belgisidir o'zb. *tosh* ~ *tur dash*, *qoz. tas* ~ *ozar. dash*; o'zb *kul* ~ *ozar. gu'l*. Auslautda *g, g'* undoshlari ham hamma turkiy tillar uchun xos emas. Masalan, qipchoq guruh tillarda ular bu mavqeda /u^d/a^d/ – lablangan divtonglarga o'tadi o'zb. *qishlag'* ~ *qoz. qishla^d* (*qishlaw*). Jarangli undoshlarning auslautda kelishi ham turkiy tillarda

²³ Qar. Сравнительно-историческая грамматика. Фонетика. В.170

²⁴ Bunday almashinish esa tilshunoslikda tarixiy taraqqiyotning eng ta'sirchan qonunlaridan biri bo'lgan iqtosod, tejam, tejamkorlikka intilish qonuniyatining voqelanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib biz bu haqda navbatdagi ma'ruzada batafsilroq to'xtalamiz.

²⁵ O'zbek tili uchun o'ta xususiy bo'lgan /x/ va /h/ farqlanishining bu fonemalarni farqlamaydigan o'zbek shevalari vakillari tilida (jumladan, Toshkent-Farg'ona mintaqasi aholisi nutqida) ularni "qattiq" (yani /x/) va "yumshoq" (yani /h/) deb nomlanishi ham bevosita shu bilan bog'liq.

qator cheklanishlarga ega. Jarangli-jarangsiz juftli undoshlarda, masalan, qozoq, qirg'iz, turkman, xakas tillarida auslatda faqat jarangsizining kelish me'yor sanalsa, o'zbek tilida bu qoida faqat /b~/p/ va /d~/t/ga taalluqlidir; tilimizda /z/, /g/, /g'/, hatto o'zlashgan /jh/, /v/ jarangli undoshlari auslautda ma'lum miqdorda jarangliligini saqlaydi va hatto fonologik ahamiyatini ham yo'qotmaydi. Qiyos.: o'zb. *qiz* ~ *qis*, *tuz* ~ *tus*, *tiz* ~ *tis*, *iz* ~ *is*; *eg* ~ *ek*, *yog'* ~ *yoq*, *sig'* ~ *siq*; Shunga o'xshash cheklanishlarni boshqa tilarda ham ko'rish mumkin.

Turkiy tillarda hozirgi kunda qo'llanilayotgan undoshlarning asosiy ko'pchili ma'ruzamiz boshida sanab o'tilgan va qattqlik/yumshoqlik bilan fonologik farqqa ega bo'lgan 13 asl turkiy undoshning divergensiyasi (jarangli va jarangsiz juftliklarning rivojlanishi), assimilatsiyasi (*b* → *m*), boshqa turdagi fonetik o'zgarishlar natijasida (chunonchi, intervokal mavqeda *b* → *w/v*, *gh* → *w/v*, /*s*/ undoshining old qator tor unlilardan keyin /*sh*/ ga o'tishi) rivojlangan. Shu bilan birga noturkiy tillardan ham kirib o'zlashgan undoshlar borligini turkiyhunoslar qayd etishadi. Bu yerda shuni eslatib o'tish kerakki, boshqa tillardan fonema/tovush (umuman, har bir turdagi boshqa birliklar – hatto leksemalar) o'zlashtirish masalasida juda ehtiyot bo'lmoq lozim. Zeroki, tilining ichki sistemasida, tizimning o'zida ma'lum bir imkoniyat bo'lmasa, faqat zarurat asosida o'zga birlikning til tizimida o'zlashishi va tizimiy o'rin egallashini tasavvur qilish juda mushkil; til tizimining o'zida mujassamlangan imkoniyat bo'lsa, o'zga til ta'siri buni kuchaytirishi, bu imkoniyat agar tilda zaiflashib yoki yo'qolib borayotgan bo'lsa, bu jarayonni to'xtatishi yoki susaytirishi mumkin. O'zga til ta'siri – to tillar interferensiyasi sodir bo'lib, ikki tildan yangi bir uchinchi tilning – har ikkala oldingi tildan farqlanuvchi yangi bir tizimning shakllanmagunicha – tizimiy munosabatlarning ichiga suqilib – tizimni yorib – kira olmaydi. Shuning uchun ham “o'zga tillardan o'zlashgan fonemalar” masalasiga ham ehtiyotlik bilan yondahish kerak. Birinchi navbatda bu, albatta, o'zbek tilida /*q*/ va /*k*/, /*g*/ va /*g'*/ juftliklarida qattqlik~yumshoqlik fonologik farqini saqlanishi masalasi talqiniga oiddir. Ko'rib o'tganimizdek, bunday farqlanish eng qadimiy turkiy fonologik xususiyat bo'lib, ma'lum sabablarga ko'ra (biz bu haqda navbatdagi ma'ruzalarimizda fikr bildiramiz) turkiy tillarda u yo'qola borib, o'rnini boshqa qonuniyatga bo'shatgan, lekin o'zbek tilida sanoqli juftliklarda saqlanib qolgan. Bunga, shunhasiz, bu fonemalarni izshil farqlovchi boshqa tillar – jumladan, arab va eroniy tillarning ta'siri bo'lishini inkor etib bo'lmaydi, lekin bunday fonologik farq o'zga tillardan olindi deb da'vo etish mutlaqo asossiz.

O'zga tillardan o'zlashgan undosh fonemalar sirasiga odatda /*x*/, /*h*/, /*f*/, /*w*/, /*v*/, //*th*/lar ham kiritiladi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy XI asrdayoq /*x*/ va /*h*/ tovushlarining qo'llanilishini xo'tanlik va tibetlik turklar tiliga xitoy-tibet tillarining ta'siri deb ta'kidlagan²⁶. Lekin /*h*/ va /*x*/ tovushlari turkiy tillar uchun tamoman begona, yot tovush emas. um-/*s*/ning /*h*/ga o'tishi boshqird tili uchun me'yoriy tovush mos kelishi – o'zb. *sariq* ~ bos. *hari* bo'lib minglab hodisalarda ko'rish mumkin. /*s*/ning /*h*/ga o'tishi yoqut va boshqa tillar uchun ham xosdir. Shuning uchun /*h*/ tovushi ham o'zga tillardn kirgan tovush emas, lekin uning faqat o'zbek tilidagina /*h*/~*x*/ f o n o l o g i k oppozitsiyasi (o'zb. *shoh*~*shox*, *har*~*xar*...) g'ayri tillar ta'sirida rivojlangan bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, turkiy tillarda undoshlar tizimini qiyosiy-tarixiy o'rganish natijasida bu tizimda tarixiy taraqqiyot:

a) jarangsiz undoshlarning jaranglilashuvi, qadimda variativlik munosabatlarida turgan jarangsiz~jarangli undoshlar zidlanishining fonologik mohiyat kashf etib borishi va jarangsiz-jarangli indifferent undoshlarning jarangli va jarangsiz fonemalarga divergensiyasi,

b) qattqlik-yumshoqlik bilan farqlanuvchi undoshlar orasida fonologik farqning yo'qilishi, ularning bu belgiga nisbatan befarq bo'lgan indifferent undoshlarga konvergentsiyasi

yo'nalishlarida borganligini ta'kidlashimiz joizdir. Birinchi – divergensiya hodisasi turkiy tillarda shu kunlarda ham davom etib borayotgan jarayon bolsa, ikkinchi – konvergentsiya hodisasi juda ko'p tillarda yakunlangan va ba'zi tillardagi yozuvda an'ana sifatida saqlangan. Faqat o'zbek tilidagina ayrim undoshlarda bu fonologik farq haligacha saqlanib qolmoqda.

²⁶ Кошғарий Махмуд. Девону луғотит турк. 1-жилд.Т.: 1959. Б.54

O'zbek tilida /q/ va /k/, /g'/ va /g/, /x/ va /h/ fonemalari juftliklarida bu fonologik belgining saqlanishida, o'zbek tili uzoq davrlar davomida tojik va arab tillari bilan bevosita va bilvosita yaqin munosabatlarda bo'lganligi turtki bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin bu omil – g'ayritillar ta'siri – hal etuvchi omil bo'lishi mumkin emas – uning chuqur va qudratli ildizlari o'zbek xalqi substratida – uning shaklanishi uchun zamin bo'lgan qadimgi xalq tilida mujassamlashgan bo'lishi shart va zarur

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Konvergensiya nima?
2. Divergensiya nima?
3. Konvergensiya qanday undoshlar uchadi?
4. Divergensiya qanday undoshlar uchadi?
5. Qattiq undosh talaffuzi qanday bo'ladi?
6. Yumshoq undosh talaffuzi qanday bo'ladi?
7. Indifferent undosh talaffuzi qanday bo'ladi?
8. Turkiy undoshlar taraqqiyotini belgilagan fonetik hodisalar qaysi?
9. "Tovushning o'ng'ay mavqe" deganda nima tushuniladi?
10. "O'zlashgan tovush" deganda nima tushuniladi?
11. "Arab (Ibn Xalil) undoshlar chizig'i" nima?
12. Turkiy tillarda asosiy ma'no yukini morfema tarkibidagi qanday tovushlar o'zida mujassamlashtirgan?

9-10-ma'ruza: Turkiy tillarda unlilar taraqqiyoti.

Reja:

1. Kirish: Turkiy tilarda unlilar taraqqiyoti masalasiga yondashishda ikki xil qarash.
2. Turkiy bobotil unlilari.
3. Unlilar divergensiya va qattqlik/yumshoqlik bilan fonologik farqlanishning undoshlardan unlilarga o'tishi.
5. Morfema tarkibida unlilarning barqarorlashuvi.
6. Yakun.

Adabiyotlar: /24, 16-170;30,15-45/

Tayanch tushunchalar: unlining vazifasi, fonologik unli, "payvand unli", turkiy bobotil unlilari, birlamchi va ikkilamchi cho'ziqlik/qisqalik, etno-mintaqaviy unli, indifferent unli, cho'ziq unli, qattiq (orqa qator), yumshoq (old qator) unli, unli juftliklari, unlilar divergensiya, unlilarning barqarorlashishi, unlilar konvergensiya, unlilar reduksiya

Turkiy tillarda unlilar taraqqiyoti masalasida ham undoshlarda bo'lgani kabi ikki xil qarash mavjud. Birinchi – turkiyshunoslarning asosiy ko'pchiligi qarashlari²⁷ – turkiy bobotilda morfemalar tarkibida unlilarning barqarorligiga va ma'no farqlash yukini o'ziga olishiga asoslansa, ikkinchi dunyoqarash bunga tamoman zid fikrni ilgari suradi – turkiy tillar morfemalarida barqaror fono-fonologik moddiy qobiq undohlar bo'lib, unlilar moddiy shakli asosan undoshlardan iborat bo'lgan morfemalarni so'z tarkibida bir-biriga bog'lashga xizmat qilgan.

Birinchi qarsh tarafdorlari turkiy bobotilda 16 unli fonemalardan iborat vokalizm tizimini tiklashadi *a, a', a; , a'; i, i', i: , i': , o, o', o: , o'; , u, u', u: , u':* va bu unlilarni quyidagi 4 turdagi juftliklarga birlashtiradi:

1. Qatoriga ko'ra – unlilar talaffuzi jarayonida tilning gorizontaal harakati – oldinga, tishlarga qarab (bunda old qator, yumshoq unlilar unlilar hosil bo'ladi), yoki orqaga, yumshoq tanglay tomonga qarab harakati (bunda orqa qator, qattiq unlilar hosil bo'ladi):

Orqa qator (qattiq) a, a:, o, o: , u, u: , i, i:

Old qator (yumshoqlar) a', a':, o', o':, u', u':, i', i':

2. Cho'ziqlik (unli talaffuzining davomiyligi) va qisqaligiga ko'ra.

²⁷ E.Tenishev tahriri ostida tuzilgan umumlashmada ham shu qarash o'z aksini topgan, Qar. Сравнительно-историческая грамматика Фонетика. В.16-65

Qisqa unlilar	a, a'; o, o'; u, u'; i, i'
Cho'ziq unlilar	a:,a':; o:, o':; u:,u':; i:, i':

Bu fonologik belgi ustiga biroz to'xtalish lozim, zeroki cho'ziqlik~qisqalik belgisi o'zbek tilida fonologik ahamiyatli emas: o'zbek unlilarining qisqa yoki cho'ziq talaffuz etish ma'noga ta'sir etmaydi²⁸. Bu xususiyatning bo'g'inning cho'ziq/qisqaligiga tayangan aruz vazni uchun juda qulayligini ulug' bobomiz Mir Alisher "Muhokamatul lug'tayn"da alohida ta'kidlagan edilar.

Gho'ziqlik/qisqalik haqida gapirganda birlamchi va ikkilamchi cho'ziqlik/qisqalikni farqlash lozim. Birlamchi cho'ziqlik/qisqalik deganda tilning fonologik tizimi morfemalarni (so'z va qo'shimchalarni) unlining cho'ziqligi yoki qisqaligi bilan zotan, tabiatan farqlashi tushuniladi: chunonchi: *ar'alam* – "*bayroq*", *'a:lam* – "*dunyo*", *toj.bar* – "*etak*", *ba:r* – "*meva, samara*", nem. *In* – *ko'makchi*, *predlog*, *I:n* – *unga*... Dunyo tillarining ko'pchiligida (slavyan tillaridan tashqari barcha G'arbiy Yevropa tillarida, somiy va eroniy tillarda) birlamchi cho'ziqlik/qisqalik muhim fonologik farqlardan biridir.

Ikkilamchi cho'ziqlik/qisqalik deganda ma'lum bir fonetik holatlarda yuzaga keladigan cho'ziqlik (chunonchi, ikki bir xil unlining yonma-yon kelishi, unlilardan keyin /h/, /y/, /w/ kabi undoshlarning kelishi) yoki qisqalik (urg'usiz bo'g'inlarda unlining o'ta qisqarib – reduksiyalanib qolishi va hatto eliziyasi, vazn talabiga ko'ra unlini juda qisqa talaffuz etish v.h.) tushuniladi. Birlamchi cho'ziqlik/qisqalik tilning fonologik sathi mulki bo'lib, mustaqil fonemalarni farqlashga, fonologik yuk olishga xizmat qiladi. Ikkilamchi cho'ziqlik/qisqalik fonemalarni farqlamaydi, fonologik yuk olmaydi, ma'lum sharoit va kontekstlarda tovushlarning variantlarini beradi, xolos.

Turkiyshunoslar turkiy bobotilda b i r l a m c h i cho'ziqlik/qisqalik mavjud degan qarashdan kelib chiqqan holda yuqorida berilgan juftliklarni tiklashgan:

3. Labning ishtirokiga ko'ra:

Lanlangan unlilar: o, o', o:, o':; u, u', u:, u': ,

Lablanmagan unlilar a, a', a:, a':; i, i', i:, i': .

4. Og'iz bo'shlig'ining hajmiga (tilning vertikal harakatiga, quyida/yuqorida bo'lishiga) ko'ra:

Keng (quyi) unlilar a, a', a:, a': , o, o', o:, o': ,

Tor (yuqori) unlilar i, i', i:, i': , u, u', u:, u':

Yagona bobotil nazariyasi tarafdori fikriga ko'ra, turkiy tillarda unlilarning bobotildan keyingi taraqqiyot davrida cho'ziqlik~qisqalik fonologik farqi yo'qolib, cho'ziq hamda qisqa unlilarning divergensiyasi – indifferent unlilarga birlashishi yo'nalishida bo'ldi. Bu qarash tarafdorlari fikriga ko'ra, hozirgi turkiy tillarning ayrimlarida (yoqut, qirg'iz, turkman, chuvash) doimiy fonologik belgi sifatida²⁹, asosiy ko'pchiligida (jumladan, o'zbek, turk, qozoq, qoraqalpoq v.b.) juz'iy holatlarda – ayrim so'zlarda, yoki shevalarda, yodgorliklarda nofonologik, sof fonetik hodisa sifatida saqlangan birlamchi cho'ziqlik shuning qoldidig'idir. Haqiqatan ham, birlamchi cho'ziqlik bu belgi fonologik ahamiyatli bo'lmagan tillar, shevalar va yodgorliklarda ham ma'lum darajada qayd etilgan. Bu yozma yodgorliklar orasida eng mu'tabari, tabiiyki, Mahmud Koshg'ariyning "Devon"idir. Koshg'ariy asari lug'at qismi boshida ikki fathali alif bilan yoziladigan *a:t*, *a:z* kabi qator so'zlarni beradi. Lekin Koshg'ariy davridayoq /a:/ tovushi o'zining fonologik qiymatini yo'qotgan edi. Buni Koshg'ariyning o'zi ham ta'kidlaydi. Chunki alohida kelganda ikki fathali alif bilan yoziladigan so'zlarga boshqa turdagi qo'shimchalar qoshilib, ular ko'p bo'g'inliga aylanganda, bitta alif bilan yoziladi, ya'ni *a:t* , lekin *atlandi*. Bundan tashqari, muallifning o'zi asarining bir necha o'rinlarida turkiy so'zlardagi tovushlarni qisqa va qattiq talaffuz etish me'yor va to'g'ri ekanligini ham ta'kidlaydi. Shuning uchun turkiy tillarda cho'ziqlik/qisqalik azaliy, bobotil holatiga xos fonologik belgi bo'lganligini tasavvur etish ham, moddiy-amaliy asoslash ham qiyin.

²⁸ *qarib~qariyb, sina~siyna. qin~qiyin* kabi holatlar haqida qar.:/30,29-30/;

²⁹ Shu tillarda ham bu zidlanish faqat o'zak tarkibidagi unlilarga xos bo'lib, affiksalar morfemalarda unlilarning cho'ziqlik~qisqalik bilan fonologik farqlanishi qayd etilmagan.

Bobotil nazariyasi tarafdorlari unlilar tizimida qat'iy fonologik ahamiyatli belgi sifatida ajratadigan zidlanishlardan yana biri qattqlik~yumshoqlikdir. Haqiqatan ham, qattqlik~yumshoqlik bo'yicha zidlanish hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun xos bo'lib, bu silsilada faqat o'zbek tiligina alohida ajralib turadi – uning qator shevalarida bunday zidlanish fonologik qiymatli bo'lsa-da, adabiy tilimizda va tayanch shevalardan ko'pchiligida qattqlik~yumshoqlik belgisi nofonologik, sof fonetik, pozitsiondir.

Unlilar zidlanishidagi qolgan ikki zidlanish belgisi **kenglik ~ torlik, lablanganlik ~ lablanmaganlik** barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lib, ayrim turkiy tillarda bu zidlanish darajalanadi. Jumladan o'zbek tilida har ikkala belgi ham darajalangan – **keng ~ o'rta ~ tor** ($a \sim e \sim i$), **lablangan ~ yarimlablangan ~ lablanmagan** ($u \sim a^o \sim i$) shaklda voqelanadi. Bunday holat boshqa turkiy tillarda (totor, boshqird, uyg'ur v.b.) ham ucharydi.

Turkiy tillar QTFda unlilarni bobotil nazariyasi asosida talqin etish, aytib o'tganimizdek, keng tarqalgan va ommalashgan yo'ldir. O'zbek tili tarixi bo'yicha yozilgan barcha tadqiqot va tavsiflar, darslik va qo'llanmalar (jumladan, bu satrlar muallifining “O'zbek tilining tarixiy fonetikasi” qo'llanmasi ham) shu nazariyaga asoslanib yozilgan va ularning barchasida o'zbek tili tarixida unlilarning taraqqiyoti, asosan, qattiq va yumshoq unlilarning indifferent unlilarga konvergensiya yo'nalishida borgan degan fikr ilgari suriladi. Lekin turkiyshunoslik va QTT nazariyasida bu masalaga boshqacha qarash, uning tamoman o'zgacha talqinini berish ham bor.

Turkiy tillarda morfemalarda asosiy fonologik yuk undoshlarda mujassamlashgan va unlilar, birinchidan, so'z tarkibida morfemalarni bir-biriga bog'lab, nutqiy butunlik yasash, ikkinchidan, morfemalardagi ma'nolarni, ma'lum darajada o'zgartirishga (modifikatsiya qilishga – ma'lum darajada kuchaytirish yoki pasaytirish, ixtisoslashtirish v.h.) xizmat qiladi degan fikrga asoslansak, talqin boshqacha tus oladi va turkiy tillarning QTF materallari bilan ham tasdiqlanadi. Bunda, birinchidan, unlilarda qattiq-yumshoqlik farqlanishi f a q a t va faqat undoshning ta'sirida bo'ladi degan fikrga, ya'ni qadimda unlilar indifferent bo'lib, (hozirgi o'zbek tilida va qator turkiy shevalarda bo'lganidek) qattiq undosh qo'shnichiligida qattiq, yumshoq undosh yonida yumshoq ko'rinishda voqelangan degan hukmga kelamiz. Bunday yondashishda keng unlilar morfemada mujassamlashgan ma'noni kuchaytirishga, oshirishga tor unlilar – uni kamaytirish, pasaytirishga xizmat qilagan³⁰.

Morfemalarni biriktirish va ma'noning modifikatsiyalashga xizmat qiladigan unlilar etno-mintaqaviy xoslangan bo'lishgan deb taxmin etish mumkin, ya'ni ma'lum bir mintaqada yashagan bir etnos (qabila, toifa, elat...) bir xil unlilardan (masalan, torlardan, yoki tor va lablanganlardan), ikkinchi etnos – boshqa turdagi unlilardan (masalan, keng yoki keng va lablanganlardan, tor va lablanmaganlardan v.h.), uchunchisi yana boshqa turlardan foydalangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki faqat shunday yondashishgina bizga turkiy tillar morfemalarida unlilarning munchalik b e q a r o r l i g i ning, mohiyatan har bir morfema nisbatan barqaror undosh tarkibning i s t a g a n turdagi unli bilan kela olishi sababini ochib bera oladi. Bu hodisa turkiyshunoslikda va turkiy tillarda shunchalik keng ommalashgan, ma'lum-u ma'ruf hodisaki, uni atigi bir til materiallari bilan ham bemalol isbotlab bo'ladi. Chunonchi, o'zbek tilida fe'llardan ot va sifat (tarixan sifatdosh) yasovchi qo'shimchalardan biri *o'zb –gan/-g'an/-kan/-qan/-g'in/-gin/qin/-kin/-g'un/-gun/-qun/-kun*. Bizning tilimizda /+y/ unlisi birinchi bo'gindan boshqa o'rinda qo'llalmaydi, shuning uchun tilimizda bu fonemaning *-qo'n/-ko'n/-gho'n/-go'n* variantlari mavjud emas, boshqa tillarda, masalan, qirg'iz tilida, qozoq tilida ular to'lib toshib yotibdi. Nega ayni bir morfema xilma-xil unlilar bilan kela oladi? Buning sababi bu morfemada asosiy fonologik yukni anlautdagi portlovchi tilorqa (assimilatsiya qonunlariga ko'ra o'zidan oldingi tovush bilan moslashish uchun *q/k/gh/g* ko'rinishli) undosh va auslautdagi sonor /n/ o'z ustiga olgan va ularning orasidagi unlu bu ikki undoshni biriktirish, uning butunligini ta'minlash va boshqa so'z bilan qo'shilishga imkon berishga xizmat qilgan – biriktiruvchilik, yelimlashtiruvchilik, bog'lovchilik vazifasini o'tagan degan taxmingina ochib bera oladi.

³⁰ Turkiy tovushlarning bu xususiyati hozirgi kunda ham taqlid so'zlarda saqlangan (qiyos: *o'zb.tik-tik ~ tiq-tiq ~ taq-taq ~ to'q-to'q; chik-chik ~ chak-chak; lik-lik ~ liq-liq ~ laq-laq ~ lo'q-lo'q..*) va tadqiqotchilar,jumladan, Ramatulla Qo'ng'urov, Yomg'ur Abdurasulov, Nikolay Dmitriyev v.b. tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Yelimlashtiruvchi bu unlining qanaqaligining ahamiyati deyarli bo‘lmagan – bir etno-mintaqaviy guruh bu maqsadda *a*, *a'*, ikkinchisi – *i*, *i'*, uchuchisi *o*, *o'*, to‘rtinchisi *u*, *u'* kabi unilardan foydalangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bu etno-mintaqaviy guruhlar o‘zaro aralashib, qorishib ketgandan keyin ayni bir morfemada istagan turdagi unlining kela olishi, bir hosilada u bir turdagi unli bilan, ikkinchi hosilada boshqa turdagi unli bilan saqlanib qolishi yuzaga kelgan. Bunday variantlilik bora-bora fonetik variantlarning ixtisoslashishiga – tarixan fonetik variantlarning o‘ziga xos ma’no va vazifa kashf etishiga olib kelgan. Mana shunday faraz turkiy tillarda keng yoyilgan bu hodisa sababini ochib bera oladi, xolos.

Masalaga bunday yondashadigan bo‘lsak, turkiy tillarda unlilar tizimida tarixiy taraqqiyot unlilar konvergentsiyasi asosida emas, tamoman, boshqa hodisalar:

- eng avvalo, fonologizatsiya (fonologik qiymat kashf etish),
- ikkinchidan, divergensiya va ixtisoslashish,
- va eng keyingisi sifatida divergensiya

yo‘nlaishlarida borgan degan xulosaga kelishimiz kerak. Endi bu hodisalarning har birining mohiyati va turkiy tillar QTFda tutgan o‘rni hamda natijalari haqida to‘xtalamiz.

Fonologizatsiya (fonemizatsiya, fonemalashuv) deb toshushning ma’lum bir variantining tarixiy taraqqiyot natijasida ma’no farqlash vazifasini kashf etishi va tarixiy fonetik variantdan mustaqil fonemaning rivojlanish jarayoniga aytiladi. Bu hodisa eng avvalo turkiy unlilarning qattiq va yumshoq variantlaridan qattqlik ~ yumshoqlik bilan fonologik farqlanuvchi mustaqil fonemalarning rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon tilda tejam qonunining ta’siri va qattqlik ~ yumshoqlik bilan fonologik farqlanuvchi undoshlardan bu vazifaning unlilarga o‘tishi bilan bog‘liq. Ilk bosqichda unlining qattqligi yoki yumshoqligi qo‘shni undoshning qattqlik/yumshoqligi bilan belgilansa, asta-sekin bu yuk unli zimmasiga o‘ta boshlaydi – tilda 13-15 juft undoshda qattqlik~yumshoqlikni farqlashdan ko‘ra 3-4 juft unlida buni farqlash katta tejam va qulaydir. Shuning ta’sirida undoshlarda qattqlik ~ yumshoqlik fonologik zidlanishining mu’tadillashuvi va unlilarda bunday zidlanishning ma’no farqlash qiymatini qabul qila boshlashi kuzatiladi – qattiq va yumshoq undoshlarning indifferent undoshga birlashishi – konvergentsiyasi jarayoni unlilarda ters hodisa – divergensiya – indifferent unlilardan mustaqil old qator (yumshoq) va orqa qator (qattiq) unlilarning rivojlanishi bilan yonma-yon va uzviy bog‘liqlikda boradi. Bu ikki hodisani birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydi – ular o‘zaro bog‘liq va yaxlit bir jarayon – turkiy tillar fonologik tizimining takomillashuvining yuzaga chiqish shakllaridir.

Hozirgi turkiy tillarda (oldingi ma’ruzada aytib o‘tganimizdek) o‘zbek tilidan boshqa barcha turkiy tillarda bu jarayon nihoyasiga yetgan. Shuning uchun o‘zbek tilidan boshqa barcha turkiy tillarda unlilar qatorga ko‘ra qat’iy fonologik zidlanishga ega va yumshoq ~ qattiq (old qator ~ orqa qator) unlilar alohida-alohida mustaqil fonemalarni tashkil etadi – o‘zbek tilidan boshqa barcha turkiy tillarda unli fonemalaq miqdori 4 juftdan *kam* emas. Bu lar:

Orqa qator (qattqlar)	<i>a</i> , <i>o</i> , <i>u</i> , <i>i</i> ,
Old qator (yumshoqlar)	<i>a'</i> , <i>o'</i> , <i>u'</i> , <i>i'</i> .

Albatta, har bir muayyan turkiy tilda o‘ziga xos boshqa unlilar (o‘rta keng /e/, o‘rta keng /o/, yarimlablangan /a^o/, o‘ta qisqa /i/ va /u/, cho‘ziq unlilar v.h.) mavjud. Bunday unlilar har bir tilning o‘zining juz’iy, o‘ziga xos xususiyatlaridir. Bunday unlilarning shakllanishi turkiy tillar unlilar tizimida asosan unlilar divergensiyasi bilan bog‘liq. Bunday xususiy unlilar turkiy tillarda amalda bo‘lgan – t o r a y i sh – ma’lum tillar va mavqelarda keng unlilarning torayishi va um/a’ning /a’/ va o‘rta keng/e/ga, um/o/ning /o’/ va o‘rta keng /o/ va /u/ga ajralishi, – buning aksi bo‘lgan k e n g a y i sh um/i’ning /i’/ va o‘rta keng /e/ ga, um./u/ning /u/ va o‘rta keng /o/ga bo‘linishi, – l a b i a l i z a t s i y a (lablanish) – um/a/ning /a/ va /a^o/ga ajralishi, – diftonglashuv /w/, /h/, /y/ kabi undoshlarning ayrim unlilar bilan birikib /a^d/, /a_d/, /u^d/, /u_d/ diftonglarini berishi hodisalari natijasida rivojlangan. Bunday “xususiy unlilar” (chunonchi, o‘zbek va bir qator boshqa tillar va shevalarda /a^o/) muayyan tillarda fonologik qiymatga ega bo‘lgan alohida fonemalarning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Demak, xulosa qilib ayta olamizki, turkiy tillarda unlilar inkishofi va taraqqiyoti undoshlar tizimi bilan uzviy bog‘liqda sodir bo‘lgan va uning asosiy yo‘nalishi undoshlar

taraqqiyoti bilan hamohang, lekin qarama-qarshi yo‘nalishda borgan: – undoshlar qattqlik ~ yumshoqlik fonologik zidlanish xususiyatini unlilarga bergan. Pirovard oqibatda 13-15 juft shunday undoshning indifferent undoshlarga konvergensiya qattqlik ~ yumshoqlik fonetik (nofonologik) variantlarga ega bo‘lgan 4 juft indifferent unlidan 8 mustaqil fonemaning divergensiya bilan qoplangan. Bunday “almashinish”da til taraqqiyotida tejam qonuni eng yorqin shaklda voqelanishi ko‘rish mumkin: 13-15 juftlikning bajaradigan vazifasi 3-4 juftlikka o‘tgan!

Endi ikki og‘iz so‘z o‘zbek tilining unli fonemalar tizimining turkiy tillar QTFda tutgan o‘rni haqida. Tilimiz unlilar tizimiga “to‘lqin nazariyasi” tarafdorlari va fonologik taraqqiyotning, asosan, undoshlar konvergensiya va unlilar divergensiya yo‘nalishidan borganligi nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, tilimizning turkiy tillar fonologik silsilasida tamoman o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligining guvohi bo‘lamiz: O‘zbek tilida to‘rt juft umumturkiy indifferent unli – /⁺i/, /⁺u/, /⁺o/, /⁺a/ saqlangan. Tabiiyki, bu unlilarning tilimizda saqlanib qolishi tilimizda unlilarda qattqlik ~ yumshoqlik zidlanishining fonologik belgi darajasiga ko‘tarilmagani va undoshlar tizimida qattqlik ~ yumshoqlik bilan fonologik zidlanuvchi /q/ ~ /k/, /gh/ ~ /g/ oppozitsiyalarining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtayi nazaridan tilimiz tarixini tavsiflar ekanmiz, biz tilimizdagi unlilar konvergensiya asosida hosil bo‘lgan deb emas, balki tilimizda turkiy tillar uchun eng qadimiy xususiyat – unlilarda qattqlik ~ yumshoqlik belgisiga ko‘ra indifferentlik saqlangan va barcha boshqa turkiy tillar vokalizmini “ostin-ustun” qilgan unlilar divergensiya hodisasi tilimiz unlilarini chetlab o‘tgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Unlilar tizimining taraqqiyotini talqin etishda qanday yondashishlar mavjud?
2. Choziq unli deganda nimani tushunasiz?
3. Indiferent unli deganda nimani tushunasiz?
4. Bobotil nazariyasi tarafdorlari tuki bobotilda nechta unli fonema borligini qayd etishadi?
5. Unlilar juftligi deganda nimani tushunasiz?
6. Turkiy bobotil unli fonemalari qanday juftliklar hosil qiladi?
7. Bobotil nazariyasi nuqtayi nazaridan, turkiy tillar vokalizmining taraqqiyoti qanday fonetik hodisa bilan belgilanadi?
8. Unlilar konvergensiya deganda nimani tushunasiz?
9. Bobotil nazariyasi nuqtayi nazaridan, turkiy tillar vokalizmida qaysi unlilar konvergensiya uchradi?
10. To‘lqin nazariyasi nuqtayi nazaridan turkiy tillar vokalizmining taraqqiyoti qanday fonetik hodisa bilan belgilanadi?
11. Unlilar divergensiya deganda nimani tushunasiz?
12. To‘lqin nazariyasi nuqtayi nazaridan, turkiy tillar vokalizmida qaysi unlilar divergensiya uchradi?
13. Fonologizatsiya nima?
14. To‘lqin nazariyasiga kora, o‘zbek tilining fonologik tizimi turkiy tillar QTFda qanday o‘rin tutadi?

11-ma’ruza. Turkiy tillarda singarmonizm.

Reja:

1. Singarmonizm haqida.
2. Singarmonizm turlari.
3. Bobotil nazariyasi nuqtayi nazaridan tutrkiy tillarda singarmonizm taqacqiyoti tlqini
4. Bobotil va to‘lqin nazariyalari nuqtayi nazaridan tutrkiy tillarda singarmonizm taqacqiyoti talqini.
5. Singarmonizmga o‘zbek tilining munosabati.
6. Yakun.

Adabiyotlar: /24,433-454;30,45-60;/

Tayanch tushunchalar: assimilatsiya (uyg'unlashish, garmoniya, moslashish), kontakt assimilatsiya, distant assimilatsiya, o'zak unli (barqaror unli), affikisal unli (o'zgaruvchan unli), unililar garmoniyasi, palatal-velar (yumshoq-qattiq tovushlar) garmoniyasi, labial (lablangan) tovushlar garmoniyasi, undoshlar garmoniyasi.

Singarmonizm – so'z tarkibidagi unli va undoshlarning bir-biriga moslashishi, uyg'unlashishi, movofiqlashuvi – turkiy tillarning o'ziga xos tipologik xususiyati bo'lib, u turkiy so'zning fonologik butunligi, yaxlitligini ta'minlaydi, so'zning chegaralarini belgilab beradi. Fonetik hodisalar silsilasida singarmonizm mohiyatan assimilatsiyaning – bir tovushning bosqa bir tovushni o'ziga moslashtirishi, o'xshash qilishining bir ko'rinishi bo'lib, uning ta'siri oddiy assimilatsiyadan ancha kuchli. Odatda, assimilatsiya yondosh – qo'shni tovushlar orasida bo'ladi (kontakt assimilatsiya) va juda ko'p hollarda oldingi tovush o'zidan keyin kelgan tovushni o'ziga moslashtiradi (progressiv kontakt assimilatsiya): chunonchi: *o'zb chiq+gan → chiqqan, ek+gan → ekkan*. Singarmonizmning ta'siri faqat qo'shni tovushlar bilan cheklanib qolmaydi – u turkiy so'zni bus-butun qanrab oladi va sintagmatik qatorda bir-biridan uzoq turgan tovushlarga ham ta'sir qiladi (distant assimilatsiya)

Singarmonizm dunyoning juda ko'p tillarida mavjud, lekin umumiy tilshunoslikning yetuk namoyondalari Avgust Shleyxer, Nikolay Trubetskoy(1890-1938), Aleksandr Reformatский(1900-1978)larning fikriga ko'ra, uning eng yorqin va izchil voqelanish namunasini turkiy tillardagina ko'rish mumkin³¹.

Turkiy tillarda singarmonizmning ibtidoiy – qadimgi davrlardan boshlab hozirga qadar amalda bo'lgan hodisa ekanligiga hech bir turkiyshunos shubha qilmaydi, lekin uning turlari va tarqalishi masalasida ularning fikr-u qarashlari bir xil emas – bu yerda ham QTTda bobotil nazariyasi va to'lqin nazariyasi tarafdorlarining qarashlari bir – biridan keskin farqlanadi; singarmonizmning ko'rinishlarining turkiy tillarlarda ibtidoiyligi va ularning tarqalishlariga har bir nazariya tarafdorlarining fikrlari har xil. Shuning uchuh, dastlab, singarmonizmning turlarini (ko'rinishlarini) eslatib o'tamiz.

Turkiy singarmonizm o'zakdagi unli va undoshlarning bu o'zakka qoshilib kelayotgan qo'shimchani tarkibidagi unli va undoshlarga ta'siri, ularni o'ziga moslashtirishi, uyg'unlashtirishida namoyon bo'lib, u dastlab ikki turga:

- 1) unililar garmoniyasiga,
 - 2) undoshlar garmoniyasiga
- bo'linadi.

Unililar garmoniyasining, ya'ni qo'shimchadagi unililarning o'zak tarkibidagi unililarga uyg'unlashishi, asosan ikki ko'rinishda voqelanadi:

1. Tanglay yoki palatal-velar (yumshoq~qattiq unililar) garmoniyasi – qo'shimchadagi unililarning o'zakdagi unlining qattiqligi yoki yumshoqligiga ko'ra izchil ravishda qattiq yoki yumshoq bo'lishi: *tur. atlarimiznin – "otlarimizning" ~ ella'la'ri'mi'zni'n – "ellarimizning"*. So'z tarkibida ham yumshoq, ham qattiq unililarning bo'lishi bu garmoniyaning buzulishiga olib keladi: chunonchi, *tur.kitap* – birinchi unli yumshoq, ikkinchi unli qattiq.

2. Lab yoki labial (lablangan unililar) garmoniyasi o'zakdagi lablangan unlining qo'shimcha tarkibidagi unli ham lablantirishi: *tur.qolumuz - "qo'limiz", go'zu' - "ko'zi", qir. qoldoru – "qollari", qir. ko'llo'ru' - "ko'llari"*.

Undoshlar garmoniyasi ham ikki ko'rinishga ega:

1. Jarangli-jarangsizlik garmoniyasi. O'zak/negiz auslautidagi va qo'shinchadan auslautidagi undoshkarning jaranagli ~ jarangsizlikka kora o'zaro uyg'unlashishi: *ketti ~ keldi*.

2. Qattiqlik-yumshoqlik garmoniyasi – o'zakda qattiq undosh va unililar bo'lsa, qoshimchada ham qattiq, o'zakdagi unli-undoshlar yumshoq bo'lsa, qo'shimcha tarkibida ham yumshoq undoshlarning kelishi: *ek-ka'n; chiqqan*.

³¹ Реформатский А.А. Иерархия фонологических единиц и явление сингармонизма. Сб.Исследования по фонологии. М.: Наука.1966. Б.198,. Сравнительно-историческая грамматика Фонетика. В.434.

Unlilarda ham, undoshlarda ham juda ko‘p hollarda garmoniyaning har ikkala tuli birdaniga ta’sir etadi: *qir.ku’chto’ru* - “kuchlari”, *tur.go’zu’mu’z* - “ko’zimiz, ek-ka’n; chiqqan”.

Tilda singarmonizm hodisasining amalda bo‘lishi tilning fonologik tizimga kuchli ta’sir etadi. Singarmonizmli tillarda, jumladan, turkiy tillarda, o‘zak va qo‘shimcha tarkibidagi fonemalarning mohiyatini aniqlashda ularning har biriga boshqacha yondashish talab etiladi; bunday tillarda barqaror fonemalar faqat o‘zaklar tarkibidagina bo‘ladi. Qo‘shimchalar tarkibidagi unlilar esa o‘zgaruvchan bo‘ladi. Turkiy tillarda o‘zak tarkibidagi unli fonemalarda, oldingi ma’ruzamizda ko‘rib o‘tganimizdek, to‘rt fonologik ahamiyatli zidlash belgisi bo‘lsa (qattqlik~yumshoqlik, kenglik~torlik, lablanganlik~lablanmaganlik, ba’zi tillarda yana qisqalik~cho‘ziqlik), qoshimchalar tarkibidagi unlilarga izchillik bilan faqat kenglik~torlik belgisiga ahamiyatli bo‘ladi; qo‘shimchaning tarkibidagi unlining qattqlik~yumshoqlik, lablanganlik ~ lablanmaganlik belgisi o‘zak/negizdagi unliga muvofiq ravishda o‘zgarib turadi.

Singarmonizmning bu ikki turi va ularning to‘rt korinishining ta’siri turkiy tillarda bir xil emas. Bu ko‘rinishlardan eng ustuvor va keng tarqalgani tanglay garmoniyasidir – u deyarli barcha turkiy tillarda, hatto bu hodisa qat’iy qonuniyat sifatida odatda qayd etilmaydigan o‘zbek tilida – xususan, /q/gh/g/k/, /h/, /x/ undoshli va /e/, /a^o/ unlili so‘zlarda, amaldadir.

Lab garmoniyasining tarqalishi ancha cheklangan. Eng avvalo, bu cheklanish keng unlili affiksalar morfemalarga taalluqlidir. Lab garmoniyasi nisbatan kuchli amalda bo‘lgan turkiy tillarda (turk, turkman, ozarbayjon, totor, boshqird, qumuq, bolqor tillari)) ham u, asosan, tor unlili qo‘shimchalarga ta’sir etadi. Sanoqli turkiy tillardagina – qirg‘iz, yoqut, oltoy tillaridagina keng unlili qo‘shimchalardagi unli lab garmoniyasiga bo‘ysunadi.

Undoshlar uyg‘unligi ko‘rinishlaridan har ikkalasining ham tarqalishi cheklangan. Chunki jarangli/jarangsizlik garmoniyasi anlautida jarangli/jarangsiz jufti bor undoshli qo‘shimchalarga taalluqli, qattqlik~yumshoqlik esa bugungi kunda turkiy undoshlarda – ayrim mustasnolarni hisobga olmasak – qat’iy farqlanmaydi.

Turkiy tillarda singarmonizmning tarqalishi va amal qilishi ham bir xil emas. Bu tillar singarmonizmning tas’ir kuchiga ko‘ra tasnif etilganda, bu hodisaning qurg‘iz, oltoy, yoqut tillarida juda kuchli, o‘zbek tilida esa juda zaif ekanligini alohida qayd etish zarur.

Muayyan tillarda buning namoyon bo‘lishini yorqin ko‘rsatish maqsadida *o‘zb.qol* va *qush* o‘zaklariga bir tor unlili va bitta keng unlili qo‘shimchaning bir necha turkiy tillardagi singarmonistik variantlari jadvalini ilova qilamiz³².

Tillar	Qo‘1 i	Qo‘llari	Qushi
Ozarbayjon	qolu	qollari	qushu
Oltoy	qoli	qoldori	qushi
Qozoq	qoli	qoldari	qushi
Qirg‘iz	qolu	qoldoru	qushu
Qoraqal.	qoli	Qollari	qishi
Qumuq	qolu	qollari	qushu
No‘g‘oy	qoli	qollari	qushi
Tuva	qolu	qollari	quju
Turk	qolu	qollari	qushu
Turkman	qoli	qollari	qushi
O‘zbek	qoli	qollari	qushi
Uyg‘ur	qoli’	qolliri	qushi
Xakas	xoli	xollari	xuzu
Sho‘r	qoli	qollari	quji

³² Jadval F.G.Isxakovning (Исхаков Ф.Г. Гармония гласных в тюркских языках. Сб. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Часть 1. Фонетика. М., 1955.) va “Сравнительно-историческая грамматика... Фонетика. В.450-451.” asarlaridan qisqartirib olindi

Bu jadval hozirgi turkiy tillarda singarmonizmning tarqalishi haqida aniq tasavvur beradi. Jadvalga biz singarmonistik variantlarning old qator unlili ko‘rinishlarini bermadik – tanglay garmoniyasi deyarli hamma turkiy tillarda izchil amalda bo‘lishi yuqorida bir necha marta ta’kidlandi.

Endi turkiy tillar uchun singarmonizmning ibtidoiy hodisami yoki keyingi taraqqiyot mahsulimi, turkiy bobotilda u qay darajada amalda bo‘lgan degan masala haqida ayrim mulohazalarni bayoniga o‘tamiz.

Turkiy tillarda undosh va unlilarning tabiati bilan tanishishimiz bu tillarda singarmonizmning tanglay garmoniyasi va uning bilan bog‘liq bo‘lgan undoshlarning qattqlik-yumshoqlik garmoniyalari ko‘rinishlari ibtidoiy va zotiy hodisa ekanligi haqida xulosa chiqarishni talab qiladi. Bunda ham yetakchilik, bobotil nazariyasi nuqtayi nazaridan, unlilarning tanglay garmoniyasi zimmasida, to‘lqin nazariyasi tarafdorlari fikriga ko‘ra esa, undoshlarning qattqlik-yumshoqlik garmoniyasida bo‘lgan. Zeroki, bobotil nazariyasi nuqtayi nazaridan unlilar, to‘lqin nazariyasi tarafdorlari fikriga ko‘ra – undoshlar bu tillarda qattqlik ~ yumshoqlik bilan zidlanuvchi qat’iy va izchil juftliklarni hosil qiladi. Bu esa turkiy tillarda tanglay/qattqlik-yumshoqlik garmoniyasi izchil amalda bo‘lib, delimitativ (so‘zning cheralalarini aniqlash, uning yaxlitligini ta’minlab, boshqa yondosh so‘zlardan ajratib turish) vazifasini bajarganligidan guvohlik beradi. Tanglay/qattqlik-yumshoqlik garmoniyasining barcha turkiy tillarda deyarli izchil amalda bo‘lishi ham shunga ishora qilsa kerak.

Unlilarning lab garmoniyasi va undoshlarning jarangli/jarangsizlik garmoniyalari shakshubhasiz keyingi hodisa va tilda analogiya qonuni ta’siridir: tanglay/qattqlik-yumshoqlik garmoniyasi analogiyasi asosida uyg‘unlashishning bu turlari ham rivojlangan. Ehtimolki, bu jarayon nisbatan keyingi davrlarga oid bo‘lsa; uzoq yozuv madaniyatiga ega bo‘lgan xalqlar tilida garmoniyaning bu turlari yozuv madaniyati keyingi davrlarda rivojlangan xalqlar tildan ko‘ra ancha zaif. Ma’lumki, yozuv va koyni (ustuvorlashgan, qonun-qoidalar, yozuv madaniyati, ta’lim tizimi v.h. bilan belgilangan adabiy til) tilning erkin taraqqiyoti va o‘zgarishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun ilk komparativist (Bopp-Shleyxer)larning faqat qadimiy yozma yodgorliklarni o‘rganish va ularning ma’lumotlariga tayanish lozim degan fikriga qarshi yosh grammatiklarning adabiy til sun’iy, faqat savodsiz, sahroyi va ko‘chmanchi nutqi jonli, haqiqiy til degan shiorni ko‘tarib chiqqan edilar. XX asr tilshunosligining bunyorkorlaridan biri bo‘lgan rus olimi Ivan Boduen de Kurtene (1845-1929) tomonidan bu tamoyillarining har ikkalasining ham o‘rinsiz ekanligi istehzo bilan “kamzul kiygan zodagonning sahroyiga sirdan nosamimiy sig‘inishi” deb baholangan bo‘lsa-da³³, adabiy til va yozuv madaniyati tilning erkin rivojlanishiga, xususan, analogiya qonunining amaliyotiga salbiy ta’sir etishi hech bir tilshunos uchun sir emas. Shuning uchun ham lab garmoniyasining eng rivojlangan ko‘rinishini biz yozuv madaniyati XIX asrda shakllangan qirg‘iz, yoqut, oltoy³⁴ tillarida ko‘ramiz. Yozuv madaniyati uzluksiz va uzoq bo‘lgan tillarda esa, jumladan, o‘zbek tilida, bu hodisa nisbatan kam tarqalgan. Bundan tashqari lab va jarangli-jarangsizlik uyg‘unlashuvi nisbatan keng tarqlgan turk, ozarbayjon, totor (qadimgi turkiy tilning davomchilari sifatida qirg‘iz, yoqut, oltoy, xakas) tillarining tarixiga qancha shuqurlashsak, akademik Andrey Kononovning fikrkariga ko‘ra, bu turdagi uyg‘unlashishning hozirgi tildan ko‘ra ko‘proq buzilishi va noqat’iyligiga guvoh bo‘lamiz. Bularning barchasi yuqorida bayon qilingan fikrni – unlilarning lab garmoniyasi va undoshlarning jarangli/jarangsizlik

³³Qar.: И.А.Бодуэн де Куртене. Некоторые общие замечания о языковедении и языке. «Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1. – М.: Просвещение. 1964.» kitobida B.273.

³⁴ Bu xalqlarning, jumladan, qirg‘iz yozuv madaniyati V asrdayoq shakllangan bo‘lsa-da IX-XIX asrlar davomida qadimgi qirg‘iz yozuv madaniyati bilan hozirgi qirg‘iz yozuv madaniyati orasida ancha uzilish sodir bo‘ldi. Xuddi mana shu hodisa, shunigdek V-IX asr qadimgi turkiy yodgorliklarda lab va jarangli-jarangsizlik garmoniyalarning juda zaifligi, hozirgi qirg‘iz tilida uning rivojlanganligi uyg‘unlashishning bu turlari mana shu davrda og‘zaki nutqda rivojlanganligidan dalolat beradi.

garmoniyalari keyingi hodisa va tilda analogiya qonuni ta'sirida vujudga kelib, IX-XIX asrlarda shakllangan degan farzni haqiqatga yaqin ekanligini tasdiqlaydi.

Endi hozirgi o'zbek tilining singarmonizmga munosabati ustida to'xtalib o'tamiz. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qat'iy qonuniyat sifatida bo'lmasa ham, uning qoldiqlari va ta'siri – ayniqsa, tarixiy so'z yasah tizimida³⁵ juda kuchli. Shevalarda, jonli nutqda bu hodisa shu darajada tarqalganki, XIX asrdan beri o'zbek shevalari singarmonizmli va singarmonizmsiz kabi ikki turga ajratib tasnif etiladi. Adabiy nutqda ham /⁺a/, /⁺i/, /⁺o/, /⁺u/ unlilari ikkitadan nutqiy variantga – orqa qator (qattiq) /a/, /i/, /o/, /u/ va old qator (yumshoq) /a'/, /i'/, /o'/, /u'/ – ega. Bular hodisalar tilimiz bo'yicha maktab darsliklaridan boshlab ilmiy tadqiqotlargacha batafsil izohlangan. Unlilarning qattiq/yumshoq variantlarning qo'llanilishi so'z tarkibiga (o'zak/negizda) qattiq yoki yumshoq undoshlarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Shuning uchun tilimizda singarmonizm qat'iy qonuniyat sifatida mavjud bo'lmasa ham, u tilimiz uchun mutlaqo xos emas deb hukm chiqarish mutlaqo noto'g'ri: tilimiz, to'liq nazariniyati tarafdorlari talqiniga ko'ra, unlilarning eng qadimgi davrlar uchun xos bo'lgan xususiyatini – undoshlar tabiatining unlining qattiqlik/yumshoqligini belgilanishini – o'zida saqlab kela olgan. Tabiiyki, buning asosiy sabablaridan biri boshqa turkiy tillarda farqlanmaydigan undoshlardagi qattiqlik~yumshoqlik fonologik ziddiyatining tilimizda qisman saqlanganligidir. Shuning uchun biz tilimiz tarixi haqida gapirar ekanmiz, "o'zbek tili singarmonizm hodisasini yo'qotgan" deb aytishimiz unchalik to'g'ri emas. Biz bemalol: "Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari undoshlarning qattiqlik-yumshoqligi unlining qatorini belgilaydigan eng qadimiy turkiy lisoniy xususiyat saqlangan shevalar asosida belgilangan,"- deb ayta olamiz. Shu bilan tilimizning boshqa turkiy tillar silsilasida:

- 1) indifferent unlilarga ega ekanligi,
- 2) /q~/k/, /gh~/g/, /x~/h/, /a^o~/a/ fonologik ziddiyatliklarga molikligi,
- 3) singarmonizmning qat'iy adabiy me'yor bo'lmaganligi

kabi barcha xususiyatlari o'zining to'liq sharhini topgan bo'ladi – fonetik tizimda tilimiz eng qadimgi davrda amalda bo'lgan qonuniyatlarni barcha boshqa turkiy qillardan ko'ra ko'proq va yorqinroq saqlab qolgan.

Musatahkamlash savol va tophiriqlari

1. Singarmonizm fonetik hodisalarining qaysi turiga va ko'rinishiga mansub?
2. Singarmonizm assimillatsiyadan nima bilan farqlanadi?
3. Singarmonizm turkiy tillar tizimida qanday o'rin egallaydi?
4. Singarmonizm so'f fonetik hodisami yoki morfologiyaga ham aloqadormi? Fikringizni asoslang.
5. Singarmonizmli tillarda fonemalar tarkibi qaysi mavqe bilan belgilanadi?
6. Turkiy tillar uchun affaiksall morfemalardagi unlilarda qat'iy, o'zgarmas fonologik belgi qaysi?
7. Unlilar garmoniyasi turlari va har bir tur mohiyatini bayon qiling.
8. Undoshlar garmoniyasi turlari va har bir tur mohiyatini bayon qiling.
9. Singarmonizm barcha turkiy tillarda bir xil darajada tarqalganmi?
10. Qaysi turkiy tillarda bu xususiyat kuchli va qay birlarida kuchsiz tarqalgan?
11. Singarmonizm turlaridan qay biri eng qadimiy va umumiy? Fikringizni asoslang.
12. O'zbek tilining singarmonizmga munosabati qanday?

12-13-ma'ruza. Turkiy tillarda tovush mos kelishlari va almashinuvlari.

Reja.

1. Tovushlarning mos kelishi va almashinuvi haqida
2. Unlilarda tovush mos kelishlari va almashinuvlari.
3. Undoshlarda tovush mos kelishlari va almashinuvlari.

³⁵ Qar. Гулямов А. Проблемы исторического словообразования узбекского языка 1. Аффиксация. Часть 1. Словообразующие аффиксы имен. Автор. диссер. докт. филол. наук. – М.: 1955; Нейматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи. 1992. В. 45-60.

4. Yakun: Turkiy tovush mos kelishlari va almashinuvlari o'zbek tili shevalarida.

Adabiyotlar:/11;15;19;23;28;29 /

Tayanch tushunchalar: Tovushlarning mos kelishi, tovushlarning almashinuvi, tovushlarning mos kelishining tovushlarning almashinuviga o'tishi, old qator va orqa qator unlilar almashinuvi, keng va tor unlilar almashinuvi, lablangam va labkanmagan unlilar almashinuvi, undoshlar mos kelishi va almashinuvi, undoshlar mos kelishi va almashinuvining tipik ko'rinishlari, o'zbek shevalarida tovush almashinuvlari va turkiy tillar QTF materiallari munosabati.

O'quv fanimizning kirish qismida aytib o'tganimdek, biz QTM va QTTning tadqiq tamoyillariga izchil amal qilgan holda tovush mos kelishlari va tovushlar almashinuvini qat'iy farqlashga harakat qilamiz. Birinchi tushuncha ostida biz u yoki bu til (davr tili)da ma'lum bir mavqedagi tovushga qat'iy ravishda boshqa bir tilda qanday tovush mos kelishini tushunsak, tovushlar almashinuvi ostida onsa-sonda, qat'iy bir qonuniyat sifatida voqelanmaydigan almashinuvlarni nazarda tutamiz. Tovush mos kelishlarini biz /:/ belgisi bilan, almashinuvlarni esa /~/ belgisi bilan shartli ravishda ajratamiz³⁶. Shuning uchun biz:

1) *o'zb/a^o* : *:um/a/* deb berar ekanmiz, buni «O'zbek tilidagi turkiy so'zlardagi yarimlablangan /a^o/ tovushiga hamisha umumturkiy qattiq /a/ tovushi mos keladi», deb tushunish lozim;

2) *um /a/ ~ o'zb. /ao/ / /a/* deb ko'rsatganimizda buni «umumturkiy /a/ tovushi o'zbek tilida yarimlablangan /a^o/ yoki /a/ bilan almashiishi, o'tishi mumkin», deb tushunish lozim.

Shu keltirilgan misolning o'ziyoq tovush mos kelishlari va tovush almashinuvlari bir-biri bilan qorishib ketadigan, bir-biridan farqlanishi qiyin bo'lgan hodisa ekanligidan dalolat berib turibdi. Chunki, *o'zb/a^o*ning *um/a/ga* mos kelishi izchil, barqaror, qat'iy qonuniyat bo'lsa, aks hodisa – *um/a*ning o'zbek tiliga /a^o/ ga o'tishi, mos kelishi bunday qat'iylikka ega emas. *um/a/ga* tilimizda /a^o/ ham, /a/ ham muvofiq kelishi mumkin. Chunonchi, *umqara - o'zb. qa^ora*; bir o'rinda *um/a/ga o'zb. /a^o/* mos kelsa, ikkinchi o'rinda /a/ mos kelmoqda. Lekin masalaning chigalligi bu bilan cheklanmaydi – tom ma'noda biz bu yerda, yuqoridagi misolda mohiyatan har xil hodisalar bilan:

1) *o'zb./a^o*ning umumturkiy tovushlarga mos kelishi;

2) *um/a*ning o'zbek tilida qanday tovushlarga o'tishi, mos kelishi

hodisalarini ko'rmoqdamiz. Lekin bir til uchun tovush mos kelishi bo'lgan ayni bir hodisa boshqa bir til uchun tovush almashinuvi mavqeida bo'ladi. Chunonchi, birinchi bo'g'inda *um/a/ : chuv,yoq./i/* mos kelishi *um/a/* uchun qat'iy qonun *umtana – cuvtina – “buzoq,tana”*. Lekin shu hodisaning o'zi boshqa tillar va yodgorliklarda tovush almashinuvi – noqat'iy, onda-sonada uchrab turadigan hodisa sifatida voqelanadi. Buning asosiy sababi shundaki, turkiy tillarning bir-biri bilan yaqin aloqalari, har xil urug, qabila, elatlarning o'zaro yaqin aloqalar asosida o'zaro aralashuvi natijasida har xil elatlar bir-biri bilan aralashib ketgan va lisoniy hodisalar ham dastlab aralashib, keyinchalik fonetik variantlar ixtisoslashib (har biri o'ziga xos ma'no kashf etib), yoki sheva xususiyati bo'lib) saqlanib qolgan. Chunonchi, anlautda qarluq tillari uchun xos bo'lgan /y/ tovushi qipchoq tillarida izchil ravishda affrikat /j/ga o'tadi va o'g'uz tillar guruhida tor unlilardan oldin hamisha, ba'zan keng unlilardan oldin ham tushib qoladi. Bu qarluq ~qipchoq ~ o'g'uz guruh tillari uchun ancha qat'iy tovush mos kelishdir: *o'zb. yil : qoz.jil azer.il ; o'zb,yosh : qoz.jas : tur.yas*. Lekin o'zbek tilida *yung* so'zi bilan yonma-yon *jun* so'zi ham deyarli shu ma'noda qo'llanilmoqda. Yana bir misol: *qoz. jilan ~ tur.ilan*. Tovush mos kelish qonuniga binoan biz o'zbek tilida *yilon* shaklini kutishimiz kerak edi. Tilimizda *ilon*, ya'ni o'g'uzcha shakl qo'llaniladi. Eski yodgorlikkarimizda keng qo'llanilgan *yilon* o'zbekona shakli o'g'uzcha *ilon* bilan siqib chiqarilgan. Bunday tovush mos kelishlari va almashinuvlarining o'zaro chatishib kelishini har bir h o l a t va h o d i s a da ko'rish mumkin. Lekin – juda ko'p hollarda buni aniqlash juda qiyin va munozarali bo'lishiga qaramay – ayni bir hodisaning qaysi tillar orasida tovush mos kelishi, qaysi tilda tovush almashinuvi

³⁶ Shuni ta'kidlash joizki, juda ko'p hollarda, va hatto juda jiddiy va mu'tabar tadqiqotlarda bunday ikki tushuncha maxsus farqlanmaydi va bir atama bilan nomlanib ketiladi.

mavqeida ekanligini bilish muayyan til va unda sozlovchilarining tarixiy etnik tarkibini, uning boshqa turkiy elatlar bilan aloqalarini o'rginishda muhim ahamiyat kashf etishini unutmazlik kerak. Mana shularni nazarda tutgan holda tovush mos kelishlari va almashinuvlarini birgalikda ko'rishga majburiy.

Dastlab, unlilar tizimida ayrim turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tili va shevalarida keng uchraydigan tovush almashinuvlari va mos kelishlari bilan tanishib o'tamiz.

1. *um./a/ : chuv.,yoq.tuv. /i/*. Mohiyatan keng va tor unlilarning mos kelishi bolgan bu hodisa chuvash,yoqut, tuva tillari uchun umumturkiy tovushlarga nisbatan tovush mos kelishidir. Lekin bu qonuniyat boshqa tillar, jumladan, o'zbek tili, shevalari va yodgorliklarda tovush almashinuvi sifatida juda ko'p uchraydi. Faqat Mahmud Koshg'ariyning o'zigina bunday almashinuvga o'nlab misollar beradi: *qarg'iy ~ qirg'iy* (qush, lochining bir turi), *yaramaq ~ yiramaq* - "*yiroqlashmoq, uzoqlahmoq*". Qiyos.: *o'zb. yig'och ~ yog'och ~ og'och*; Bu almashinuv tilimizdagi qo'shimchalar tarkibiga ham keng uchraydi: *o'tqazmoq/o'tqizmoq; bitkazmoq/bitkizmoq; yetkazmoq/yetkizmoq*; Mahmud Koshg'ariy o'tgan zamon I shaxs birlik son shakli adabiy tilda va ko'pchilik shevalarda *bardim* ko'rinishiga ega bo'lsa-da, ayrim qabila va urug nutqida *bardam* va *bardum* shakllariga ham ega ekanligini aytib o'tgan.

Keng va tor unlilarning o'zaro almashinuvini yana *turkbozmaq o'zb.buzmoq, turk.jolmaq ~ o'zb.yulmoq, tur.chimma'k ~ qir.chom* - "*cho'milmoq*" kabilarda ko'rish mumkin.

Shuni ham alohida uqtirib o'tish kerakki, *o'zb./i/* tovushiga totor va boshqird tillarida o'rta keng */e/* va, aksincha, o'rta keng *o'zb./e/* tovushiga tor *tot/i/* mos keladi, ya'ni *o'zb./i/ : tot./e/* va *o'zb./e/ : tot./i/* - *o'zb./it/ : tot.et, tot./it/ : o'zb./et/, o'zb./men/ : tot./min/, tot./men/ : o'zb./min/*.

2. Orqa qator (qattiq) ~ old qator (yumshoq) unlilar almashinuvi :

/a/ ~ /a'/ - o'zb.soch ~ bosh.sa's; turk. yash ~ qir.ja'sh; o'zboz ~ tot.a'z;

/o/ ~ /o'/ - yoq.tox ~ o'zb.to'k ~ turk.do'k; tot.chor ~ bosh.so'r - 'sarjush' (qiyos. o'zb.sho'rva);

/i/ ~ /i' - yoq.bis ~ tur./bi'ch/; turk.i't ~ tuv.it; yoq.til ~ tur.di'l;

/u/ ~ /u' - turk.jung ~ tur.ju'n; turk.buq ~ yoq.bu'k - "buqmoq, yahirinmoq".

3. Lablanmagan ~ lablangan unlilar almashinuvi

/a/,/a'/ ~ /o/,/o'/ - turk. ma'ng ~ tot.mo'ng - 'xol, meng', turk.o't ~ tuv. a't - "kuylamoq, sayramoq";

/i/,/i'/ ~ /u/,/u'/ - nog'.pit ~ o'zb.but, qaraq.miz ~ o'zb.muz, o'zb.bu ~ ozar.bi, turk.bit ~ olt.but - "bitmoq, butmoq,unmoq, o'smoq".

Yuqorida keltirilgan uch turdagi unli almashinuvlaridan xulosa qila olamizki, turkiy tillarda o'zaklarda old qator va orqa qator, keng va tor, lablangan va lablanmagan unlilar bimalol o'zaro almashina oladi. Buning sababi turkiy tillarda o'zakdagi unlining azalan qat'iy, barqaror emasligi bo'lishi mumkin, xolos. Bu oldingi ma'ruzalarimizda bayon qilingan fikrni - azal-azalda turkiy morfemalarda asosiy fonologik yukni undoshlar o'ziga olganligi, unlilar "yelimlovchi vosita", morfemalarni so'z tarkibida bir-biri bilan bog'lovchi yordamchi bo'lganligidan guohlik berishi mumkin.

Endi undoshlar mos kelishlari va almashinuvlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Undoshlarning mos kelishi, almashinuvida unlilarda bo'lgani kabi rang-baranglikni ko'rish mumkin emas; unlilar tizimida istagan turdagi unli, masalan, lablanmagan, tor, qattiq */i/* unga mutlaqo zid bo'lgan labllangan, keng, yumshoq */o/* bilan o'zak tarkibida almashinishga ucharasa, undoshlarda bunday holni uchratmaymiz - undosh almashinuvlari ancha qat'iy fonetik qonuniyatlar bilan boshqariladi³⁷. Chunonchi, qarluq tillar anlautidagi jarangsiz */t/, /k/ : o'g'uz* tillarida jarangli */d/, /g/*, yoki *um/s/ : bosh./h/*, anlautdagi *o'zb./y/:qoz/j/*. Bunday mos kelishlarning har biri qat'iy fonetik qonuniyatlar bilan boshqariladi. Turkiy tillarning undosh almashinuvlari va mos kelishlarida istagan bir undoshning boshqa turdagi istagan bir undosh

³⁷ Jumladan, fonetik tizimi boshqa turkiy tillarning xususiyatlaridan ancha farq qiluvchi Volgabo'yi turkiyzabon mintaqasi tillaridagi (bir tomondan, chuvash tili, ikkinchi tomondan, totor va boshqird tillari) o'zgarishlar ma'lum qonuniyatlar va umumiyliklar bilan izohlanadi. Qar.: Сравнительная грамматика... Фонетика В.106-170.

bilan almashina olishini misollar bilan dalillash mumkin emas – turkiy morfemalarning undoshlari ancha barqaror va o'zgarish-u almashinish-u-u mos kelishlari sabab~oqibat munosbatlari bilan belgilangan.

Turkiy tillarda undoshlarning mos kelishlari va almashinuvlari xilma-xil bo'lib, ulardan ancha keng tarqalganlari (jumladan, o'zbek tilidagi ayrim hodisalarni sharhlashga ham xizmat qila oladiganlari) sifatida quyidagi turlarni ko'rsatish mumkin:

1. *chuv/r/ : um/z/*. Tilshunoslikda rotatsizm ('r'lashish) deb ataladigan bu hodisa turkiyshunoslarni ko'p vaqtdan beri qiziqtiradi. Bu tovush mos kelishi *chuvash* tili uchun qat'iy qonuniyat desak, xato bo'lmaydi *um/z/* bu tilda ayrim mustasnolardan tashqari hamisha /r/ tovushiga o'tadi: *o'zb.qiz : chuv.xir*. Bunday hodisa tilimizda tovush almashinishi sifatida *o'zb.o'karmoq ~ o'tkazmoq, bitkarmoq ~ bitkazmoq, yozarman ~ yozmazman*(qoyos.: xorazm shevai va turkman tilida: *gezma'ra'm bog'i I'ra'am*) kabi ko'rinishlarda uchraydi. Tilimizda ba'zan fonetik so'z yasaliishi deb talqin eiladigan *ko'z ~ ko'r-, semiz ~ semir-* kabilarda ham shu qadimgi tovush almashinuvi qoldiqlaridir. Mahhud Koshg'ariy ham *sarg'azmaq ~ sarg'armaq ~ sarg'aymaq* kabi shakllarni qayd etib o'tgan. Shu rotatsizm ta'sirida tilimizda ot va sifatlardan o'timsiz fe'l yasovchi qo'shimcha *-(a)y* va *-(a)r* ko'rinishlarida (*-adh- : -ay*, hamda *-adh- : -ar-*) qo'llaniladi *qoraymoq, oqarmoq, qizarmoq, sarg'armoq, sarg'aymoq*.

2. Anlautda */y/ : /j/ : /jh/* Turkiyshunoslikning munozarali masalalaridan biri bo'lib, *um./y/*ning qipchoq guruh tillariga affrikata */j/* ga qitg'iz tilida sig'aluvchi */jh/* ga mos kelishi, bu tovushning tuva, xakas tillarida jarangsiz affrikata */ch/*, bir qator boshqa tillarda */sh/*, */s/* tovushlarga mos kelishi juda ko'p bahslarga sabab bo'lgan. Qarluq tillari uchun me'yoriy bo'lgan anlautdagi */y/* qipchoq tillarining ko'pchiligida muntazam ravishda */j/da* o'tadi: *o'zb. yo'q : qoz.joq, o'zb yog' : qoz. jau^d*. Bu mos kelish ham tilimizda *yung ~ jun, yo'nalmog ~ jo'namog, yim/im ~ jim, yormog ~ jar* kabilarda tovush almashinuvi sifatida saqlangan.

3. Anlautda */t/ : /d/*, */k/ : /g/*. Bu mos kelish ham, bir tomondan, o'guz, ikkinchi tomondan, boshqa turkiy tillar (jumladan, qarluq va qirg'iz guruhlari) orasidadir: *o'zb. tosh : tur. dash, o'zb. kelmog : turk. gelmek*. Bu hodisa o'zbek xalq shevalarida juda keng tarqalgan.

4. Ahlautda */m/ : /b/*. Bu mos kelish ham asosan o'g'uz va boshqa tillar orasidadir: *o'zb. men : tur. ben, qoz. ming : turk. bin, qir. mung : turk. bung*. Bu hodisa tilimizda *bunday ~ munday, burun ~ murun* (Muruntau) kabi holatlarda tovush almashinuvi shaklida saqlangan.

5. Auslautda *um./s/ : /sh/* qipchoq guruh tillarining xususiyati sanaladi: *bash : qoz. bes, bash : qoz. bas*. O'zbek shevalarida ham keng tarqalgan: *supurgi ~ shipirgi*.

Anlautda *um./s/ : /h/* boshqird tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, boshqa turkiy tillarda juda kam tarqalgandir. Bu mos kelish boshqird bili uchun me'yordir: *o'zb. sigir : bosh. hiyir, o'zb. sut : bosh. ho't, o'zb. siz : bosh. hidh*.

Yoqut tilida *um./s/ : /h/* yana ham rivojlanib */h/*ning to'liq eliziyasiga olib keldi: *o'zb. sen → bosh. hen —yoq. en, o'zb. semiz : bosh. himiz : yoq. emis, o'zb. suv : yoq. u., o'zb. sut : yoq. ut*.

Anlaut va auslautda *um./s/ : /ch/* ham ko'p uchraydi: *o'zb. sach ~ chach*,

6. Inlaut va auslautda */y/ : /dh/ : /z/ : /d/ : /t/ : /r/* : *o'zb. oyoq : tur. ayak : es. o'zb. adhaq : yoq. atax ; chuv. ura*; Bu mos kelish turkiy tillar uchun o'ziga xos xususiyat bo'lib, XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariy */y/ : /dh/ : /z/ : /d/* almashinuvini o'z davridagi turkiy til va shevalarni tasnif etish asoslaridan biri sifatida tanlagan edi. Keyin shu belgining o'zi Vasiliy Radlov, Aleksandr Samoylovich, Sergey Malov va, nihoyat Hikolay Baskakov tasniflarida ham takrorlandi. O'zbek tili tarixida */y/ : /dh/ : /z/ : /d/* ko'rinishlarida uchraydi. Shu belgi asosida X-XII asr eski turkiy tili (qoraxoniylar davri adabiy tili) *dh-lovchi* deb ataladi *o'zb. oyoq : es. tur. adhaq. /d/lanish va /z/lanish* qoldiqlari hozirgi tilimizda ham uchraydi. Chunonchi: *quduq ~ quyuq* (qiyis. *o'zb. quyi va Kuyukmazor*), *siymoq ~ sizmoq; tizgin* (← *tiy + gin*), *odoq* (*cho'lning odog'i*) ← *oyod* (qiyos.: *boshdan oyoq*, lekin *cho'lning boshi va cho'lning odog'i*).

Turkiy tillarning undoshlarida tovush mos kelishlari va almashinuvlari behad katta rang-baranglikka ega bo'lib, biz bu yerda ularning ayrimlarini va faqat qat'iy bir maqsadni – bir holatda (munosabatda) tovush mos kelishi bo'lgan hodisa boshqa holatda – jumladan, o'zbek tilining ichida – tovush almashinuvi mavqeida bo'ladiganlarining ayrimlarini sanab o'tdik.

O'zbek tili zaxirasida, xususan, uning shevalarida turkiy tilarning undoshlar tizimida uchraydigan deyarli barcha tovush mos kelishlarini tovushlar almashinuvi sifatida u yoki bu darajada uchratish mumkin. Buning asosiy sababi o'zbek xalqi va tilining shakllanish tarixi behad murakkabligi, uzoq-uzoq davrlarga mansubligidir. Masalan, muayyan turkiy tilning o'ziga xos xususiyati bo'lgan tovush mos kelish holatlarining o'zbek tili va shevalarida tovush almashinuvi sifatida ozmi-ko'pmi uchrab turishi hozir o'zbek xalqi va tilidan ancha uzoq turgan shu turkiy elat etnik asosi bir zamonlar o'zbek xalqi uchun mansha bo'lgan turkiy qavmlar bilan ma'lum robitalarda, munosabatlarda turganligining lisoniy darakchisidir. Bu esa hozirgi tilimizning turkiy asosi ko'z ilg'amas uzoq tarixiy davrlarga – hali turkiy xalqlar bir-biridan bunchalik uzoqlashib ketmagan, Ovrupoviy Bolqondan Xitoy dengizigacha cho'zilgan 20.000 km masofani o'z ichiga oladigan hudud bo'ylab tarqab ketmagan davlarga mansubligining guvohidir.

O'zbek shevashunoslari – jumladan, Biktor Reshetovning 1955-yilda nashr etilgan «Узбекский язык. Часть 1. Фонетика», Reshetov va Shonazar Shoabdurahmonovlarning “O'zbek dialektologiyasi” asarlarida, Fattoh Abdullayevning Xorazm, Sobirjon Ibrohimovning Farg'ona, A'zam Shermatovning Qashqadaryo, Mustaqim Mirzayevning Buxoro va Navoiy, Xudoyberdi Doniyorovning Samarqand hududi shevalarida tovush almashinuvlari bo'yicha bergan ma'lumotlarini turkiy tillar QTF bo'yicha Vasiliy Radlov, Sergey Malov, Vasiliy Bogoroditskiy, Nikolay Dmitriyev, Marti Resenen, Aleksandr Shcherbak, Edgem Tenishev kabi olimlarning umumlashtiruvchi ishlarida berilgan material bilan qiyoslasak, tilimizning faqat, Evgeniy Polivanov ta'kidlagandek, O'rta Osiyo turkiy tillarininggima emas, balki butun turkiy tillarning “jajji xaritasi” ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida arealogik tadqiqotlar rivojlanib tilimiz va shevalarimizda mavjud bo'lgan har bir tovush almashinuvining turkiy olamda tarqalish izoglossalari tuzilib, tarqalish areali aniq belgilangach, biz o'z ona tilimiz asos-negizlari, tarixi haqida yana juda ko'p ma'lumotlarni olishimiz, lisoniy hodisalar asosida xalqimiz va tilimizning behad uzoq tariixy manshalarida nazar solihimiz mumkin.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tovushlarning mos kelishi deganda nimani tushunasiz?
2. Tovushlarning almashinishi deganda nimani tushunasiz?
3. Tovushlarning mos kelishi va tovushlaning almashishi o'zaro qanday munosabatda?
4. Turkiy o'zak va qoshimchalarda old qator va orqa qator unlilarining almashinishiga o'zbek shevalaridan misollar keltiring.
5. Turkiy o'zak va qoshimchalarda keng va tor unlilarining almashinishiga o'zbek shevalaridan misollar keltiring.
6. Turkiy o'zak va qoshimchalarda lablangan va lablanmagan unlilarining almashinishiga o'zbek shevalaridan misollar keltiring.
7. Turkiy o'zak va qoshimchalarda /r/ ~: /z/ undoshlarining almashinishiga o'zbek shevalaridan misollar keltiring.
8. Turkiy o'zak va qoshimchalarda /y/ ~ /j/ ~ /jh/ (va boshqa turlariga) undoshlarining almashinishiga o'zbek shevalaridan misollar keltiring.
9. O'zbek tili shvalaidagi tovujh almashinuvlari turliyl tillarda tovushlarning mos kelishi va almahinihi silisisida qanday o'rin egallaydi?

14-Ma'ruza. Turkiy tillar morfologiyasi taraqqiyotining asosiy yo'malishlari.

Reja:

1. Kirish. Turkiy tillar morfologiik tizimining ustuvorligi haqida.
2. Turkiy tillar morfologiyasiga fonetiki tizim ta'siri.
3. Turkiy tillar morfologik tizimi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
4. Ixtisoslash.
5. Soddalanish
6. Yakun.

Adabiyotlar:/ 9;10;15;21;22;24;/

Tayanch tushunchalar: Forma yasallashining barqarorligi, affiksall morfemalarning singarmonistik variantlari, affiksall morfemalarning tarixiy fonetik variantlari, affiksall morfemalarning tarixiy morfologik variantlari, turkiy morfologik tizimning asosiy taraqqiyot yoʻnalishlari, soddalanish, sintetik shakl vazifasining analitik shakllarda muayyanlashishi, analitik shaklning sintetikka aylanishishi.

Oʻquv fanimizning boshida aytib oʻtganimizdek, turkiy tillar sathlarida tarixiy oʻzgaruvchilik masalasida bu oʻzgarishning miqdoriy kuchi nuqtayi nazaridan quyidagi darajalanish qatorini va sathning barqarorlikdan uzgaruvchilikka qarab boruvchi yoʻnalishini koʻrishimiz mumkin:

sintaksis→morfologiya→fonetika→leksika

Demak, turkiy tillar morfologiyasi oʻzgarishlarga sintaksisdan koʻra koʻproq va fonetikadan kamroq uchragan.

Turkiy tillarning morfologik tizimi umuman olganda bir-biriga ancha yaqin. Turkiy morfologik tizimda dunyoning boshqa tillari oilasida koʻrishimiz mumkin boʻlgan keskin-keskin tafovutlarni koʻrish mumkin emas. Chunonchi, oriy tillarida, masalan, bir kelishik karegoriyasi va shakllarini olib koʻradigan boʻlsak, rus tilida ular 6 shaklga ega, tojik tilida atigi ikki kelishik shakli bor, nemis tilida ular toʻrtta, ingliz tilida kelishik shaklining borligi umuman hozirgacha fanda meammo boʻlib kelmoqda; *of* yordamchi soʻzi vositasida ikki otning oʻzaro bogʻlanishini kelishik deb sanash mumkinmi, yoʻqmi, fanimizda munozarali. Sof morfologik nuqtayi nazaridan, albatta, *a book of father* birikmasida f o r m a l farq yoʻq. Turkiy tillarning morfologik tizimida – xoh affiksall derivatsiya (soʻz yasallishi), xoh forma yasallishi boʻlsin, bunday keskin farqlarni koʻra olmaymiz. Morfologik tizimi boshqa tillardan ancha koʻp farq qiladigan yoqut va chuvash tillarida ham bu farqlar sof morfologik emas; ularning asosiy koʻpchiligi bu tillar fonetikasining boshqa turkiy tillar fonetikasidan ancha farqi, ikkinchidan, ilmiy talqinlarning xilma-xilligi bilan bogʻlangan. Chunonchi, oʻzbek tilshunosligida, masalan, *biz-la, kitob-la* (*Siz-la keldi. ~ Siz bilan keldi*), *sendek, odamdek* kabi shakllar kelishik shakli sanalmaydi, lekin yoqut tilshunosligida bu shakl alohida kelishik deb (albatta, tamoman beasos emas) talqin etiladi³⁸. Turkiy tillar ichida boshqalardan ancha uzoqlashgan va turkiy tillar bilan genealogik aloqadorligini asoslash Otto Boʻtling tomonidan oʻtgan asrning boshlarida maxsus ulkan asarni talab qilgan hozirgi yoqut tili kelishiklar tizimini oʻzbek tili bilan qiyoslasak, bunga toʻla amin boʻlishimiz mumkin:

Oʻzbek, chuvah, yoqut tilida kelishik qoshimchalari

Oʻzbek tilida	Chuvash tilida	Yoqut tilida
Bosh kelishik -	-	-
Qaratqich kel. – ning.- ing	n, -in,en	– ning.-ing
Tushum kel. –ni, -i,	-a,-i, -ne	i, -ni
Joʻnalish kel. – ga	ne	ga
Oʻrin-payt kel. –da\ta	-da\ra\cha ran,-tan	-na\no
Chiqish kel. - dan		tan

Leкин yoqut tilida kelishik qoshimchalari 32 tagacha har xil fonetik variantlarda ega boʻlishi mumkin.

Turkiy tillar morfologik tizimining ustuvorligi, ehtimol, bu tillarning bir-biridan batamom ajralib ketganligiga tarix uchun nisbatan uncha katta boʻlmagan davr oʻtganligi sabab boʻlishi mumkin; million-u milliard yillik tarixni oʻz ichiga oladigan insoniyat tarixida 5.000-10.000 yil juda qisqa davrni tashkil qiladi; maʼlumki, taxminan eramizdan oldingi II-I-asrlarda (demak qaiyb ikki ming yil avval) turkiy xalqlar hun imperiyasi doirasida birga edilar. Ularning bir-biridan keskin ajralishi 1X asrdan keyingi davrga mansubdir. Shuning uchun bu tillarning morfologik tizimida umumiylik juda koʻp.

Turkiy tillarning morfologik tizimidagi oʻzgarish va farqlar juda koʻp hollarda fonetik tizimning morfemalarga taʼsiri bilan belgilanadi – singarmonizm affiksall morfemalarning

³⁸ Qar. Убрятова Е.И. Якутский язык. В кн. Языки народов СССР. В 5 томах. Т.11. М.: Наука. 1966. С. 409

shakliga keskin o'zgartirib yuboradi. Sizngarmonizm kuchli rivojlangan turkiy tillarda (chunonchi yoqut, qirg'iz tillarida) unlilar va undoshlar garmoniyasining ta'siri natijasida qo'shimchalar 4 tadan 16, hatto 32 fonetik singarmonistik variantga ega bo'lishi mumkin. Qo'shimchalarning **fonetik singarmonistik variantlari** deganda affiksalar morfema fonetik shaklining o'zakdagi unli va undoshlarning tabiatiga ko'ra unga moslashishi bilan bog'liq bo'lgan foneik shakllar tushuniladi. Chunonchi quyidagi ikki shaklni qiyoslaylik: *o'zb.turklarning ~ qir.to'rkto'rdun*. Bu zohiran bir-biridan ancha farq qiluvchi ikki shakl orasida mutlaqo morfologik farq yo'q: qig'izcha shakldagi *-to'r* turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan *-lar* ko'plik qo'shimchasining, *-dun* esa *-ning* qaratqich kelishiki qo'shimchasining singarmonistik variantidir.

Turkiy tillar morfologik tizimida o'zgaish va taraqqiyotni belgilovchi omillar sifatida quyodagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) turli turkiy tillarda morfemalarning har xil tarixiy-fonetik variantlaridan birining u yoki bu tilda ko'proq iste'molda bo'lishi,
- 2) turli turkiy tillarda morfemalarning har xil tarixiy-morfologik variantlaridan birining u yoki bu tilda ko'proq iste'molda bo'lishi,
- 3) soddalanish va analitik qurilmalarning sintetik shakllarga o'tishi.

Bulardan birinchi va ikkinchi omillar i x t i s o s l a s h i s h – variantlardan birining me'yorlashishi yoki ulardan har birining o'ziga xos ma'no va vazifa kashf etishi bilan bog'liq bo'lsa, uchinchi tarixan bo'linuvchan qismlardan (morfemalar birikuvlaridan) yaxlit qo'shimchalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Endi shular ustida to'xtalib o'tamiz.

Turkiy tillar morfologik tizimida farqlarni va tarixiy taraqqiyotni belgilovchi muhim omillardan biri turli tillarda morfemalarning har xil tarixiy-fonetik variantlarining u yoki bu tilda ko'proq iste'molda bo'lishi bilan belgilanadi. Affiksalar **morfemalarning tarixiy-fonetik variantlari** deganda tovushlar almashuvi va mos kelishlari asosida ayni bir qo'shimchaning turli xildagi fonetik variantlarining u yoki bu tilda ixtisoslashib, me'yor holida qo'llanilishi tushuniladi. Chunonchi, turkiy tillarda auslautdagi */ng/* tovushi */n/* bilan ham, */g/* bilan ham almashinishi mumkin. Mana shu hodisa ta'sirida qaratqich kelishigi shakli ham *-ning* hamda *-nin* shakllariga ega bo'lishi mumkin. Shulardam *-ning* ko'rinishi o'zbek tilida. *-nin* ko'rinishi, masalan, turk yoki qig'iz tilida me'yorlashgan. Tarixan esa bu bitta qishimchadir.

Aniq o'tgan zamonning 2-shaxs birlik *um.-ding* shakli bir tilda *-din* shaklida, ikkinchi tilda *-digh* shaklida me'yorlashgan. Yoki ismlardan o'timsiz ve'l yasovchi *-(a)dh-qo'chimchasi* tovushlar almashuvi va mos kelishi qonuniyatlariga ko'ra *-adh/-ad/-at/-ay/-ar* kabi shakllarga ega bo'lishi mumkin. Shu shakllardan biri bir turkiy tilda, ikkinchi ko'rinishi boshqa bir turkiy tilda me'yorlashgan. Qiyos.: *ozbyozarman/ yozmasman ~ turk yazarin/ yozmarin*.

Turkiy tillar morfologik tizimida taqqiyot va farqlarni belgilovchi yana bir omil turli tillarda morfemalarning har xil tarixiy-morfologik variantlaridan birining u yoki bu tilda ko'proq iste'molda bo'lishi bilan belgilanadi. Affiksalar **morfemalarning tarixiy-morfologik variantlari** deganda ayni bir grammatik shaklning har xil so'z guruhlariga birikib keladigan qo'shimchalari, yoki ayni bir ma'no-vazifani bajaradigan ikki va undan ortiq shakli tushuniladi. Chunonchi, turkiy kelishiklar olmoshlarda va egalik qo'shimchali otlarda bir turli shaklda (olmosh yoki egalikli, possessiv turlanish) va otlarda boshqa shaklda kelgan³⁹. Mana shunday morfologik variandlardan biri bir turkiy tilda, ikkinchisi boshqa bir turkiy tilda me'yorlashgan. Chunonchi, qaratqich (tushum, o'rin-chiqish) kelishigi egalikli turlanishda *-ning (-ni, -nda)* shaklida, egaliksiz turlanishda esa *-ing (-i, -da)* shaklida kelgan. Bu shakllardan biri bir turkiy tilda (masalan, *-ning* o'zbek tilida), ikkinchisi esa boshqa bir turkiy tilda (masalan, undoshlardan keyin *-in* turk tilida) me'yorlashgan.

³⁹ Bu masala G.F.Blagovaning maxsus monografiyasida muffasal tahlil etilgan. Qar. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. (Юго-восточный регион)– М.: Наука.1982. Yana qar.: Нигматов Х.Г. Рец. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. Журн. Советская тюркология..1984.№2.С.86-89

Shunga monand ravishda turkiy tillarda hozirgi zamon ravishdoshi *-i/-yi* qo'shimchasi bilan ham, *-a* qo'shimchasi bilan ham yasalgan. Mana shu variantlardan biri bir tilda, ikkinchisi ikkinchi tilda meyorlashgan⁴⁰.

Yana bir misol: Turkiy tillarda {/harakat nomi + *chi*/ = ismi foil⁴¹} qolipi bo'lgan. Harakat nomi esa turkiy tillarda *-(=)sh*, *-(=)g'*, *-g'u* kabi tarixiy-morfologik variantlar bilan yasalgan. Shuning uchun ismi foillarni, masalan,

oqutmoq fe'lidan *oqutug'chi*, *oqutquchi*, *oqushchi* shakllarida yasash mumkin bo'lgan. Bu shakllardan biri bir turkiy tilda (masalan, *oqutug'chi* → *o'qituvchi* shakli o'zbek tilida), ikkinchisi boshqa bir turkiy tilda (masalan, hozirgi uyg'ur tilida *oqutquchi* shakli) me'yorlashib, ixtisoslashgan.

Bu hodisa turkiy tillar tarixiy morfologiyasida katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, yana bir misolga murojat qilamiz. Turkiy tillarda kesim tarkibida qo'llaniladigan shaxs/son qo'shimchalaridan 1 sh. ko'plik shakli *-miz* va *-k* ko'rinishlariga ega. Shu ko'rinishlardan biri bir tilda *-k* ko'rinishida (masalan, o'zbek tilida shart mayli va xabar mayli aniq o'tgan zamon shakllarida), boshqa tillarda *-miz* ko'rinishida (masalan, qoraqalpoq tilida) me'yorlashgan.

Turkiy tillar morfologik tizimida soddalanish hodisasi bilan bogliq bo'lgan o'zrinishlar juda muhim ahamiyat kashf etadi. Soddalanish – tarixan bo'linuvchan, hosila bo'lgan hodisaning o'z bo'linuvchaligini yo'qitib, bo'linmas bir butunga aylanishi – natijasida tarixan so'zshakllardan yangi-yangi o'zaklar (chunonchi, *sinmoq* → tarixan o'zak *si-* + o'zlik-majhul nisbat qo'shimchasi *-n*; *baghlamoq* → o'zak *ba-* + ism yasovchi *-gh* qo'shimchasi → *bagh+* fe'l yasovchi *-la-* → *baghlamaq* → *bog'lamoq*), qo'shimchalarning birikishlaridan yangi morfemalar (=chunonchi, o'zbek tilida *-lan-*, *-lash-*, *-lat-*, *-uvchi*, *-chilik* kabi o'nlab so'z yasovchilar⁴²) shakllanadi.

Analitik shakllardan sintetik shakllarning rivojlanishi ham mohiyatan soddalanishning bir ko'rinishi, turidir. Turkiy tillarda bu usul qator yangi shakllarning vujudga kelishida asosiy omil bo'ldi. Jumladan, yuqorida eslatib o'tilgan yoqut tilida ajratiladigan va o'zbek tilshunosligida kelishik sifatida qaralmaydigan kelishiklar tarixan ko'makchilarning affikslarga aylanishi oqibatida shakllangan. Yoki o'zbek tilida keng qo'llaniladigan *boryapti* shakli tarixan *bora* + *yot* + *ib* + *turur* analitik qurilmasidan rivojlangan. Shunga oxshash formalarni boshqa turkiy tillarda ham ko'rish mumkin. Chunonchi, hozirgi turk tilida hozirgi zamon shaklini yasashga xizmat qilayotgan asosiy qo'shimcha *-yor* affiksi tarixan *-i* ravishdosh qo'shimchasining *yur-* fe'lining hozirgi kelasi zamon shakli *-yurur* bilan soddalanishi asosida shakllangan, ya'ni *yaziyor* → *yazi* + *yur* + *ur*. Buning eng qadimiy ko'rinishini biz Kultegin yodgorligida ko'ramiz: *qtr.o'lu' yuruyur ertig* – *o'layotgan eding*.

Turkiy tillarda zamon shakllarining taraqqiyoti va umumturkiy aniq o'tgan zamonning *-di*, hozirgi zamonning *-r* shakllaridan boshqa barchalarining shakllanishi va rivojlanishi mana shu = analitik shakllarning sintetik shaklga o'tishi asosida rivojlangan. Chunonchi, hozirgi o'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon shakli *yozadi* tarixan *yoz+a+tur+ur*, yani *yozadi* → *yozadur* → *yoza* + *durur* → *yoza turur* → *yoz+a tur* + *ur* analitik shaklidan (qo'shma fe'ldan) rivojlangan. Qirg'iz tilida bu taraqqiyot yana davom etib *jazat*, totor va turk tillarida *yaza* shakliga o'tgan: Bir vaqtlar *yoza turur* qurilmasida yetakchi fe'lining ravishdosh asosini hosil qilishga xizmat qiladigan *-a* qo'shimchasi butun analitik qurilma vazifasini o'ziga mujasamlashtirib, zamon shaklini yasovchi morfema mohiyatini kashf etgan. Hozirgi kunda biz o'zbek, turk, totor, qirg'iz v.b. tillarda kamida ikkita *-a*-omoaffiksini ajratishimiz lozim. Ulardan biri ravishdosh yasovchi qo'shimcha bo'lsa, ikkinchisi fe'l-kesimning xabar (aniqlik) mayli

⁴⁰ Turkiyshunoslikda bu ikki qo'shimchaning tarixan bir bo'lib, tovush almashinishi – keng va tor unlilar almashinishi mahsuli deb qarash ham mavjud.

⁴¹ Ismi foil deb ma'no va vazifa jihatidan hozirgi-kelasi zamon sifatdoshiga juda yaqin turadigan *o'zb.boruvchi*, *keluvchi* kabi so'zlar tushuniladi. Ular odatda shaxs otlari umuniy atamasi bilan yuritiladi, lekin ulardan mohiyatan farqlidir. Qar. Saloyev R. O'zbek tilida ismi foillar. Filol. Fan. nomz. disser. avtoref. Samarqand.1995.

⁴² Bu masala Yormat Tojiyevning o'zbek tilida qo'shma affikslarga bag'ishlangan maxsus doktorlik ishida mufassal tahlil etilgan

hozirgi-kelasi zamon shaklini yasovchi morfemadir. Tarixan, etimologik jihatdan bu ikki qo'shimcha bir manbadan –a- ravishdosh shaklidan rivojlangan, lekin, masalan, o'zb.yoza ko'raman hosilasidagi yoza tarkibida bu –a- faqat ravishdosh yasovchi qo'shimcha bolsa, ko'r-a-man tarkibida –a+turur analitik qurilmasi ma'no va vazifasini o'zida mujassamlashtirgan tamoman yangi bir qo'shimchadir.

Ma'lumki, turkliylar tilla kesim zamonlari sistemasi markazida ikki umumturkiy shakl –-di qo'shimchali o'tgan zamon va -(=)r- qo'shimchali hozirgi (hozirgi-kelasi) zamon shakli turadi. Bu ikki shakl hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiydir. Lekin bu ikki shaklning har biri atrofida hozirgi turkiy tillarda 3 tadan 7-8 tagacha yana yangi shakllar rivojlangan. Umumturkiy o'tgan va hozirgi zamon shakllarining har bir tilda bugun keng qo'llanilayotgan barcha qurshov shakllari mana shu usul – tarixan ravishdosh va sifatdosh shakllari qo'shimchalarining butun boshli bir analitik qurilma “yuk”ini o'ziga olib yangi – zamon paradigmasidan o'rin olishi – bilan hosil bo'lgan. Chunonchi, o'zbek tilida yozib turibman tarkibida turibman dagi –ib = -ib + turur ma'no va vazifasida kelgan. Xuddi shunday Ko'rgan kishi gapirgan. gapidagi gapirgan tarkibidagi –gan = -gan sifatdoshi + turur analitik qurilmasi ma'no va vazifasida.

Yuqorida ko'rib o'tilgan uch turli hodisa juda ko'p hollarda alohida-alohida emas, balki birgalikda ta'sir etib, morfemalarni qiyoslab bo'lmas darajalarda o'zgartirib yuborishi mumkin. Buning yorqin namunalari biri turkiy tillarning deyarli barchasida qo'llaniladigan va birida kelasi zamon, ikkinchisida hozirgi zamon, boshqa birida buyruq-istak mayli shakllarini, juda ko'pchiligida esa (jumladan o'zbek tilida) bir variantda zamon, ikkinchi variantda buyruq-istak mayli shakllarini yasashga xizmat qiladigan -g'ay qo'shimchasidir; o'zbek tilidagi, bir tomondan, boray/borayin ikkinchi tomondan, borgayman shakli ham, turkman tilidagi barin, turk tilidagi varali shakli tarkibida ham tarixan shu qo'shimcha mavjud. Turkiyshunoslikda tilimizda hozir ham qollaniladigan borgayman kabi shaklning taraqqiyoti, tarixiy-fonetik. Tarixiy-morfologik variantlari, o'zgarishlari, soddalanishlari orqali quyidagi qoshimchalar rivojlanganligi qayd etiladi:

-g'ayman ko'rinishidan –ayin/-ayn/a:n/-an/-iyin/-iyn/-i:n/-in:

-g'aymin/ ko'rinishidan -gayim/-ayim/-aym/-a:m/-am/-iyim/-iym/-i:m/im/-⁴³. Bu qo'shimchalarning shakllanishi va rivojlanishiga ham tovush mos kelishlar va almashinuvlari, qoshimchalarning tarixiy-fonetik va morfologik variantlarining ixtisoslashuvi, hamda soddalanish hodisalari birdaniga ta'sir etib, ularni tanib bo'lmas darajada o'zgartirgan.

Turkiy tillar morfologik tizimining asosiy taraqqiyot yo'nalishlari mana shular bilan belgilanadi va muayyan turkiy tillarni o'zaro qiyoslganda ko'riladigan farqlar mana shu qonuniyatlarning ma'lum ko'rinishlarda voqelanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillar morfologik tizimining barqarorligi deganda nimani tushunasiz?
2. Turkiy tillar morfologik tizimining barqarorligi sabablarini nimada ko'rasiz?
3. Turkiy tillar morfologik tizimining o'zgarishlarida qanaqa asosiy omillarni ajratish mumkin?
4. Tarixiy-foneik variant nima?
5. Tarixiy-morfologik variant nima?
6. Singarmonizm morfologiyaga qanday ta'sir etadi?
7. Soddalanish nima?
8. Morfologik ixtisoslashish nima?
9. Tovushlar almashinishi, ixtisoslashish va soddalanish hodisalari alohidalikda ta'sir ko'rsatadimi yoki birgalikdami?

15-ma'ruza. Turkiy tillar leksikasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari

Reja:

⁴³ Qar. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология.. Отв. ред. Э.П. Тенишев. - М.: Наука. 1988. С.335

1. Til leksikasining o'zgaruvchligi. Leksika – xalq tarixi ko'zgusi.
2. Turkiy tillar leksikasida asosiy qatlamlar.
3. Turkiy tillar leksikasini o'rganishda ajratilishi lozim bo'lgan asosiy davrlar.
4. Umumturkiy leksik qatlam haqida.
5. O'zlashma qatlam haqida.
6. Yakun.

Adabiyotlar: 16;20; 27;/

Tayanch tushunchalar: Leksikaning o'zgaruvchanligi, leksikaning rivojlanish manbalari, shaklni saqlab mazmunni o'zgartirish, mazmunni saqlab shaklni o'zgartirish, shakl va mazmunni o'zgartirish, so'z yasash, o'zlashma (olinma) so'z (varvarizm), "Leksika – xalq tarixi ko'zgusi".

Til sathlari ichida eng o'zgaruvchan qatlam, sath leksika ekanligi, uning o'zgaruvchnligini bir odam umri davomida emas, hatto bir avlod (20-30 yil) ham seza olishi haqida o'quv faninig ilk ma'ruzalarida ham aytib o'tgan edik. Buni siz boshqa fanlardan ham bilasiz. Buning boisi shundaki, xalq hayotida – xo'jaligi, turmush tarzi, aloqa va ro'italari, fani va madaniyatida har soatda, har kuni bir yangilik sodir boladi – inson tafakkuri hamma vaqt ijod va bunyodkorlikda. Bu bunyodkorlik, yangilik to so'z shaklini qabul qilib sh a k l l a n t i r i l m a s a, u tekis yerda oqizilgan suvdek tarqalib, yoyilib ketaveradi. So'z - hayotdagi, tafakkurdagi mana shu yangilikni o'zida saqlovchi, uni boshqalarga yetkazishga xizmat qiluvchi va imkon beruvchi "idish", shakl. Shuning uchun tilning leksikasi hamisha o'zgarish va taraqqiyotda bo'ladi. QTTning yosh grammatiklar oqimida o'tgan asrning boshlarida Karl Fossler (1972-1949) tomonidan "Worter und Sachen" ("So'zlar va narsalar") jurnaliga va shu nom bilan ataladigan tilshunoslik maktabiga asos solingan edi. Bu maktabning shiori – narsa hayotga tildagi o'z nomi bilan kirib keladi. Narariy tilshunoslik otasi Vilgelm Gumboldt (1767-1835), yangi komparativistika bunyodkori Germann Paul (1846-1941) "leksika – xalq tarixi ko'zgusi" shiorini o'rta tashladilar: xalqning barcha aloqa va ro'italari o'sha zahotiyoyq uning tilida – leksikasida o'z aksini topadi. Shuning uchun so'zlar tarixi asosida xalqning tarixini bemalol tiklash mumkin. Mana shu omillar til so'z boyligining tez o'zgaruvchanligini talab qiladi.

Til leksikasining boyishi va o'zgarishi, asosan, ikki omil – ichki imkoniyatlar va tashqaridan – so'z olish usuli bilan amalga oshadi. Ichki imkoniytlarga so'zlarning ma'nolarini o'zgartirish va so'z yasalishi, tashqi imkoniyatga esa boshqa tillardan so'z olish va kalkalash (boshqa tillardan olingan tushunchalarning ma'nosini o'z so'zlariga berish, chunonchi, *ostanovka* - *bekat*).

Mana shu metodologik tamoyil tayanib, biz turkiy tillar leksikasini qiyosiy-tarixiy o'rganish asosida har bir xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'lini bemalol tiklay olamiz. Jumladan, turkiy xalqlarning bir-biridan ajralib uzoqlasha borgan tarixini turkiyshunoslar milodning VII-IX asrlarga nisbat berishiadi. Buning moddiy dalillaridan biri, jumladan, shu davrga mansub xitoy tilidan olingan olinmalarning deyarli barcha turkiy tillarda o'zlashganligidir. Odatda, xitoy tilidan olingan deb taxmin etiladigan *tegin/tegit* – "yigit, aslzoda bola", *qaghan* – "xoqon. katta, bosh xon" (*xit.qa* – "katta", *khan* – hukmdor)⁴⁴, xan – "xon", ba'k – "bek. aslzoda" kabi so'zlarning o'zlashma z ekanligi anglashilmaydi.

Turkiy tillarda o'zlashmalar har bir xalq tilining qanday xalqlar va madaniyatlar bilan aloqalarda bo'lganligi oynasidir. Shu nuqtayi nazaradan turkiy tillarni o'ziga xos tasnifini ham berish mumkin. Bunday tasnifning birinchi ko'rinishini XI asrda Mahmud Koshg'ariy bergan edi. Shu belgi asosida u turkiy tillarni dastlab ikki katta guruhga:

- 1) sof tillar,
- 2) aralash, boshqa tillar ta'siriga uchragan tillarga

ajratib, aralashgan tilliarni, o'z navbatida, eroniy tillar ta'sirida bo'lgan tillarga va xitoy-tibet tillari ta'sirida bo'lgan tillarga bo'ladi.

⁴⁴ O'zbek ertaklarida ko'p uchraydigan *Qoqopari*, *Guligoqo* obrazi va nomi bevosita shu xitoycha so'z bilan bog'langan va "xoqon – xitoy shohining qizi", "Xitoy hukmdori bog'ning guli" ma'nolariga ega. Qiyos. Mir Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Xoqon – Chin hukmdori, Farhodning otasi

Turkiy tillarni ularda olinmalarning manbalari asosida tasnif etadigan bo'lsak, qadimgi davrlarda qadimiy mo'gullar, xitoyliklar va budda dini madaniyati namoyandalari bilan aloqalar turkiy xalqlar hali bir-biridan butunlay uzoqlashib ketmagan davrlarga mansub degan xulosaga kelamiz. Chunki bunday olinmalar qadimgi bulg'orlar, ulardan olinmalar sifatida venger tilida ham uchraydi.

Hozirgi O'zbekistonning katta hududida miloddan oldingi davrlardan boshlab turkiy-eroniy zullisonaynlik amalda bo'lgan. Milodning IV asridan keyin esa bu hodisaning haqqoniyligi tarixiy yodgorliklarda qayd etilgan, zeroki aftalitlarning turkiy qavmlarga mansubligi bugun hech kim uchun sir emas. VIII asrdan boshlab O'rta Osiyo mintaqasidan tarqagan turkiy qavmlarining – hozirgi o'zbek, uyg'ur, turk, turkman va ozarilarning (saljuqiylarning) arab tili va islom madaniyati bilan aloqalari boshlanib, XX asr boshlarigach davom etadi; yozma yodgorliklar ichida hozircha eng qadimiy sanalayotgan "Quradg'u bilig"da (XI) arabiy va forsiy olinmalar miqdori – ularning ko'pchili turkiy muqobilga ega bo'lsa-da (chunonchi, *Haq/Alloh/Xudo va O'g'an, Edhi, salot/namoz va yukunch, kitob – bitig, rasul/payg'ambar va savchi, ilm – bilig, alim – bilga, shah – elig, beg....*), juda ko'p. Mahmud Koshg'ariy turklar o'z so'zlarini yo'qita borayotganlarini, ularning o'rinda arabiy va forsiy so'zlarni qoll'ayotganlarini qattiq qoralaydi. Kuyunchak turkparvar *Qilich tatiqsa ish tuchir, turk tatiqsa et tunchir* – "Qilich ishlamay (zanglab) qolsa, ish ayniydi, turk yotlashsa, tabiati ayniydi" maqolini ham keltiradi. Tabiiyki, bu xalq maqoli X asrdan ancha oldingi davrlarda shakllangan.

VII asr va undan keyingi davrlarda turk xoqonligi, Oltoy mintaqasi qavmlarining Xitoy bilan aloqalari, turk zodagonlarining xitoylashib keta boshlaganlari Kultagin va To'ngyuquq yodnomalarida qayd etilgan. Bu ta'sir hozirgi oltoy, xakas, yoqut tillari leksikasida sezilarli iz qoldirgan.

Rus tiliga (slavvyan tillariga)IX va undan oldingi asrlarda turkiy so'zlar (chunochi, *jir, kirpich, utug, kursaq*) kirib o'zlasha borayotgani, jumladan, akademiklar Vladimir Gordlevskiy (1875-1956), Aleksandr Samoylovich (1880-1938), Nikolay Dmitriyev (1898-1954), Andrey Kononov (1906-1986)lar tomonidan o'rganilgan "Igor polki jangnomasi" kitobidagi turkiy so'zlar va iboralar tarixidan ochiq-oydin ma'lum. Tabiiyki, ruslar bulg'or va xazarlar ta'siriga uchragan bo'lsalar, bu turkiy xalqlar ham slavyan tillari ta'siridan chetda qolishmagan.

XI-XII asrlarda turkiy xalqlarning Chigizxon xuruji bilan bog'liq ravishda mo'g'ul tillari bilan yangi robitalari boshlanadi. XVIII oxirigacha bo'lgan harbiy va ma'muriy atamalarida yangi mo'g'ul olinmalari juda keng qo'laniladi.

XIV asrdan boshlab Rusiyaning kuchayishi va dastlab Qozon, Xazar, keyinchalik Kavkaz Sibir, Oltoy va o'zbek (qozoq) turkiy xonliklari hisobidan keskin kengayishi, va nihoyat Turkistonni ham o'z tarkibiga qo'shib olishi bilan bog'liq ravishda Volgabo'yi, Sibir, Oltoy, Uzoq Sharq turkiy xalqlari (totor, boshqird, chuvash, oltoy, xakas, oyrot, so'r, yoqut) va tillari rus tili ta'siri ostida qoldi va ularning tillaridan ruscha olinmalar keng o'rin ola boshladi. XIX asrdan keyin bunday ta'sir Kavkaz va Turkiston hududi turkiy tillarida (qirim-totor, qarayim, qorachoy, bolqor, ozari, truxmen, Dogiston turkchalari, o'zbek, qozoq, qirgiz, qoraqalpoq, turkman tillarida) ham sezila boshladi.

Xitoy mintaqasida joylashgan uyg'ur tili va Yevropa bilan yaqin aloqalarda kirishgan turk tiliga uyg'ur tiliga Xitoy-Tibet tillari, turk tiliga – G'arbiy Yevropa tillaridan, dastlab , fransuz va italyan tillaridan, keyingi davrda ingliz tillaridan olinmalar soni osha bordi.

Ma'lumki, xalq mafkurasi, madaniyati, dini uning tiliga juda kuchli iz qoldiradi. Shu bois islom dinida bo'lgan turkiy xalqlar tilida (o'zbek, uyg'ur, turk, ozariy, totor, boshqird, turkman, qozoq, qirg'iz tillari) arab va eroniy til unsurlari, buddaviy din namoyandalari tillarida (xakas, oltoy, sho'r) – qadimgi hind, nasroniy din vakillari nutqida (yoqut) slavyancha va yunoncha, ibroniy dindagilar tilida (qarayimlar) yahudiy tili birliklari anchaginadir. Bu olinmalar xalqning tarixi, madaniy aloqalaridan guvohlik berib tiradi.

Olinmalar xalqning bosib o'tgan ma'naviy-madaniy tarixi in'ikosi bo'lsa, har bir turkiy til leksikasidagi **o'z qatlam** uning zotiy tabiatini ochib beruvchi, uning ildizlariga ishora qiluvchi, genealogik aloqalarini aks ettiruvchi muhim omildir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki,

turkiy tarixiy yozma yodgorliklarda va hozirgi turkiy tillar leksikasida o'z qatlam (turkiy tillarning deyarli barchasi uchun umumiy va umumturkiy deb ataladigan so'z va o'zaklar, shuningdek har bir tilning ichki so'z yasash usullari asosida umumturkiy leksik birliklardan va o l i n m a l a r dan yasalgan so'zlar xazinasini) sifatidan va miqdoran o'zlashma qatlamdan ustun turadi. Bu xulosa muayyan turkiy tillarning barchasi bo'yicha o'tkazilgan statistik tadqiqotlar bilan uzil-kesil tasdiqlangan va munozaraga o'rin qoldirmaydi.

Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik, tana a'zolari, insonning juda ko'p sonli harakatlari, azaliy tabiiy hodisalar, atrof-muhitning umumiy xususiyatlari, ko'pchilik hayvonlar, asosiy ranglar, shaxs va ko'rsatish olmoshlarini atash bilan bog'liq bo'lgan so'zlar juda qadimiylar va barcha turkiy tillarda, asosan, umumturkiy leksik qatlamga mansubdir. Lekin bu umumturkiy leksika muayyan turkiy tillarda ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan va bu o'zgarishlar, asosan, quyidagi turlardir:

1. So'zning moddiy qobig'i tovushlar almashinishi va mos kelishi qonuniyatlari asosida ma'lum o'zgarishlarda uchragan – shaklan o'zgarib ma'no saqlangan: o'zb. *ota* ~ qoz. *ata*. o'zb. *ona* ~ turk. *anna*, o'zb. *kichik* ~ tur. *ku'chu'k*;

2. So'zning shakli saqlanib, ma'nosi bir muncha o'zgargan: turk. *da'da* – "bobo", Qiyos: o'zb. *dada*;

3. So'zning shakli ham, ma'nosi ham o'zgargan: turk. *dayi* ~ o'zb. *tog'a* (es. o'zb. *tag'ayi*).

Bu jarayonni yorqin ko'rsatish uchun biz um. *ana* leksemasining muayyan turkiy tillarda shakllari va ma'nosi bilan tanishib o'tamiz va bunda Ludmila Pokrovskayaning mashhur tadqiqotiga tayanamiz⁴⁵:

um. *ana* leksemasi barcha turkiy tillarda qo'llaniladi va, asosan, "ona", "katta ayol qon-qarindosh" ma'nosiga ega. Bu so'z quyidagi fonetik ko'rinishlarda uchraydi: qoz., qq., tur., tot., uy. *ana*, o'zb. *ona*, qir. *ena*, o'zb. *ena*, turk., tuv. *ene*, tur., chuv. *anne*, tot. *a'ni*, xak. *ine/iney*.

Bu leksemaning shakl tomoniga e'tibor bersak, unda old qator~orqa qator, keng~tor unlilar almashinuylarini ko'rishimiz mumkin.

um. *ana* leksemasi turkiy tillar bo'yicha muayyan ravishda quyidagi ma'nolarga ega: ko'pchilik tillarda u "ona" ma'nosiga ega. Lekin bundan tashqari u yana quyidagi xususiy ma'nolarga ega bo'lishi qayq etilgan: oltoy tilida "keksa ayol, kampir", qozoq tilida *ana* – "ona", *ene* – "qaynana", tuva tilida *ene* – "xola/amma", *eney* – "buvi". Deyarli barcha turkiy tillarda bu so'z "urg'ochi, bolali" ma'nosiga ham ega o'zb. *ona* qo'y, *ona* o'rdak.

Mana shunga o'xshagan ma'no va shakl farqlarini bugungi turkiy tillarning umumturkiy qatlamiga mansub har bir so'zda ko'rish mumkin. Leksika har bir til uchun muayyan va aniq bo'lganligi sababli har bir umumturkiy o'zak va so'zning har bir turkiy tilda aniq ma'nosi faqat bu til lug'atlari bilan oydinlashtirilishi mumkin. Shuning uchun shaklan juda o'xshash so'zlar ikki turkiy tilda boshqa-boshqa ma'nolarga ega bo'lmog'i mumkin. Qiyos.: o'zb. *tug'ilmoq* ~ tur. *dog'maq*; o'zb. *yer* ~ gag. *er*. Bunday shakily va ma'noviy o'zgarishlar tovush mos kelishi va almashinuvi xususiyatlari, hamda so'z ma'nolarining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik asosida ko'chimlari va ma'noviy ixtisoslashish qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tilning leksik sathi nega o'zgaruvchan?
2. Olinmalar nimadan darak beradi?
3. Turkiy tillardagi olinmalarni ularning manba tillariga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin?
4. Din tilning lug'at tarkibiga ta'siri qiladimi?
5. O'zlashma qatlam miqdoran o'z qatlamdan katta bo'lgan turkiy til bormi?
6. Umumturkiy so'z/leksema deganda nima tushuniladi?
7. Umumturkiy so'zlar muayyan turkiy tillarda qanday o'zgarishlarga uchrashi mumkin?

⁴⁵ Покровская Л.А. Термины родства в тюркских языках. В кн. Историческое развитие лексики тюркских языков. М.: Изд. АН. 1963. С. 11-81.

8. Biror turkiy til (turk, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman v.b.) l lug'ati bilan tanishib, undan 5 tadan o'zbek tiliga nisbatan faqat shaklan, faqat mazmunan, ham shaklan jam mazmunan farqlanadigan so'zlar toping.

Ma'ruza matnida shartli – raqam bilan ko'rsatilgan mafkuraviy, metodologik va ilmiy-o'quv adabiyotlar ochqichi.

1. Каримов И. Юксак маътавият – енгилмас куч. Т. Ўзбекистон. 2008 . 176 б.
2. КАРИМОВ И. Маънавий юксалиш сари. Т. Ўзбекистон. 2000. 486 бет.
3. КАРИМОВ И. Мавжуд салоҳият ва имкониятдан фойдаланиш – муваффақият гарови. Тошкент халқ депутатлари вилоят кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқ. 2005 йил 7 ноябрь. «Каримов Исроҳ. Инсон, унинг унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14. Т.: Ўзбекистон. 2006» китобида . Б.20-47
4. КАРИМОВ И. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.Т.Ўзбекистон. 1997. (шунингдек истаган кейинги нашрлари)
5. Каримов И. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. ЎЗР Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисида маъруза. 2007 йил 30 август газ. «Халқ сўзи» 2007 йил 31 август 173-сон (шунингдек истаган кейинги нашрлари)
6. Каримов И. Жамиятимизнинг мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат қилсин. Т.:Ўзбекистон. 1998. 30 б. (шунингдек истаган кейинги нашрлари)
7. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари. «Таълим тараққиёти» ахборотномаси. 1999, 1-махсус сон.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 343-рақамли «Олий таълим давлат таълим стандартлари. Асосий қоидалар» Қарори.
9. Абдуллаев Ф. -чи аффиксининг генезиси ҳақида. «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари» 6-сон 1960.
10. Абдуллаев Ф. Туркий тилларда келишиқ қўшимчаларининг генезиси ҳақида. «Ўзбек тили ва адабиёти масалари» 5-6-сонлар 1961.
11. Абдуллаев Ф Туркий тилларда нг товушининг урчиши масаласи «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари» 2-сон 1962
12. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. 1-китоб. Тошкент. 1962.
13. Абдурахмонов Н., Ж.Элтазаров. Қадимги туркий тил. Самарқанд, 2002.
14. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий. Матнлар юзасидан амалий машғулотлар. Самарқанд 2001.
15. Абдурахмонов Ғ./., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т. 1973.
16. Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. Т. 1978.
17. Баскаков Н.А. Введение в изучении тюркских языков. М. 1962.
18. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. М. 1982.
19. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Род общей редакции Н.К. Дмитриева. Части 1-4. М., 1954-62.
20. Историческое развитие лексики тюркских языков. М. 1961
21. Севортян Э.В. Аффиксы: глаголообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования. М. 1962.
22. Севортян Э.В. Аффиксы: именного словообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования. М. 1966.
23. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. М. 1984.
24. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. М. 1988.
25. Гаджиева Н.З., Серебренников Б.А. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Синтаксис. М. 1986

26. Ўзбек тили тарихи масалалари. Т.1977.
27. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. Тошкент, Фан, 1966.
28. Решетов В.В. Узбекский язык. 1-часть. Введение. Фонетика. Ташкент. 1959.
29. Неъматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Т.1995.
30. Лингвистический энциклопедический словарь. - М.:СЭ. 1990.
32. Баскаков Н.А., Абдуазизов А., Умумий тилшунослк. Т.: Ўқитувчи. 1979.
33. Шерматов Аъзам. Лингвистик география нима? Тошкент. Ўқитувчи. 192. 56 б.
33. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Т.2007.
34. "Ўзбек диалектологияси" ўқув фанидан истаган (В.В.Решетов ва Ғ.Абдурахмоновларнинг, Н.Ражабовнинг ёки бошқа муаллифнинг) дарслик ёки ўқув қўлланмаси.
35. Неъматов Х., Аҳмедов А, Ареал лингвистика. Ўқув қўлланма. Бухоро. 2010.

**О'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Buxoro davlat universiteti**

Fakul'tet dekani

N.Afoqova

“_____” sen. 2010- yil.

«Tasdiqlayman»

О'quv ishlari bo'yicha prorektor

B.Y.Axmedov

“_____” sen. 2010

O'zbek filologiya fakultetining o'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha
“Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”
o'quv fanidan amaliy mashg'ulotlar
hamda mustaqil talim bo'yicha

T A V S I Y A L A R

Tuzuvchi - Hamid Ne'matov. (BuxDU professori),

Taqrizchi - Atoullo Axmedov filologiya fanlari nomzodi (BuxDU)

Ushbu Tavsiyalar BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2010-yil “28” avgustidagi yig'lishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri

B.E.QILICHEV

O'quv fanining asosiy maqsadi Ushbu o'quv fani talabalarni turkiy tillarning o'zbek tilining shakllanishida muhim o'rin tutgan qarluq-uyg'ur (o'zbek va uyg'ur adabiy tili misolida), o'guz (turkman adabiy tili misolida), qipchoq (qozoq va qoraqalpoq adabiy tili misolida)), qirg'iz (qirg'iz adabiy tili misolida) asosiy grammatik xususiyatlari (xususan fonetikasi va morfologiyasi) bilan tanishtirib, birinchidan, yuqorida sanab o'tilgan tillarda yozilgan matnlarni umumiy tushuna oliash pragmatik ko'nikmalarini hosil qilish va, ikkinchidan, tilimizning jonli shevalaridagi farqlarning sabablari bilan ularni tanostiradi, o'zbek xalqining murakkab shakllanish jarayonini lingvistik hodisalarda namoyon qiladi.

Ushbu o'quv fanini o'rganish natijasida talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bolishlari kerak:

Nazariya sohasida:

-Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik haqida tushuncha;

- Qiyosiy-tarixiy metod (QMT) haqida umumiy tasavvur;
- QTM va lingvistik geografiya;
- O'rta Osiyoning lingvistik xatitasi haqida tushuncha;
- qarluq, uyg`ur, o`guz, qipchoq, qirg`iz guruhlariga kiradigan tillar haqida tushuncha;
- O'zbek, uyg`ur, qozoq, qoraqalpoq qirg`iz tillari haqida tushuncha;
- O'zbek adabiy tili, shevalarining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarining singarmonizmga munosabati haqida tushuncha:
- o'zbek tilining qarluq-uyg`ur(-chigil), qipchoq, o`guz l a h j a larining turkiy til gurihlariga mansubligi haqida tushuncha;
- o'zbek adabiy tili da /o/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /a/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /e~ye/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /i~iy/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /o`/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /u/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da inlaut /y/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /o/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da /sh/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da anlaut /m/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da auslaut /q~g`k~g-/ tovushlari va grafemalarining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da auslaut /v/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili da inlaut va auslautda /ng/ tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari:
- o'zbek adabiy tili tovushi va grafemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlarida singarmonistik va nosingarmonistik (tipologik) hodisalar:
- o'zbek adabiy tilida /-lar/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:
- o'zbek adabiy tilida /-ning/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:
- o'zbek adabiy tilida /-ni/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:
- o'zbek adabiy tilida /-ga/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:
- o'zbek adabiy tilida /-da/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:
- o'zbek adabiy tilida /-dan/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:
- o'zbek adabiy tilida /-roq/ morfemasining qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-dir/ shaxs-son morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-di/ zamon morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-a~y-/ zamon morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-yap-/ zamon morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-gan-/ zamon morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-ib-/ zamon morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-ajak~yajak-/ zamon morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-g`in/ buyguq morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-sin/ buyguq morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari:

-o`zbek adabiy tilida /-(a)ylik/ buyguq morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari

-o`zbek adabiy tilida /-(i)mg(iz)/ buyguq morfemasining qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida muvofiqlari va singarmonistik variantlari

Pragmatikada:

qozoq,qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida siyosiy, madaniy-ma`riviylarining umumiy ma`no va mohiyatini uqalash ko`nikmalariga ega bo`lish.

Amaliy mashg`ulotlar texnologiyasi va ularga tayyorlanish

Kursning o`qitilishidagi muhim texnologik yangilik shundan iboratki, ta`lim usuliga ko`ra u pragmatikaga qaratilgan shakl va maznun-u usulda o`qitiladi va ayni zamonda ma`naviy-marifiylar hamda Vatan tuyg`usi ruhi bilan yo`g`dirilgan bo`ladi. Ma`ruza materiallari ham, amaliy va seminar mashg`ulotlari ham O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarining, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o`zbek va boshqa turkiylar xalqlarining eng yaxshi badiiy asarlarining o`zbek, tatar, qozoq, qoraqalpoq, qirg`iz, uyg`ur adabiy tillarida nashrlari til materialini qiyoslash asosida quriladi va izohlanadi.

Talabalar amaliy va seminar mashg`ulotlarining barcha topshiriqlarini mazkur asarlar asosida mustaqil va ijodiy shakl va mazmunda bajaradilar.

Auditor amaliy mashg`ulotlar interfaol usulda tashkil etiladi. Buning uchun akademik guruh o`z ichida 5-6 talabadan iborat faol guruhchalarga ajralib, guruh o`z nomiga ("Chaqmoq", "Yorqin", "G`alaba" v.h.) ega bo`lgani ma`qul. Har bir guruhda o`z sardori boladi va u ishlarni rejalashtiradi va muvofiqlashtiradi.

Amaliy mashg`ulotlarning umumiy yo`nalishi hozirgi o`zbek tili hodisalarining boshqa turkiylar tillarida muvofiqlarini aniqlash va shu asosda turkiylar tillarining qiyosiy grammatikasi materiallarini, shuningdek hozirgi o`zbek tilida va xalq shevalarida mavjud innovatsiyalarning manba va sabablarini o`rganishga qaratilgan bo`ladi. Buning uchun talabalar ayni bir matnning o`zbekcha va boshqa turkiylar tildagi ko`rinishlari bilan ta`minlanadilar. Talaba mustaqil ravishda shunday – o`zbek va boshqa turkiylar tildagi muvofiq matnni o`zi mustaqil topib tanlasa, joriy va yakuniy baholash ballarini belgilashda bu hisobga olinadi, albatta.

Guruhchalarda amaliy mashg`ulotlarda ish ikki usulda yo`lga qo`yiladi:

I-ko`rinish: guruhdagi har bir talaba har bir mashg`ulotda ma`lum bir turkiylar til bo`yicha (individual) ishlaydi va natijada guruhchadagi 5-6 talaba o`zbek tili ayni bir hodisasining 5-6 turkiylar tilda muvofiqlari ustida mustaqil ish olib boradi va natijalarini mashg`ulotda bayon qiladi. Bunday usulda ishlaganda talabalar har bir mashg`ulotda matnlarni o`zaro almashtiradilar

(chunonchi, bu mashg'ulotda qozoqcha matn asosida ishlagan talaba navbatdagi mashg'ulotda qirg'izcha matn ustida ishlaydi va shunday qilib talabalar matnlarni o'zaro almashtirib turadilar.). Bunday usuldan o'zbek tilining ayrim bir hodisasining boshqa turkiy tillarda muvofiqlari ustida izlanish va kuzatish olib borilganda foydalaniladi.

2-ko'rinish: har bir amaliy mashg'ulotda butun guruhcha umumiylikda bir turkiy til materiali ustida ish olib oradi. Bunday usuldan o'zbek tilining bir guruh hodisalarining (masalan, o'zbek tili undoshlari/unlilari yoki kelishik shakllarining) boshqa turkiy tillarda muvofiqlari ustida izlanish va kuzatish olib borilganda foydalaniladi. Bunda guruh ichidagi talabalarga sardor hodisalarni bo'lib beradi.

Har bir amaliy mashg'ulot uchun mavzu va topshiriq talabalarga oldindan beriladi va ular unga tayyorlanib kelishlari kerak. Chunonchi: O'zbek tilidagi a,i,e unlilariningtilida mevofiqlari. Bunday topshiriqni olgan talaba o'zbekcha matnda,dastlab, /a/ unlili so'zlarni ajratib oladi va o'zi o'rgnishi kerak bo'lgan boshqa turkiy tildagi matndan shu so'zlarning shu tildagi ko'rinishlarini topadi. Bu so'zlarda o'zbekcha /a/ning qaysi tovushga muvofiqligini aniqlaydi va sabablarini sharhlaydi (Chunonchi, bu tilda unlilarda qattiq/yumoqlikning fofnologik farqi, singarmonizm v.h.). Sabablarini sharhlay olmasa (chunonchi, o'zbekcha orqa qozoqcha arqi), bunday hodisalarni alohida ajratib keladi va masala auditoriyada muhokama qilinadi.

Mustaqil talim uchun ajratilgan mavzular ustida ish.

O'quv fanidan ishchi dasturda mustaqil ta'lim mazmuni quyidagicha belgilangan
Fanga ajratilgan o'quv soatlarining bo'limlar va o'quv turlari bo'yicha taqsimoti

	Mavzular	Auditor soatlar				Must.	Ham masi
		Jami	Shundan:				
			Ma`r.	Amal.	Sem.		
7-8-jarayonlar							
	Kirish.Lingvistik qiyosiy-tarixiy tadqiq metodlari va vazifalari.	22	10	4	8	10	32
	Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy fonetikasi.	30	16	10	4	10	40
	Turkiy tillar qiyosiy-tariixy morfologiyasi	34	22	6	6	10	24
	Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy leksikasi	8	2	2	4		8
	Jami	74	30	22	22	30	104

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqil o'rganishga o'quv fani oldida turgan maqsadga erishish uchun oldingi ta'lim bosqichlarida qisman o'rganilgan va bunda shu soha bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish yoki o'sha bilimlardan endi boshqa maqsadlarda foydalanish zarur bo'lgan mavzular chiqarilgan.

Chunonchi, lingvistik tadqiq metodlari mavzusi "Umimiy tishunoslik", "O'zbek tili tarixi", "O'zbek shevashunosligi" o'quv fanlari doirasida o'rganilgan. Bu yerda qiyosiy-tarixiy metod, uning asosiy tamoyillari tadqiq usullari, qo'llanilish tarixi, maqsad, vazifa va imkoniyatlari masalalariga alohida e'tibor berish lozim. Jumladan, bu o'quv fani uchun qiyosiy-tarixiy metodning har bir lisoniy birlikning o'ziga xos alohida tarixini ko'rib chiqish uchun, umumiy tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarining alohida-alohidatil hodisalarida yuzaga chiqishini tahlil etish, til tizimida qadimiy, keyingi va yangi hodisalarning yonma-yon yashay olishini izohlash uchun yagona yaroqli usul ekanligini uqib olishlari zarur.

Mustaqil o'rganish uchun chiqarilgan yana bir mavzu umumxalq o'zbek shevalarida tovushlarning o'zaro mos kelishi va almashinuvlaridir. Bu mavzu talabalar tomonidan "O'zbek

shevashunosligi” o`quv fani doirasida o`rganilgan, lekin bu o`quv fanida o`sha almashinuv va mos kelishlarning tarixiy va lisoniy sabablarini izohlashga alohida e`tibor qaratiladi. Talabalar turkiy tillar qiyosiy-tarixiy fonetikasi materiallari asosida mana bu shevadagi adabiy til me`yorlaridan farqlanuvchi mana bu fonetik hodisa (chunonchi) demoq o`rnida temoq shaklining, yoki kelgan o`nida gelan shaklining qo`llanilishi sabablarini izohlay olishlari lozim.

Mustaqil o`rganish uchun chiqarilgan yana bir manba turkiy tillar qiyosiy-tarixiy morfolgiyasi bo`yicha jahon turkiyshunosligida eng keyingi umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqot bo`lib, u iste`dodli talabalar tomonidan o`rganishga yo`naltirilgan. Shu tadqiqot boyicha referat yoki axborot tayyorlagan talabalargina MIBa 25 bl olishga da`vogarlik qila oladi.

O`quv fani yakuniy yozma ish bilan nihoyasiga yetadi. Unga JB va OBlarda kamida 46 bal yiqqan talabagina ishtirok etishi mumkin. Yakuniy yozma ish topshiriqlari, metodik tavsiyalari va talablari quyidagicha:

YAKUNIY YOZMA ISH RELASI VA TALABLARI

BERILGAN MATN ASOSIDA O`ZBEK VA QOZOQ / QIRG`IZ / TURKMAN / TURK / QORAQALPOQ / UYG`UR TILLARINING FONETIK, GRAMMATIK, LEKSIK UMUMIYLIK VA FARQLARI

REJA:

1. O`ZBEK TILINING TURKIY TILLAR TIZMIDA O`RNI.
2. QOZOQ/TURKMAN.. TILINING TURKIY TILLAR TIZMIDA O`RNI.
3. TAHLIL ETILAYOTGAN MATN (O`ZBEK VA TANLANGAN TILDA).
4. FONETIK UMUMIYLIK VA FARQLAR.
5. MORFOLOGIK UMUMIYLIK VA FARQLAR.
6. LEKSIK UMUMIYLIK VA FARQLAR.
7. XULOSA.

Ishni yozish uchun metodik tavsiyalar

Yozma ish materiali sifatida talabalar amaliy mashg`ulitlarda tahlil etgan yoki talaba mustaqil ravishda tanlagan qozoq, turkman, qirg`iz, uyg`ur, qoraqalpoq, turk (yoki talabaning ixtiyori va imkoniyatiga ko`ra istagan boshqa bir turkiy) tildagi matn olinadi. Rejaning uchinchi bandida bu matn tanlangan tilda va o`zbek tilida beriladi (agar matn matbuot yoki badiiy adabiyotdan olingan bo`lsa, kseronuxsa shaklida ham berish mumkin). Matn talaba tomonidan mustaqil tanlangan bo`lsa, bu talabaga oraliq va joriy nazoratlari ballariga yana 10 ballgacha qoshimcha bal qo`shish imkoniyatini beradi (ya`ni yakuniy nazoratning maksimal 15 balidan tashqari OB va JB ballariga yana 10 balgacha qo`shilishi mumkin).

Rejaning 1- va 2-bandlari “Turkiy filologiyaga kirish” o`quv fani adabiyotlari ro`yxatida ko`rsatilgan adabiyotlar, shuningdek “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” yoki Internetdagi “Vikipediya” materiallari asosida yoziladi. Bunda o`zbek va tanlangan turkiy tilning turkiy tillarning qaysi tarmog`i, guruhi va guruhchasiga mansubligi, tanlangan turkiy tilning turkiy tilning tarqalishi, bu tilda so`zlarchilarning miqdori, yozuvi, asosiy fonetik, Grammatik xususiyatlari sharhlanadi.

Rejaning 4-bandi o`zbekcha va boshqa turkiy tildagi matnlarda o`zbek tili unli va undoshlarining o`zaro muvofiqligi bir-biriga mos kelishi asosida yoziladi.

Chunonchi, (“O`ZR Prezidentining Farmoni” matni asosida) o`zbek tilidagi /i/ tovushi qozoqcha matnda уздіксіз, берілетін, екі, бірге kabi so`zlarda old qator (yumoq), lablanmagan tor unliga, жыл, ақы, отырған..... kabi so`zlarda orqa qator lablanmagan tor unliga, Республика, Президент ... kabi baynalmilal so`zlarda oraliq tor, lablanmagan unliga muvofiq keladi..... (Shu tartibda barcha unlilar tavsiflanadi)

O`zbek tilining tilo`rta sirg`aluvchi sonor undoshi /y/ so`z boshida matnda жыл, жене, жумыс.... kabi so`zlarda qorishiq portlovchi /j/ tovushiga o`tadi, so`z o`rtasi va oxirida ай, тербие, Мирзияев.... Kabi so`zlarda

/y/ sifatida saqlanadi.(Shu tartibda barcha undoshlar tavsiflanadi)

Rejaning 5-bandini yozishda talabalar eng avvalo o'zbek qoshimchalarinig boshqa turkiy tildagi matnda singarmonistik variantlariga alohida e'tabor bermoqlari va ularni mufassal sanab o'tishga harakat qilishlari zarur/ Chunonchi, o'zbekcha ko'plik qoshimchasi –lar bu matnda qattiq (orqa qator unlili) o'zak-negizlarga unlilar keyin qattiq –лар shaklida (напақалар, стипендиялар, балалар), undoshlardan keyin -лар, –дар, -тар (турғындар, азаматтар....), yumshoq (oida qator unlili) o'zak-negizlarga -лер,-дер, тер shakllarida qo'shiladi (министрлер, хизметкерлер...; мугедектер, толөмдер...)

(Shu tartibda o'zek va qiyoslanayotilgan til uchun umumiy bo'lgan barcha qo'shimchalar tavsiflanadi)

O'zbek tilidagi –v/-uv harakat nomi yasovchi qo'shimcha qozoq tilida qattiq va yumshoq variantli –u qoshimchasiga o'tadi: арттыру....

Shu tarzda matnning asosiy morfologik xususiyatlari navsiflanadi.

Rejaning 6-bandini o'zbekcha va boshqa turkiy tildagi matnlarda o'zbek tili so'zlari bilan ma'no va shakl (singarmonizmni hisobga olmaganda) jihatdan o'xshash bo'lgan (нафақа – напақа, стипендия, арттыру...), shakl jihatdan o'xshash bo'lib, ma'no jihatdan farqlanuvchi (азамат, зейнет, турғын...) va o'zbek tilida qo'llanilmaydigan so'zlar (енбекақы, молшер, кежетти...) ajratib beriladi.

Yozma ish berilgan qiyosiy tavsif asosida xulosa chiqarish bilan yakunlanadi

O'quv fani bo'yicha zaruriy metodologik, hamda ilmiy va o'quv adabiyotlar ro'yxati shu oquv fani boyicha ilova etilayotilgan namunaviy dasturda berilgan.